

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI

SUD VA HUQUQNI  
MUHOFAZA QILUVCHI  
ORGANLAR

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi  
akademik litseylari uchun  
**DARSLIK**



TOSHKENT-2023

## **UO'K 342.9(075)(575.1)**

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining 2022-yil 31-dekabrdagi  
178-sod buyrug'iiga asosan nashrga tavsiya etilgan*

### **Mas'ul muharrir:**

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi boshlig'iining birinchi o'rinnbosari v/b,  
yuridik fanlar doktori, professor **B.A. Rajabov**

### **Taqrizchilar:**

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Tashkiliy-shtab faoliyati kafedrasi boshlig'i, yuridik  
fanlar doktori, professor **A.A. Matchanov**

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi sudlarda prokuror vakolatini  
ta'minlash hamda ijro ishi yurituvni kafedrasi dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha  
falsafa doktori (PhD) **D.S. Dovudova**

### **Mualliflar jamoasi:**

<b>M.Z. Ziyodullayev</b> – yuridik fanlar doktori, professor	I va IV boblar ( <b>F.M. Jo'rayev</b> bilan hammualliflikda);
<b>B.B. Murodov</b> – yuridik fanlar doktori, professor	V bob ( <b>B.B. Axmedov</b> bilan hammualliflikda);
<b>B.N. Rashidov</b> – yuridik fanlar doktori, dotsent	II bob ( <b>O'.Sh. Sayfullayev</b> bilan hammualliflikda);
<b>Sh.A. Kulmatov</b> – yuridik fanlar doktori, professor	VII bob ( <b>T.A. Mavlonov</b> bilan hammualliflikda);
<b>Sh.H. Aliyev</b> – yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	IX bob ( <b>Sh.T. Djumanov</b> bilan hammualliflikda);
<b>A.A. Sultonov</b> – yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	III bob ( <b>S.A. Abduqaxxorov</b> bilan hammualliflikda);
<b>M.E. Muminov</b> – yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)	VI bob ( <b>L.Z. Turdiyev</b> bilan hammualliflikda);
<b>M.Dj. Botayev</b> – yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)	X bob ( <b>L.N. Radjapova</b> bilan hammualliflikda);
<b>G.K. Botirov</b> – yuridik fanlar nomzodi	VIII bob ( <b>T.Bayjanov</b> bilan hammualliflikda).

**S-89 Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar:** Darslik / M.Z. Ziyodullayev, B.B. Murodov, Sh.A. Kulmatov va boshq. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2023. – 124 b.

Darslikda "Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar" fanining predmeti va asosiy tushunchalari, sud, adliya, prokuratura, ichki ishlari va yong'in xavfsizligi organlari, davlat xavfsizlik xizmati, soliq va bojxona organlari, Milliy gvardiya va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizligi xizmati, advokatura va yuridik xizmat, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) faoliyati, vazifalari, tuzilishi, tizimi va faoliyatining asosiy yo'nalishlari yoritilgan.

Darslik IIV akademik litseylarining professor-o'qituvchilari, o'quvchilari, shuningdek, shu sohaga qiziquvchi keng ommaga mo'ljallangan.

**UO'K 342.9(075)(575.1)**

# MUNDARIJA

## I bob. "SUD VA HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR" FANINING PREDMETI, TIZIMI, MAQSADI VA VAZIFALARI

1-§. "Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar" fanining maqsadi, vazifalari, predmeti hamda boshqa fanlarni o'rganishdagi ahamiyati .....	8
2-§. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning davlat organlari tizimidagi o'rni.....	10

## II bob. SUD ORGANLARI

1-§. Sud organlari tushunchasi, vazifasi va prinsplari.....	15
2-§. Sud organlarining tizimi va tuzilishi.....	18
3-§. Sudyalarining mustaqilligi, daxlsizligi va faoliyati.....	20

## III bob. ADLIYA ORGANLARI

1-§. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining tizimi.....	26
2-§. Adliya vazirligining vazifalari va funksiyalari.....	26
3-§. Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarining faoliyati.....	28
4-§. Notariat organlari faoliyati.....	29

## IV bob. PROKURATURA ORGANLARI

1-§. Prokuratura organlarining vazifalari va faoliyatining asosiy yo'nalishlari.....	34
2-§. Prokuror nazorati sohalari.....	36
3-§. Prokuratura organlarining tizimi va tuzilishi.....	41
4-§. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurururasи huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning vazifalari.....	45
5-§. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurururasи huzuridagi majburiy ijro byurosi va uning vazifalari.....	46

## V bob. ICHKI ISHLAR VA YONG'IN XAVFSIZLIGI ORGANLARI

1-§. Ichki ishlar organlari, uning tizimi va asosiy vazifalari.....	50
2-§. Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy prinsiplari va yo'nalishlari.....	53
3-§. Yong'in xavfsizligi organlarining tashkil etilishi va faoliyatining asosiy yo'nalishlari.....	56
4-§. Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimi va tuzilishi.....	58

## VI bob. DAVLAT XAVFSIZLIK XIZMATI

1-§. Davlat xavfsizlik xizmatining umumiyl tavsifi va faoliyatining asosiy prinsiplari.....	64
2-§. Davlat xavfsizlik xizmati organlarining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari.....	66
3-§. Davlat xavfsizlik xizmatining tizimi, huquqlari va majburiyatları.....	68

## VII bob. SOLIQ VA BOJXONA ORGANLARI

1-§. Soliq qo'mitasi organlarining faoliyatini tashkil etish.....	72
2-§. Soliq qo'mitasining asosiy funksiyalari.....	74
3-§. Soliq qo'mitasining tuzilmasi va vazifalari.....	76
4-§. Bojxona organlari va Bojxona qo'mitasi faoliyatining tashkil etilishi.....	78
5-§. Bojxona qo'mitasi organlarining asosiy vazifalari va funksiyalari.....	80

## VIII bob. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASI. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI DAVLAT XAVFSIZLIK XIZMATI

1-§. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya tarixi, faoliyati va tizimi.....	84
2-§. Milliy gvardiyaning vakolatlari va vazifalari.....	86
3-§. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Surishtiruvni muvofiqlashtirish boshqarmasi va uning asosiy vazifalari.....	88
4-§. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati, uning faoliyati mazmuni va asosiy vazifalari.....	91
5-§. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining huquqlari va majburiyatlar.....	92
6-§. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining boshqa organlar va tashkilotlar bilan hamkorligi.....	98

## IX bob. ADVOKATURA VA YURIDIK XIZMAT

1-§. "Advokatura" tushunchasi va advokatlik faoliyatining turlari.....	100
2-§. Advokatlik tuzilmalarining shakllari.....	102
3-§. Advokatning huquq va majburiyatlar.....	103
4-§. Davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmati.....	105
5-§. Yuridik xizmat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va funksiyalari.....	106
6-§. Yuridik xizmatning huquqlari, majburiyatlar va javobgarligi.....	107

## X bob. OLIY MAJLISNING INSON HUQUQLARI BO'YICHA VAKILI (OMBUDSMAN)

1-§. Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) instituti va uning tuzilishi.....	110
2-§. Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman)ni saylash tartibi.....	112
3-§. Ombudsmanning asosiy vazifalari va faoliyatining yo'nalishlari.....	114
4-§. Ombudsmanning davlat va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorligi.....	117
5-§. Bolalar huquqlari bo'yicha vakilning faoliyati.....	121



## SO'Z BOSHI



"TARAQQIYOT STRATEGIYASI"  
MARKAZI

O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi Taraqqiyot strategiyasining 2-yo'nalishi, ya'ni mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirishga qaratilgan maqsadlar asosida sud hokimiyatining chinakam mustaqilligi va erkinligini ta'minlash, davlat organlari va mansabdar shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish, "Xabeas korpus" institutini yanada rivojlantirish, advokatura institutining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi salohiyatini tubdan oshirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo'naltirish, jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbazarliklarning sodir etilishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga joriy yilgi Murojaatnomasida: "...qisqa muddatda huquq-tartibot idoralarini yangicha ishlashga o'rgatadigan, odil sudlov sifatini oshiradigan tizim yaratamiz. Bu masalada alohida Farmon imzolanadi.

Eng avvalo, odamlarimizning joylarda sudma-sud sarson bo'lib yurishlariga barham beriladi. Buning uchun adolatli hukm va qaror chiqarish bo'yicha viloyat sudlarining vakolati ham, mas'uliyati ham oshiriladi" degan mazmundagi fikrlari asosida tintuv o'tkazish, telefon so'zlashuvini eshitish va mulkni xatlashga sanksiyani prokurordan sudga o'tkazish, sudda ishlarni ko'rishda qatnashadigan alohida prokurorlar korpusini shakllantirish, odil sudlovnii ta'minlashda himoyachi vakolatlarini kengaytirish choralarini ko'rilmoxda.

Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining samaradorligini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan islohotlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan hokimiyatlar bo'linishi prinsipini hayotga izchil tatbiq etish, hokimiyatlar o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish, markazda va joylardagi davlat organlarning vakolatlari hamda nazorat vazifalarini aniq hamda bir xilda bajarilishini ta'minlash mexanizmini yaratishga qaratilgan.

Shu bilan birga, mamlakatimizning ta'lim tizimi uchun zamon talablariga mos keluvchi yangi darsliklar tayyorlash va ularni davr talabidan kelib chiqqan holda yangilash va qayta ishlab chiqish zarur bo'ladi. Ta'lim muassasalarida



tayyorlanayotgan mutaxassislarning huquqiy tayyorgarligi darajasi doimiy ravishda keng jamoatchilikning diqqat markazidagi masalalar qatorida bo'lib, shiddat bilan o'zgarib borayotgan zamon huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining yetuk, yuksak kasbiy tayyorgarlikka ega, huquqiy madaniyat sohibi, ma'naviyatli va boshqalarga o'rnak bo'la oladigan mutaxassis sifatida shakllanishlarini talab etmoqda. Albatta, mutaxassis huquqni muhofaza qiluvchi organlarning turlari, faoliyatining yo'nalishi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlari haqida yetarli darajada ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Ushbu darslikning chop etilishi davlatimizning huquqni muhofaza qiluvchi organlari uchun yetuk mutaxassislar tayyorlashni yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

E'tiboringizga havola etilayotgan mazkur darslik O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining bir guruh tajribali pedagog-olimlari tomonidan Ichki ishlar vazirligi akademik litsey o'quvchilariga mo'ljallab tayyorlangan. Unda O'zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qiluvchi organlariga taalluqli barcha asosiy tushuncha va institutlar bayon etilgan. Sud, adliya, prokuratura, ichki ishlar va yong'in xavfsizligi organlari, davlat xavfsizlik xizmati, soliq organlari, bojxona organlari, Milliy gvardiya va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizligi xizmati, advokatura va yuridik xizmat, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) faoliyatining asosiy yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Advokatura, uning faoliyatiga, shuningdek, davlat va xo'jalik organlarida yuridik xizmatning tashkil qilinishi masalalari tahlil qilingan.

O'ylaymizki, darslik respublikamiz huquqni muhofaza qiluvchi organlari, xususan, IIO uchun huquqshunos kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilashga muhim manba bo'lib xizmat qiladi.



## "SUD VA HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR" FANINING PREDMETI, TIZIMI, MAQSADI VA VAZIFALARI

SIZ USHBU BOBDA QUYIDAGILARNI BILIB OLASIZ:

- “Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar” fanining maqsadi, vazifalari, predmeti hamda boshqa fanlarni o’rganishdagi ahamiyati;
- Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning davlat organlari tizimidagi o’rni.



## 1-§. “Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar” fanining maqsadi, vazifalari, predmeti hamda boshqa fanlarni o‘rganishdagi ahamiyati

Huquqni muhofaza qilish organlari deganda, mamlakatda qonun ustuvorligi, jamoat tartibi va xavfsizligi, fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta’minlash, buzilgan huquqlarni tiklash, huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish, fosh etish, tezkor-qidiruv, ma’muriy va jinoyat-protsessual faoliyatni amalga oshiruvchi hamda aholiga huquqiy yordam ko’rsatish, zarur hollarda davlat majburlovi choralarini qo’llash vakolatiga ega bo’lgan davlat organlari tushuniladi.



**Fanning maqsadi** – o‘quvchilarda sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar to‘g‘risida chuqur nazariy bilimlar, shuningdek, ushbu organlarning bir-biridan farqli va o‘xshash tomonlarini biladigan hamda mazkur nazariy tushunchalarni jinoyatchilikka qarshi kurash va jinoyatchilikning oldini olishda qo’llay oladigan mutaxassislarni tayyorlash uchun zarur bilim va ko’nikmalarini shakllantirishdan iborat.

**Fanning vazifasi** – o‘quvchilarga sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati, ijtimoiy ahamiyati va ulardan ko‘zlangan maqsadlar haqidagi tushunchalarni hosil qilish, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tizimi, tuzilishi va asosiy vazifalarini nazariy va amaliy jihatdan o‘rganishdan iborat.



Huquqni muhofaza qiluvchi organlari bo’lgan adliya, prokuratura, ichki ishlar organlari, davlat xavfsizlik xizmati, soliq, bojxona xizmatlari, shuningdek, advokatura, Oliy Majlisning inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman), Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy markazi, yuridik xizmatning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, zamonaviy tuzilishi, funksiyalari, vazifalari ushbu fanning o‘rganish predmetini tashkil etadi. Mazkur fanda davlatning huquqni muhofaza qilish faoliyati, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va muassasalarining paydo bo‘lishi, rivojlanishi, ular faoliyatini tashkil etish prinsiplari ko‘rib chiqiladi hamda ularning vazifalari, tashkil topishi, faoliyatini amalga oshirish tartibi, tarkibi, tizimi bat afsil o‘rganiladi.

Fanning predmetiga huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tuzilishini belgilab beruvchi konstitutsiyaviy, ma’muriy, moliya, jinoyat-protsessual va boshqa

bir qator qonunchilik sohalarining normalari ham kiradi. Masalan, konstitutsiyaviy huquq normalarida O‘zbekiston Respublikasi davlat organlarining tizimi va vazifalari, ma’muriy huquq normalarida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining faoliyati, funksiyalari va vazifalari yoritiladi.



“Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar” fanida O‘zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qiluvchi organlarining o‘ziga xosligi, ular faoliyatini tartibga solib turuvchi huquq normalari o‘rganiladi, chunki huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarda ularning tizimi, tuzilishi, funksiyalari va vazifalari tartibga solinadi. Shu bilan birga, huquqni muhofaza qilish faoliyati huquqning mustaqil tarmoqlari bo‘lgan jinoyat-protsessual va fuqarolik-protsessual huquq tomonidan ham batafsil tartibga solinadi.

Adliya, ichki ishlar, soliq, prokuratura va boshqa organlarning faoliyati huquqning boshqa tarmoqlari, xususan ma’muriy, moliyaviy, fuqarolik-protsessual, jinoyat-protsessual huquqida keng o‘rganiladi. Shuning uchun ham mazkur huquq tarmoqlarining huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini tartibga soluvchi normalari ham ushbu fanning o‘rganish predmeti hisoblanadi.

Prokuror nazorati haqidagi normalar faqat prokuraturaning tuzilishiniga emas, balki faoliyatini ham tartibga soladi. Ichki ishlar vazirligi o‘quv yurtlarida alohida “Prokuror nazorati” fani o‘rganilmasligini hisobga olib, ushbu kursda prokuraturaning tuzilishi va faoliyat tartibi kengroq yoritilgan.

Xalqaro miqyosda jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatini muvofiqlashtirishda Interpolning tutgan o‘rni va mazkur tashkilotning vakolatlari bilan bog‘liq munosabatlar xalqaro huquq normalari bilan tartibga solinadi. Interpolning ishini tashkil etish, ayniqsa, O‘zbekistonda Interpol Milliy markaziy byurosining tuzilishi, tizimi va ish faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq normalar ham “Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar” fanining o‘rganish predmeti bo‘lib hisoblanadi.

Ushbu fanning boshqa yuridik fanlar uchun ahamiyati bevoita uning doirasida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini o‘rganuvchi yuridik fan hisoblanadi. Mazkur fanni o‘rganish davomida talabalar mustaqil mamlakatimizning huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ularning tizimi, tuzilishi, asosiy funksiya va vazifalarini bilib oladilar.

“Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar” fani huquqning boshqa sohalariga taalluqli ko‘plab masalalarni o‘rganadi. Bunda huquqni muhofaza qiluvchi organlar yagona davlat huquqiy tizimning tarkibiy qismi ekanligiga asoslanadi.



### Yodda tuting

“Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar” fani – yuridik fan hisoblanadi, zero uning doirasida respublikamiz huquqni muhofaza qiluvechi organlari faoliyatining huquqiy asoslari o‘rganiladi. Shu bilan birga, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tizimi va tuzilishini tartibga soluvechi huquq sohalari va normalari huquqning boshqa sohalarida ham o‘rganilishini yoddan chiqarmaslik kerak. Chunki ular yuridik ta’limdag‘i huquqiy fanlarning o‘zaro aloqada bo‘lishlariga asos yaratadi.



## 2-§. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning davlat organlari tizimidagi o'rni

Davlat organlari tizimida sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tutgan o'rni davlatning huquqni muhofaza qilish funksiyasini bajarishi uchun maxsus yaratilganligi bilan belgilanadi. Bu esa ularning asosiy vazifasi bo'lib, ushbu xususiyat huquqni muhofaza qiluvchi organlari faoliyatining boshqa davlat va boshqaruv organlaridan ajralib turishini belgilaydi. Ushbu holat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning davlat boshqaruvi organlariga bo'y sunishini istisno etmaydi.

**Sud organlari** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq odil sudlovni amalga oshiruvchi yagona organ hisoblanadi. Odil sudlovni amalga oshirishda sudyalar va xalq maslahatchilari mustaqildirlar hamda faqat qonunga bo'y sunadilar.

Sud hokimiyati – hokimiyatlar bo'linishi qoidasiga ko'ra, davlat hokimiyatining alohida va mustaqil (qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar bilan bir qatordagi) tarmog'i. U o'zida: a) odil sudlovni amalga oshirish vakolatlari, ya'ni jinoiy, fuqarolik, xo'jalik, ma'muriy va konstitutsiyaviy ish (nizo)larni protsessual, qonun bilan belgilangan tartibda ko'rib chiqish vakolatlari yig'indisini, ba'zi mamlakatlarda, shuningdek, huquq normalarini izohlash vakolatlarini, qonun ijodkorligi vakolatlari va boshqa 2-darajali vakolatlarni; b) yuqorida qayd etilgan vakolatlarni amalga oshiruvchi davlat organlari tizimini mujassamlashtiradi. Hozirgi zamon demokratik davlatlarida Sud hokimiyatining asosiy vakolatlari turli toifadagi sudlar zimmasiga yuklanadi.



O'zbekiston Respublikasida Sud hokimiyati ijtimoiy adolat, fuqarolar tinchligi va totuvligi, qonun ustuvorligini ta'minlashga, inson huquqlari va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini muhofaza etishga karatilgan. Mamlakatimizda Sud hokimiyatining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi, tuzilishi va faoliyat yuritishining qonuniy asosi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi qonuni va boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

**Adliya organlari** qonunchilik ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish, shuningdek insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshiradi.

Adliya vazirligi huquqni muhofaza qilish organi hisoblanib, u Vazirlar Mahkamasiga, faoliyatining ayrim masalalari bo'yicha esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'y sunadi.





## PROKURATURA

O'zbekiston Respublikasi davlat organlari tizimida **prokuratura** alohida o'rinni tutadi. U mamlakatimizning butun hududida qonunlarning fuqarolar, mansabdar va yuridik shaxslar tomonidan aniq vabirxilda bajarilishini nazorat qiladi. Barcha prokurorlar O'zbekiston Respublikasining Bosh prokuroriga bo'ysunadi. Ular davlat boshqaruvi organlari va mansabdar shaxslarning noqonuniy hujjatlari va harakatlariiga protest bildiradilar, qonunga zid harakatlarning oldini oladilar, qonun buzilgan hollarda esa ularni bartaraf etish choralarini ko'radilar, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiladilar. Prokuratura organlarining barcha ko'rsatma va talablari fuqarolar, mansabdar shaxslar hamda barcha korxona, muassasa va tashkilotlar tomonidan bajarilishi shart.



O'zbekiston Respublikasi **Ichki ishlar vazirligi** va uning organlari o'ziga xos murakkab tuzilishga ega. Ichki ishlar vazirligi organlarining muhim vazifasi – fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulki, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, qonun ustuvorligi, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, huquqbazarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iborat. Ichki ishlar vazirligi va uning organlari tezkor-qidiruv faoliyat, surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshiradilar, shuningdek, jinoyatlarni oldini olish hamda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash bilan shug'ullanadi. Ichki ishlar organlari faoliyatining murakkabligi va mas'uliyatliligi shundan iboratki, ular huquqiy davlatni shakllantirish, O'zbekiston Respublikasida huquq-tartibotni mustahkamlash, jinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish, korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashning asosiy subyekti hisoblanadi.



**Davlat yong'in xavfsizligi xizmati** – yong'in xavfsizligi sohasidagi maxsus vakolatli organ hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish hamda yong'in xavfsizligini ta'minlashda sifat jihatidan yangi tizimga o'tish maqsadida 2019-yildan boshlab, YONG'in xavfsizligi bosh boshqarmasi, uning tarkibiy va hududiy tuzilmalari hamda YONG'in xavfsizligi instituti





O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligidan O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimiga o'tkazildi.



**Davlat xavfsizlik xizmati (DXX)** organlarining faoliyati O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tizimi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi hamda boshqa davlat manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilish, qonuniylikni mustahkamlash va qonun ustuvorligini ta'minlash, shuningdek Davlat xavfsizlik xizmatining vakolatiga kiritilgan huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga barham berishga qaratilgan. Amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksi va boshqa qonun normalariga asosan, DXX organlariga tinchlik va insoniyatning

xavfsizligiga qarshi jinoyatlar (urushni targ'ib qilish, agressiya, davlatga xiyonat, josuslik, terrorchilik, qo'poruvchilik, kontrabanda)ni fosh qilish va tergov qilish vazifasi yuklatilgan. Shuningdek, DXX organlari xorijiy maxsus xizmatlarga qarshi razvedka va kontrrazvedka faoliyatini amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasining **soliq organlari** yagona davlat soliq siyosatini o'tkazish, mamlakatimiz iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida tuzilgan. Soliq qo'mitasi soliq qonunchiligidagi oid normalarning ijrosini ta'minlash borasida yagona markaziy davlat organi hisoblanadi.



Soliq, davlat yoki mahalliy boshqaruva faoliyatini ta'minlash uchun davlat organlari tomonidan tashkilot va jismoniy shaxslardan yig'ib olinadigan to'lovga aytildi. Davlat budgeti daromadlar qismining asosiy manbai soliqlar hisoblanadi. Shuningdek, soliq iqtisodiy turkum sifatida sofer daromadning bir qismini budgetga jalb qilish shakli bo'lib, moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismini tashkil qiladi.

**Bojxona – 1)** boj undiradigan joy; **2)** chegara orqali o'tadigan jami yuklarni, jumladan, bagaj va pochta jo'natmalarini nazorat qiladigan davlat muassasasi bo'lib, o'tkazilayotgan yuklarni tekshirish, tartibga solish va rasmiylashtirish, ulardan boj va yig'imlar undirish bilan shug'ullanadi. Qonun hujjatlarida belgilangan tartib-qoidalarning buzilishini oldini olish, ularga nisbatan choralar ko'rish, tergovga qadar tekshiruv va tezkor-qidiruv ishlari olib borish,



kontrabandaga qarshi kurashish ham uning vakolatiga kiradi. Bojxona organlari odatda, dengiz va daryo portlarida, xalqaro aeroportlarda, temir yo'l stansiyalari, chegara punktlarida joylashadi. Bojxona muassasalari tashqi savdoda mamlakat manfaati ta'minlanishini nazorat qiladi, qimmatbaho boyliklar (san'at asarlari, nodir metallar va boshqalar) ning mamlakat hududidan olib chiqib ketilishining oldini oladi.



**Bojxona organlari** O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi (BQ), uning markaziy apparati, Bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalari, maxsus bojxona komplekslari va bojxona postlaridan tashkil topgan. Shundan kelib chiqib, ushbu bo'linmalar bojxona qo'mitasining organlari tizimini tashkil qiladi.

Fuqarolar va yuridik shaxslarga huquqiy yordam **advokatura** hamda korxonalardagi **yuridik xizmat** tomonidan amalga oshiriladi.

"Advokatura to'g'risida"gi qonunga muvofiq advokatura – huquqiy institut bo'lib, u advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi hamda xususiy advokatlik amaliyoti bilan shug'ullanuvchi ayrim shaxslarning mustaqil, ko'ngilli, kasbiy birlashmalarini o'z ichiga oladi. Advokatura O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolari, fuqaroligi bo'lмаган shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko'rsatadi. Advokatura o'z faoliyatini qonun ustuvorligi, mustaqillik va boshqa demokratik prinsiplar asosida amalga oshiradi.



**Yuridik xizmat** o'z faoliyati sohasida qonuniylikni ta'minlash bo'yicha turli vazifalarni bajaradi. Jumladan, huquqiy hujjatlarga amal qilishni ta'minlaydi, buyruqlar, ko'rsatmalar, topshiriqlarning loyihalari, shuningdek, huquqiy tusdagi boshqa hujjatlarning qonuniyligini tekshiradi; rahbariyatga o'z kuchini yo'qotgan ko'rsatma va buyruqlarni o'zgartirish yoki bekor qilish, mazkur soha yoki tashkilotni boshqarish tizimi va tuzilishini takomillashtirish, xo'jalik shartnomalarini tuzish va bajarishda huquqiy normalarga rioya qilish bo'yicha tavsiyalar kiritadi; tarmoq yoki tashkilotdagi shartnomalar yuzasidan ishlarni tashkil etish bo'yicha metodik ko'rsatmalarni ishlab chiqadi.

**Interpol** – bu xalqaro politsiya tashkiloti bo'lib, jinoyatchilikka qarshi kurashni muvofiqlashtiradi. Davlat politsiya muassasalariga jinoyatchilikka qarshi kurash, ayniqsa, bir mamlakat hududida jinoyat qilgan jinoyatchi boshqa mamlakatda yashiringan yoki xalqaro jinoyatchilar guruhi jinoyat sodir etgan hollarda yordam beradi.



Interpolda ma'lumotlar zamonaviy kriminalistik texnika vositalari va kompyuter tizimlarida to'planadi. Interpol orqali uning a'zosi bo'lgan har qanday mamlakat u yoki bu ma'lumotni olishi mumkin.

Interpolda jinoyatlar, jinoyat sodir etgan shaxslar, jinoyat natijasida o'g'irlangan predmetlar va boshqa ma'lumotlarning bazasi shakllantiriladi. Ushbu bazadan terrorizm, kontrabanda, narkobiznes, quroq sotish, qalbaki pul yasash, madaniy qimmatlikka ega buyumlarni o'g'irlash va boshqa bir qator jinoyatlarga qarshi kurashda foydalanish mumkin.



### Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tushunchasiga ta'rif bering.
2. "Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar" fanining predmetini tushuntiring.
3. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining asosiy yo'nalishlarini aytib bering.
4. Huquqni muhofaza qilish faoliyatida odil sudlov va konstitutsiyaviy nazorat alohida o'rinni egallashiga nima sabab bo'ladi?
5. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning davlat organlari tizimidagi o'rni nimalarda namoyon bo'ladi?
6. Huquqni muhofaza qilish faoliyatini tartibga soluvchi qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni qanday tasniflash mumkin?

## SUD ORGANLARI

II  
BOB



SIZ USHBU BOBDA QUYIDAGILARNI BILIB OLASIZ:

- Sud organlari tushunchasi, vazifasi va prinsplari;
- Sud organlarining tizimi va tuzilishi;
- Sudyalarning mustaqilligi, daxlsizligi va faoliyati.

## 1-§. Sud organlari tushunchasi, vazifasi va prinsplari



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, sud organlari O'zbekiston Respublikasida odil sudlovni amalga oshiruvchi, shuningdek, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar, siyosiy partiyalar, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritilishi belgilangan davlat organlaridir.

O'zbekiston Respublikasi sud organlari O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi qonun, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi, Jinoyat-protsessual, Fuqarolik-protsessual, Iqtisodiy-protsessual, Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodekslari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ish olib boradilar.

O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati faqat sudlar tomonidan amalga oshiriladi. Hech qaysi boshqa organlar va shaxslar sud hokimiyati vakolatlarini o'zlashtirib olishga haqli emas.



Sudning asosiy vazifasiga O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida, inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarda e'lon qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sud yo'li bilan himoya qilishga da'vat etish kiradi.

Sudning faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlashga qaratilgandir.

O'zbekiston Respublikasida barcha sud organlari o'z faoliyatini quyidagi rahbariy qoidalarga tayangan holda amalga oshiradilar.



**Qonuniylik** – O‘zbekiston Respublikasida odil sudlov qonunga qat’iy muvofiq holda amalga oshiriladi.



**Sudyalarning mustaqilligi** – sudyalar mustaqildir, faqat qonunga bo‘ysunadi. Sudyalarning odil sudlovnii amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo‘l qo‘ymaydi va bunday aralashuv qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi. Sudyalarga odil sudlovnii amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lmagan har qanday vazifalar yuklatilishiga yo‘l qo‘ymaydi.

**Sud hujjatlarining majburiyligi** – qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlari barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolar uchun majburiydir hamda O‘zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi shart. Sud hujjatini ijro etmaslik qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo‘ladi.

**Qonun va sud oldidagi tenglik** – barcha fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi hamda ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, qonun va sud oldida tengdir. Korxonalar, muassasalar hamda tashkilotlar ham qonun va sud oldida tengdir.

**Sud ishlarini yuritishning oshkorali** – barcha sudlarda ishlar ochiq ko‘riladi. Ishlarni yopiq sud majlisida ko‘rib chiqishga faqat qonunda belgilangan hollarda yo‘l qo‘yiladi.

Sud majlisi zalida hozir bo‘lgan shaxslar, ommaviy axborot vositalari vakillari sud majlisi zalida qonunda belgilangan tartibda fotosuratga olishi, video va audio yozuvni amalga oshirishi mumkin.

**Sud ishlari yuritiladigan til** – O‘zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o‘zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko‘pchilik aholi so‘zlashadigan tilda olib boriladi. Sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan ishda ishtirok etuvchi shaxslarga tarjimon orqali ish materiallari bilan to‘la tanishish, sud harakatlarida ishtirok etish huquqi va sudda ona tilida yoki ular biladigan boshqa tilda so‘zlash huquqi ta’milnadi.

**Sud himoyasida bo‘lish huquqi** – O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar davlat organlari hamda boshqa organlarning har qanday g‘ayriqonuniy qarorlari, ularning mansabdor shaxslarining xatti-harakatlaridan (harakatsizligidan), shuningdek hayoti va sog‘lig‘i, sha‘ni hamda qadr-qimmati, shaxsiy erkinligi va mol-mulki, boshqa huquq va erkinliklariga tajovuzlardan sud himoyasida bo‘lish huquqiga ega. Yuridik shaxslar ham sud himoyasida bo‘lish huquqiga egadir.

**Odil sudlovnii amalga oshirishda malakali yuridik yordam** – odil sudlovnii amalga oshirishda har bir kishiga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Guman qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchiga sud ishlarini yuritishning har qanday bosqichida himoyalanish huquqi ta’milnadi. Qonunda belgilangan hollarda davlat bepul malakali yuridik yordam ko‘rsatilishini ta’milaydi.

**Aybsizlik prezumpsiysi** – ayblanuvchi, uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlanmagunga va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan



aniqlanmagunga qadar, aybsiz hisoblanadi.

Hech kim sud qaroriga asoslanmagan holda qamoqqa olinishi mumkin emas.

Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdag'i tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas.

**Sud hujjati ustidan shikoyat qilish huquqi** – taraflar, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa boshqa shaxslar ham sud hujjati ustidan qonunda belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

## 2-§. Sud organlarining tizimi va tuzilishi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining  
107-moddasi hamda O'zbekiston  
Respublikasining 2021-yil 28-iyulda qabul  
qilingan "Sudlar to'g'risida" yangi tahrirdagi  
qonuniga muvofiq, sud organlari quyidagicha  
tizimlashtirilgan:

- fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari;
- jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlari;
- tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlari;
- tumanlararo ma'muriy sudlardan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi;  
O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi;  
Harbiy sudlar;  
Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari;  
Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari;

O'zbekiston Respublikasida ishlarning toifalariga qarab sudlarning ixtisoslashuvi amalga oshirilishi mumkin. Favqulodda sudlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini tashkil etish va uning faoliyat tartibi alohida qonun bilan belgilanadi.

Sudlarning faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi prinsiplariga qat'iy muvofiq holda O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

Sudlarning faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi Sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida qonunchilik tashabbusi huquqiga egadir.

Sudlarning faoliyatni qonun ustuvorligini, ijtimoiyadolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlashga qaratilgandir.

## SUD ORGANLARI:



**Konstitutsiyaviy sudi** – qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligi to‘g‘risidagi ishlarni ko‘radi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashi tavsiya etgan siyosat va huquq sohasidagi mutaxassislar orasidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasining vakilini qo‘shtigan holda saylanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi o‘z tarkibidan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining raisini va uning o‘rinbosarini saylaydi.

Konstitutsiyaviy sudni tashkil etish va uning faoliyati tartibi qonun bilan belgilanadi.

**Oliy sud** – fuqarolik, jinoiy, iqtisodiy va ma’muriy sud ishlarni yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi.

Oliy sud tomonidan qabul qilingan hujjatlar qat’iy va O‘zbekiston Respublikasining barcha hududida bajarilishi majburiydir.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi quyi sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega.

**Harbiy sudlar** – O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi va hududiy harbiy sudlardan iboratdir.

### O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HARBIY SUDLARI QUYIDAGI ISHLARNI KO‘RADI:

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmatining,



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining, Milliy gvardiyasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Ichki ishlar vazirligi qo'shinlarining va qonunchilikka muvofiq tashkil etiladigan boshqa harbiy tuzilmalarning harbiy xizmatchilar, shuningdek o'quv yig'inlarida bo'lgan vaqtida harbiy xizmatga majburlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlarni;

harbiy qismlar, qo'shilmalar va birlashmalarining, harbiy boshqaruva organlarining qo'mondonligiga nisbatan harbiy xizmatchilarining da'volari bo'yicha fuqarolik ishlarni hamda harbiy boshqaruva organlari qarorlari, harbiy mansabdar shaxslarning harbiy xizmatchilarining huquq va erkinliklarini buzuvchi xatti-harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyatlarni;

alohida holatlar tufayli sudlar faoliyat ko'rsatmayotgan joylarda barcha fuqarolik va jinoyat ishlarni;

qonun bilan o'z vakolatiga kiritilgan ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni;

davlat sirlariga taalluqli ishlar va h.k.

O'zbekiston Respublikasi harbiy sudlari qonunga muvofiq boshqa ishlarni ham ko'rishi mumkin.

**Sudyalar oliy kengashi** – sudyalar hamjamiyatining organi bo'lib, O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining mustaqilligi konstitutsiyaviy prinsipiga rioya etilishini ta'minlashga ko'maklashadi.

O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashini tashkil etish va uning faoliyati tartibi O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

**Sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti** – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzurida bo'lib, moddiy-texnika va moliyaviy jihatdan ta'minlash faoliyatini amalga oshiradi.

### 3-§. Sudyalarning mustaqilligi, daxlsizligi va faoliyati



#### Yodda tuting

**Sudyalar** – O'zbekiston Respublikasida qonunga muvofiq odil sudlovni amalga oshirishga vakolat berilgan shaxslardir. O'zbekiston Respublikasida barcha sudyalar bir xil maqomga ega.

Sudyalar mustaqildirlar, faqat qonunga bo'ysunadilar.

Davlat organlari va boshqa organlar, korxonalar, muassasalar hamda tashkilotlar, mansabdar shaxslar, fuqarolar sudyalarni hurmat qilishi va ularning mustaqilligi prinspiga rivoja etishi shart.

Sudyaga hurmatsizlik qilish, huddi shuningdek, uni

ochiqdan-ochiq mensimaslikdan dalolat beruvchi xatti-harakatlar qilish qonunga muvofiq bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Sudyalarning odil sudlovnii amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.



Sudyalarning daxlsizligi qonun bilan kafolatlanadi.

Sudyalar senator, davlat hokimiyati vakillik organlarining deputati bo'lishi mumkin emas.

Sudyalar siyosiy partiyalarning a'zosi bo'lishi, siyosiy harakatlarda ishtirok etishi, shuningdek ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa biron-bir faoliyat turlari bilan shug'ullanishi mumkin emas.

Sudya vakolat muddati tugagunga qadar sudyalik vazifasidan qonunda ko'rsatilgan asoslar bo'lgandagina ozod etilishi mumkin.

#### Sudyalarning mustaqilligi quyidagilar orqali ta'minlanadi:

01

ularni qonunda belgilangan tartibda lavozimga saylash, tayinlash, sudyalik vakolatharini to'xtatib turish va tugatish;

02

odil sudlovnii amalga oshirishdagi qat'iy tartib-taomil;

03

sudyaga hurmatsizlik qilganlik, odil sudlovnii amalga oshirish bo'yicha faoliyatga aralashganlik va sudyaning daxlsizligini buzganlik uchun qonunda belgilangan javobgarlik;

04

qarorlarni chiqarish chog'ida sudyalar maslahatlashuvining sir tutilishi va uni oshkor qifishni talab etishning taqiqlanishi;

05

sudyaning daxlsizligi;

06

sudyaga davlat hisobidan uming yuksak maqomiga munosib moddiy va ijtimoiy ta'minot berish.



Sudyaning mustaqilligini cheklaydigan qonunchilik hujjatlari qabul qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Sudya, uning oila a'zolari va ularning mol-mulki davlatning alohida himoyasida bo'ladi.

Sudyaning shaxsi daxlsiz. Sudyaning daxlsizligi uning turar joyiga, xizmat xonasiga, u foydalanadigan transport vositasi va aloqa vositalariga, xat-xabarlariga, unga tegishli ashyolar va hujjatlarga taalluqlidir.

Sudyalarning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash maqsadlarida ularga O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi tomonidan belgilanadigan ro'yxat bo'yicha saqlash, olib yurish va undan foydalanish huquqi bilan xizmat quroli hamda shaxsiy himoya vositalari beriladi. Zarur hollarda tegishli sud raisining qaroriga binoan ichki ishlar organi sudya va uning oilasi uchun qurolli soqchilar ajratadi.

Sudyaga nisbatan jinoyat ishi faqat O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan qo'zg'atilishi mumkin.



O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi raisining sudyalar daxlsizligini buzganlik va ularning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga aralashganlik faktlari to'g'risidagi taqdimnomasi prokuratura organlari tomonidan bir oy muddatda ko'rib chiqiladi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi ko'rsatilgan faktlar bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atilganligi yoki qo'zg'atilishi rad etilganligi haqida O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashiga xabar beradi.



## Yodda tuting

Sudya O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining xulosasi olinmasdan va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining roziligesiz jinoy javobgarlikka tortilishi, qamoqqa olinishi mumkin emas.

Sudya tegishli sudyalar malaka hay'atining xulosasi olinmasdan ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

yoki odam o'limiga sabab bo'lgan qasddan boshqa jinoyat sodir etganlikda ayb qo'yilgan hollarda qo'llanilishi mumkin. Mazkur qoida sudya sifatida ishlagan davrida shunday jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan sobiq sudyaga nisbatan ham qo'llaniladi.

Sudya huquqbuzarlik sodir etganlikda gumon qilinib ushlab turilgan taqdirda, bu haqda ushlab turish uchun asos bo'lgan hujjatlar ko'chirma nusxalari ilova qilingan holda O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashiga u ushlangan paytdan e'tiboran uch soatdan kechiktirmasdan xabar qilinishi shart.

Sudyaning turar joyiga yoki xizmat xonasiga, foydalanadigan transportiga kirish, ularni ko'zdan kechirish, ularda tintuv o'tkazish yoki ulardan ashyoni olish, uning telefondag'i so'zlashuvlarini eshitish, sudyani shaxsan ko'zdan kechirish va uni shaxsiy tintuv qilish, shuningdek uning xat-xabarlarini, unga tegishli ashyolar va hujjatlarni ko'zdan kechirish, olib qo'yish yoxud olish faqat sudning qaroriga binoan yoki O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining ruxsati bilan amalga oshirilishi mumkin.

Sudyaga nisbatan jinoyat ishi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudloviga tegishlidir.

Sudda o'z vazifalarini bajarayotgan davrda xalq maslahatchilariga sudyalar daxlsizligining barcha kafolatlari tatbiq etiladi.

Xalq maslahatchilari 1-instansiya sudida jinoyat va fuqarolik ishlarini ko'rishda qatnashish uchun saylangan fuqarolardir. Ish bo'yicha qaror chiqarishda sudya bilan teng huquqqa ega. Odatda, ishni ko'rayotgan sud tarkibiga 2 nafar xalq maslahatchisi kiradi. Odil sudlovni amalga oshirishda fuqarolar Xalq maslahatchilari sifatida qatnashishi ularning fuqarolik burchi hisoblanadi.

Sudyani huqujni  
muhofaza qiluvchi  
organlarga guvoh yoki  
gumon qilinuvchi sifatida  
so'roq qilish uchun  
chaqirishga faqat tegishli  
sudyalar malaka hay'atining  
roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

Sudyaga nisbatan  
qamoqqa olish tarzidagi  
ehtiyot chorasi faqat unga  
nisbatan o'ta og'ir jinoyat  
jinoyat sodir etganlikda ayb

## Sudya quyidagi huquqlarga ega:



1 mansabdar shaxslar va fuqarolardan odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan o'z farmoyishlarining bajarilishini talab qilish;

2 mansabdar va boshqa shaxslardan odil sudlovni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborotni olish;

3 odil sudlovni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni davlat organlarining va boshqa tashkilotlarning axborot tizimlaridan bepul asosda olish hamda shaxsga doir ma'lumotlar mayjud axborot tizimlaridan foydalanish, shu jumladan masofadan turib foydalanish;

4 davlat organlarining, shuningdek boshqa tashkilotlarning axborot tizimlaridan odil sudlovni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan shaxsga doir ma'lumotlarni fuqarolarning yozma roziligidan bepul asosda olish;

5 sudyalar hamjamiyati organlarini shakllantirishda va ular faoliyatida ishtirok etish.

Sudya qonunga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Davlat organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalari, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar sudyaning odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan talablari hamda farmoyishlarini so'zsiz bajarishi shart. Sudyaning talablari va farmoyishlarini bajarmaslik qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Shuningdek, sudyalar O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, uyushmalarga birlashish, sudyalar hamjamiyati organlarini shakllantirish va ular faoliyatida ishtirok etishga haqli hisoblanadi.



korruksiyaning har qanday ko'rinishlariga va odil sudlovni amalga oshirish bo'yicha faoliyatiga g'ayriqonuniy aralashishga urinish-larga qarshilik ko'rsatishi hamda bunday holatlar aniqlangan taqdirda bu haqda O'zbekiston Respublikasi Sudalar oliv kengashiga xabar qilishi;

sud protsessi ishtirokchilarini hurmat qilishi;



## Sudya:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga og'ishmay rioya etishi;

fugorolarning huquq va erkinliklari, sha'ni, qadr-qimmati hamda mol-mulki, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashi;

o'z vakolatlarini amalga oshirishda, shuningdek xizmatdan tashqari munosabatlarda Sudyalik odobi kodeksi talablariga rioya etishi, sud hokimiyati obro'sini, sudyaning sha'ni va qadr-qimmatini tushirishi yoki uning beg'arazligi, xolisligi va adolatlilikiga shubha tug'dirishi mumkin bo'lgan har qanday xatti-harakatdan o'zini tiyishi;

o'z malakasini sudyalik vakolatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan darajada saqlab turishi;

manfaatlар to'qnashuvи yuzaga kelgan taqdirda o'zini o'zi rad qilishi va sud protsessi ishtirokchilarini xabardor qilishi shart.

Shuningdek, sudyaning zimmasida qonunga muvofiq majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.




### Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Sud hokimiyati deganda nima tushuniladi?
2. Sudning asosiy vazifalarini sanab bering.
3. Sud hokimiyatining vakolatlari nimalardan iborat?
4. Sud organlarini tizimlashtiring.
5. Sudylarning daxsizligi nimalarda namoyon bo'ladi?
6. Qaysi sud instansiyalari sizga ma'lum?

# ADLIYA ORGANLARI


III  
BOB



SIZ USHBU BOBDA QUYIDAGILARNI BILIB OLASIZ:

- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining tizimi;
- Adliya vazirligining vazifalari va funksiyalari;
- Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarining faoliyati;
- Notariat organlari faoliyati.

## 1-§. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining tizimi



O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining asosiy va eng muhim vazifasi qonunchilik ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti sohasida yagona davlat siyosati amalgalashini ta'minlashdan iboratdir.

Adliya vazirligi huquqni muhofaza qilish organi hisoblanadi, Vazirlar Mahkamasiga, faoliyatining ayrim masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysunadi.

### ADLIYA VAZIRLIGINING TIZIMI:



– Vazirlik markaziy apparati:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) adliya bo'limgari, yuridik xizmat ko'rsatish markazlari, davlat xizmatlari markazlari va FHDYO organlari;



– Huquqiy siyosat tadqiqot instituti;

- X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi;
- "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi» davlat muassasasi;



- "Adliya organlari va muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi" davlat muassasasi;

- "Davlat xizmatlarini rivojlantirish markazi" davlat muassasasi;



- davlat notarial idoralari va arxivlari;
- Yuristlar malakasini oshirish markazi;
- Toshkent davlat yuridik universiteti;
- yuridik texnikumlar;
- akademik litsey.



Adliya organlari va muassasalarini mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqildir va bevosita vazirlikka bo'ysunadilar.

## 2-§. Adliya vazirligining vazifalari va funksiyalari

### QUYIDAGILAR VAZIRLIKNING ASOSIY VAZIFALARI HISOBLANADI:

- huquq ijodkorligi sohasida yagona davlat siyosatini yuritish;
- normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihibalarining tartibga solish ta'sirini baholash hamda korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish faoliyatni muvofiqlashtirish;
- huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash;

– huquqiy targ‘ibotni amalga oshirish hamda davlat organlari va tashkilotlarining huquqiy targ‘ibot sohasidagi ishlarini muvofiqlashtirish;

– davlat boshqaruvi organlari, xo‘jalik birlashmalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida huquqni qo’llash amaliyotini izchil va bir xilda ta’minlash bo‘yicha choralarini amalga oshirish;



– fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini huquqiy himoya qilish bo‘yicha choralarini amalga oshirish;

– qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning o‘z vaqtida, to‘liq va sifatli amalga oshirilishini ta’minlash yuzasidan, shu jumladan Hisob palatasi bilan birgalikda sohalar, hududlar va idoralar kesimida manzilli va tematik tahliliy o‘rganishlarni olib borish va joylardagi holat monitoringini yuritish;

– davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini ilg‘or xorijiy tajriba va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari asosida tahlil va monitoring qilish. Shuningdek, Adliya vazirligi qonunchilikda belgilangan boshqa vazifalarni ham bajaradi.



### **VAZIRLIK O‘ZIGA YUKLANGAN VAZIFALARGA MUVOFIQ QUYIDAGI FUNKSIYALARINI AMALGA OSHIRADI:**

1) huquq ijodkorligi sohasida yagona davlat siyosatini yuritish bo‘yicha:

– konstitutsiyaviy normalarni amalga oshirish, inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash, jamiyatda qonunga rioya etish va hurmat ruhini mustahkamlash maqsadida huquqiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlarini ishlab chiqadi;

– davlat organlari va tashkilotlarining huquq ijodkorligi masalalari bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtiradi va uslubiy rahbarlikni amalga oshiradi;

– davlat organlari va tashkilotlari huquq ijodkorligi faoliyatining monitoringi va tahlilini amalga oshiradi va h.k.

2) normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihamalarini tartibga solish ta’sirini baholash hamda korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha:

– davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlarning normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihamalarining tartibga solish ta’sirini baholash hamda korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtiradi, tahlil qiladi va monitoringini amalga oshiradi, shuningdek ularga uslubiy yordam ko‘rsatadi;

– normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihamalarining tartibga solish ta’sirini baholaydi hamda ularni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazadi va h.k.



3) huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash bo'yicha davlat organlari va tashkilotlarining huquqiy axborotni tarqatish hamda undan foydalanishni ta'minlash sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi, uslubiy rahbarlik va nazoratni amalga oshiradi.

Shuningdek, Adliya vazirligi qonunchlikda belgilangan boshqa funksiyalarini ham amalga oshiradi.

### 3-§. Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarining faoliyati



#### Yodda tuting

Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarining vazifasi jismoniy va yuridik shaxslarga fuqarolik holatlari dalolatnomalarini qayd etish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishdir.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari (keyinchalik matnda FHDYo organlari deb yuritiladi) tizimini tuman va shahar FHDYo bo'limgari, Nikoh uylari, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar

adliya boshqarmalari FHDYo arxivlari tashkil qiladi.

FHDYo organi O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan va FHDYo organi nomi yozilgan muhrga ega bo'ladi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish munosabati bilan xodimga ma'lum **bo'lib qolgan holatlar xizmat siri hisoblanib, ular oshkor etilishi yoki e'lon qilinishi mumkin emas.**

#### FHDYO ORGANLARI FAOLIYATINING TAMOYILLARI

02

*fuqarolarning qonun bilan muhofaza qilinadigan huquq va manfaatlarini himoya qilish;*



01

*qonun ustuvorligi;*

03

*fuqarolik holati dalolatnomalari qayd etilishi va ularga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarini sir tutish*

Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish arxivlarining vazifasi jismoniy va yuridik shaxslarga ko'chirma, nusxa va boshqa ma'lumotnomalar berish yo'li bilan davlat xizmatlarini ko'rsatishdir.



## **FHDYO ULARGA YUKLATILGAN VAZIFAGA MUVOFIQ QUYIDAGI FUNKSIYALARINI AMALGA OSHIRADI:**

- fuqarolik holati dalolatnoma yozuvlariga o'zgartirish, tuzatish va qo'shimchalar kiritadi;
- fuqarolik holati dalolatnoma yozuvlarining hisobini yuritadi;
- fuqarolik holati dalolatnoma yozuvlarini va qonunda belgilangan boshqa hujjatlarning saqlanishini ta'minlaydi;
- fuqarolarga (o'zlariga nisbatan tuzilgan dalolatnoma yozuvlari bo'yicha) fuqarolik holati dalolatnoma yozuvlari qayd qilinganligi haqida guvohnomalar, zarur hollarda takroriy guvohnomalar va ma'lumotnomalar beradi;
- agentlik, sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ish yurituvida mavjud bo'lgan ishlar munosabati bilan notariuslar, shuningdek FHDYo va O'zbekiston Respublikasining xorijdagi konsullik muassasalarining yozma so'rovnномalariga binoan dalolatnoma yozuvlaridan nusxalar yoki ulardan ko'chirmalar va ma'lumotnomalar beradi;
- zarur hollarda mudofaa ishlari bo'limlari, sog'liqni saqlash organlari, bandlikka ko'maklashish markazlari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi bo'limlari va boshqa vakolatli idoralarning so'rovlariiga asosan yig'ish, umumlashtirish yoki taqqoslash maqsadlarida dalolatnoma yozuvlaridan alohida ma'lumotlar beradi;
- qat'iy hisobda turuvchi gerbli guvohnoma blankalarini hisobga olish, saqlash, sarflashning hisobini yuritadi va bu haqda belgilangan muddatlarda hisobotlar topshiradi. Shuningdek, FHDYo qonunlarda belgilangan boshqa funksiyalarni ham amalga oshiradi.

FHDYo o'zlariga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni manfaatdor tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilgan holda amalga oshiradi.

### **4-§. Notariat organlari faoliyati**



O'zbekiston Respublikasi "Notariat to'g'risida"gi qonunda nazarda tutilgan notarial harakatlarni hamda ular bilan bevosita bog'liq huquqiy va texnik tusdag'i harakatlarni notariuslar tomonidan amalga oshirish yo'li bilan jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlashga da'vat etilgan huquqiy institutdir.



## Yodda tuting

O'zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat notarial idoralari notariuslari va xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar tomonidan amalga oshiriladi. Boshqa davlatlarning hududida notarial harakatlarni O'zbekiston Respublikasi konsullari amalga oshiradi.

### **SHAXSGA NOTARIUS BO'LISH UCHUN QUYIDAGI TALABLAR QO'YILADI:**

- yigirma besh yoshdan kichik va oltmis besh yoshdan katta bo'lmasligi;
- oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lishi;
- yuridik mutaxassislik bo'yicha kamida uch yil muddatli ish stajiga ega bo'lishi, shu jumladan notarial idorada kamida bir yil muddatli stajirovkani o'tagan bo'lishi;
- malaka imtihonini topshirishi;
- O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lishi talablari qo'yilgan.

Shuningdek, sudyalik lavozimida kamida besh yil ishlagan yoki notarius yordamchisi yoxud adliya organlarining notarial faoliyatga rahbarlik qilish va ushbu faoliyatni nazorat qilish bilan bog'liq lavozimlarida kamida uch yil ishlagan shaxslar uchun stajirovkadan o'tish talab qilinmaydi. Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, adliya organlarining ishi notariat faoliyati bilan bog'liq bo'lмаган boshqaruv xodimi yoki advokat sifatida kamida uch yil ishlagan shaxslar, agar ularning vakolatlari tugatilgan paytdan e'tiboran besh yil o'tmagan bo'lsa, olti oy muddat stajirovka o'taydi.

### **QUYIDAGILAR NOTARIUS BO'LISHI MUMKIN EMAS:**

- belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxs;
- qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxs;
- o'z kasbiy faoliyatiga mos kelmaydigan qilmishlar sodir etganligi uchun notarius, advokat, tergovchi, prokuror, suda yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarning boshqa xodimi sifatidagi vakolati belgilangan tartibda tugatilgan shaxs – uch yil mobaynida.

Notarius yordamchi, stajyor, shuningdek notarial faoliyatni tashkil etish bilan bog'liq boshqa xodimlarga ega bo'lishi mumkin.





## Notarius yordamchisi

Yuridik ma'lumotga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi notarius yordamchisi bo'lishi mumkin. Notarius yordamchisi notariusning topshirig'iga ko'ra notarial harakatlarni amalga oshirishda ishtirok etishga, bitimlar, arizalar va boshqa hujjatlar loyihalarini tuzishga, hujjatlarning ko'chirma nusxalari va dublikatlari, ulardan ko'chirmalarni tayyorlashga, shuningdek notarial harakatlarni amalga oshirish masalalari yuzasidan tushuntirishlar berishga haqli.

## Notarius stajori

Oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi notarius stajori bo'lishi mumkin. Xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius stajorini ishga qabul qilish Notarial palataning tegishli hududiy boshqarmasi tavsiyasiga asosan ushbu boshqarma tomonidan biriktirilgan notarius tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Notarial palatasi xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi barcha notariuslarning a'zoligiga asoslangan notijorat tashkilot hisoblanadi. Bunda davlat notarial idorasi notariusi ixtiyorilik asosida ushbu palata a'zosi bo'lishi mumkin.

### **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI "NOTARIAT TO'G'RISIDA" GI QONUNINING 23-MODDASIGA MUVOFIQ NOTARIUSLAR QUYIDAGI NOTARIAL HARAKATLARNI AMALGA OSHIRADI:**

- bitimlarni tasdiqlaydi;
- vasiyatnomalarni tasdiqlaydi;
- er-xotinning umumiyligi mol-mulkidagi ulushga bo'lgan mulk huquqi to'g'risida guvohnomalar beradi;

- merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma beradi;
- meros mol-mulkining qo'riqlanishiga doir chora-tadbirlar ko'radi;
- mediator vazifasini bajaradi;

- hujjatlar nusxalarining va hujjatlardan olingan ko'chirmalarning to'g'riliгини shahodatlaydi;
- hujjatlarning bir tildan boshqa tilga to'g'ri tarjima qilinganligini shahodatlaydi;

- hujjatlardagi imzoning haqiqiyligini shahodatlaydi;
- ko'chmas mulk ochiq savdoda sotib olinganligi haqida guvohnoma beradi;
- fuqaroning tirik ekanligi faktini tasdiqlaydi;



- fuqaroning muayyan joyda ekanligi faktini tasdiqlaydi;
- yuridik shaxsning rahbar organi tomonidan qaror qabul qilinganligi faktini tasdiqlaydi;
- dalillarni ta'minlaydi;
- fuqaroning fotosuratda aks ettirilgan shaxs ekanligini tasdiqlaydi;
- hujjatlar taqdim etilgan vaqtini tasdiqlaydi;
- mualliflik va turdosh huquq obyekti taqdim etilgan vaqtini tasdiqlaydi;
- elektron hujjatning qog'oz shaklidagi hujjat bilan bir xil yuridik kuchga ega ekanligini tasdiqlaydi;
- jismoniy va yuridik shaxslarning arizalari va (yoki) boshqa hujjatlarini boshqa jismoniy va yuridik shaxslarga topshiradi;
- pul summalarini va qimmatli qog'ozlarni depozitga qabul qilib oladi;
- hujjatlarni saqlash uchun qabul qilib oladi;

- pul to'lash uchun cheklarni taqdim etadi
- va cheklar bo'yicha pul to'lanmaganligini tasdiqlaydi;
- ijro xatlarini yozadi;

- veksellarning protestlarini amalga oshiradi;
- dengiz protestlarini amalga oshiradi;
- notarial tasdiqlangan hujjatlarning dublikatlarini hamda reyestrlardan ko'chirmalarni beradi.

Notarial harakatlarni amalga oshirishda notariuslar, davlat notarial idorasida ishlashidan yoki xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar bo'tib ishslashidan qat'i nazar, teng huquqlarga ega va bir xil majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi. Davlat notarial idoralari notariuslari va xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar tomonidan rasmiylashtirilgan hujjatlar bir xil yuridik kuchga ega bo'ladi. Davlat notarial idoralari notariuslariga maxsus unvonlar – mansab darajalari beriladi.



## Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. Adliya vazirligi tizimini aytib bering.
3. Adliya vazirligi qanday funksiyalarini amalga oshiradi?
4. Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari o'z faoliyatini qaysi prinsiplar asosida amalga oshiradi?
5. Notarius bo'lish uchun qo'yilgan talablarni sanab bering.

## PROKURATURA ORGANLARI




SIZ USHBU BOBDA QUYIDAGILARNI BILIB OLASIZ:

- Prokuratora organlarining vazifalari va faoliyatining asosiy yo'nalishlari;
- Prokuror nazorati sohalari;
- Prokuratora organlarining tizimi va tuzilishi;
- O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning vazifalari;
- O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuratasasi huzuridagi majburiy ijro byurosi va uning vazifalari.



## 1-§. Prokuratura organlarining vazifalari va faoliyatining asosiy yo'nalishlari




O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi. Prokuror barcha vazirliliklar, idoralar, mansabdar shaxslar va fuqarolarning qonunlarni aniq bajarishlarini nazorat qiladi.

**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi,  
118-modda.**

Prokuratura organlari o'z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdar shaxslardan mustaqil holda, faqat qonunga bo'ysunib amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar. O'zbekiston Respublikasi prokururaturasi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladigan prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan tizimidir.

### PROKURATURA ORGANLARI FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI:



Prokurorlar davlat nomidan nazoratni amalga oshiradilar. Ular kim bo'lishidan qat'i nazar, qonunni buzganlarga qarshi o'z vaqtida chora ko'rishlari shart.

Prokuratura organlarini tashkil qilish, ular faoliyatining tartibi, prokurorlar vakolati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, "Prokuratura to'g'risida"gi qonuniga va O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiluvchi boshqa qonun hujjatlariga asoslangan.

Prokuratura organlarining faoliyati bevosita qonunning ustuvorligini har tomonlama qaror toptirish, huquq-tartibotni mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan mustahkamlangan inson va fuqarolarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, shaxsiy huquqlari hamda erkinliklarini, shuningdek, davlat mustaqilligini, ijtimoiy davlat tuzumini, siyosiy va iqtisodiy tizimlarni, Davlat guruhlar va hududiy tuzilmalarning huquqlarini g'ayriqonuniy tajovuzlardan muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan.



### **PROKURATURA ORGANLARI O'Z FAOLIYATINI QUYIDAGI ASOSIY YO'NALISHLAR BO'YICHA AMALGA OSHIRADI:**

vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdar shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish;

jinoyatlar yuzasidan dastlabki tergov olib borish;



tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;



sudlarda jinoyat ishlari ko'rib chiqilayotganda davlat ayblovini quvvatlash, sudlarda fuqarolik ishlarini, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni hamda xo'jalik nizolarini ko'rishda ishtirok etish, qonunlarga zid bo'lgan sud hujjatlariga protest keltirish;



soliq intizomini mustahkamlashga, soliq, valyuta sohasidagi jinoyatlar va huquqbuzarliklarga qarshi kurashga, shuningdek davlatga yetkazilgan iqtisodiy zararni qoplashga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;



O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy tuzilmalarida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;




ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;




qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishida ishtirok etish.





O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari quyi pog‘onadagi prokurorlar yuqori pog‘onadagi prokurorlarga bo‘ysunish tartibida O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori boshchiligidagi **quyidagi yagona markazlashgan tizimni tashkil etadilar:**





Prokuratura faoliyati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi nazoratida bo'ladi. Prokuraturaning qonunlar ijro etilishini nazorat qilish, arizalar va xabarlarni tekshirish, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish borasidagi faoliyatiga davlat hokimiyati va boshqaruvining boshqa idoralari, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalarining hamda ular vakillarining, shuningdek, mansabdar shaxslarning aralashishi taqiqlanadi. Prokurorning g'ayriqonuniy qaror qabul qilishiga erishish yoki o'z faoliyatini amalga oshirishga to'sqinlik qilish maqsadida unga qanday shaklda bo'lmasin biron-bir ta'sir ko'rsatganlik qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

## 2-§. Prokuror nazorati sohalari

qonunlar ijrosi ustidan nazorat  
(umumi nazorat);



ushlab turilganlarni,  
qamoqqa olinganlarni saqlash  
joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-  
huquqiy ta'sirning boshqa choralarini  
ijro etish chog'ida qonunlarga rioya  
qilinishi ustidan nazorat;

jinoyatchilikka qarshi kurashni  
amalga oshiradigan organlar tomonidan  
qonunlarning ijro etilishi ustidan  
nazorat;



fuqaroning huquqlari hamda  
erkinliklariga rioya etilishi ustidan  
nazorat.

Prokurorlarning qonunlar ijrosi ustidan amalga oshiradigan nazorati **predmeti** bo'lib vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdar shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi, shuningdek ular tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi hisoblanadi. Ushbu nazorat prokuror tomonidan muayyan tekshiruvlarni o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Prokuror nazoratining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, davlat faoliyati turi sifatida biron-bir hokimiyat tizimiga kirmaydi. Prokuratura organlari o'z funksiyasi va vazifasi nuqtayi nazaridan qonun chiqaruvchi, ijro hamda sud hokimiyatining ba'zi bir belgilarini o'zida mujassamlashtirgan bo'lsa-da, ko'rsatilgan har uch hokimiyat tizimiga ham kirmaydi.



Prokuror qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratni amalgalashirish jarayonida quyidagi vakolatlarga ega:



– vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralarining, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning, harbiy qismlarning hududi va xonalariga moneliksiz kirishga, hujjatlar va materiallarni ko'rishga, tekshirishlar o'tkazishga, tekshirish uchun qarorlar, farmoyishlar, buyruqlar va boshqahujjatlarni, qonuniylikning holati to'g'risidagi va uni

ta'minlashga doir chora-tadbirlar haqidagi ma'lumotlarni talab qilishga haqli;

– davlat organlari, harbiy qismlar, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy tuzilmalari rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslaridan ular tasarrufidagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar faoliyatini tekshirish, taftish o'tkazishni, idoraviy va noidoraviy tekshirishlar o'tkazish uchun mutaxassislar ajratishni talab qilishga haqli;

– mansabdor shaxslar va fuqarolardan qonun buzilishi xususida og'zaki yoki yozma tushuntirishlar talab qilishga haqlidir.



Fuqaroning huquqlari hamda erkinliklariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalgalashirishda prokurorlar quyidagi vakolatlarga ega:



– fuqaroning huquq va erkinliklari buzilganligi to'g'risidagi arizalar, shikoyatlar hamda boshqa ma'lumotlarni ko'rib chiqadi va tekshiradi;

– arizachilarga ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish tartibini tushuntiradi;

– fuqaroning huquq va erkinliklari buzilishining oldini olish va bartaraf etish, qonunni buzgan shaxslarni javobgarlikka tortish hamda yetkazilgan zararni qoplash chora-tadbirlarini ko'radi;

– shuningdek, qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratni olib borishdagi vakolatlaridan foydalanadi.

Fuqarolarning ariza va shikoyatlari hamda yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha prokuror qaror qabul qiladi, bu qaror ustidan yuqori turuvchi prokurorga shikoyat qilinishi mumkin.

Fuqaroning huquq va erkinliklarining buzilishini jinoiy xususiyatga ega deb bilish uchun asoslar mavjud bo'lgan taqdirda prokuror jinoyat ishi qo'zg'atadi hamda uni sodir etgan shaxslar qonunga binoan jinoiy javobgarlikka tortilishiga doir choralarни ko'radi.



**Qonunlarning jinoyatchilikka qarshi kurashni  
amalga oshiradigan organlar ijro etishlari ustidan  
nazorat qilish jarayonida prokuror keng vakolatlarga  
ega, jumladan u o'z vakolatlari doirasida:**

**01** tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov organlaridan tekshirish uchun jinoyat ishlarini, hujjatlar va materiallarni hamda boshqa ma'lumotlarni talab qiladi

**02** jinoyatlar haqidagi ariza va xabarlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish hamda hal etish to'g'risidagi qonun talablarini ijrosini har oyda kamida bir marta tekshiradi

**03** tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdon shaxsi, surish-tiruvchi va tergovchilarining noqonuniy hamda asossiz qarorlarini bekor qiladi

**04** jinoyatlarni tergov qilish hamda ayrim protsessual harakatlarni bajarish to'g'risida yozma ko'rsatmalar beradi

**05** surishtiruvda, dastlabki tergovda ishtiroy etadi hamda zarur hollarda, ayrim tergov harakatlarini shaxsan bajaradi yoki tergovni to'la hajmda amalga oshiradi

**06** ayrim tergov harakatlarining olib borilishiiga sanksiya beradi, qamoqqa olish tarzidagi ehtiyyot chorasi qo'llash to'g'risida sudga iltimosnomasi kiritadi yoki iltimosnomaga rozilik beradi

**07** tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov muddatini uzaytiradi, ehtiyyot chorasi sifatida uy qamog'ida va qamoqda saqlash muddatini uzaytirish to'g'risida sudga iltimosnomasi kiritadi

**08** jinoyat ishini prokuraturaning bir tergovchisidan boshqasiga, qonunda belgilangan tartibda bir dastlabki tergov organidan boshqasiga o'tkazadi

**09** jinoyat ishlarini qo'zg'atadi yoki ularni qo'zg'atishni rad etadi, jinoyat ishlarini tugatadi yoxud ular yuzasidan ish yuritilishini to'xtatadi

**10** qonunda nazarda tutilgan hol-larda tergovchining ishni tugatishiga rozilik beradi

**11** ayblov xulosasini yoki ayblov dalolatnomasini tasdiqlaydi, ishni sudga yuboradi

**12** shuningdek, jinoyat-protsessual qonunda belgilangan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi

Prokuratura organiga O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'y sunuvchi prokurorlar orqali qonunlar ijrosi ustidan nazorat funksiyasidan tashqari, bir vaqtning o'zida jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasi ham yuklatilgandir. Shu munosobat bilan ham barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlar har oy, chorak va yillik hisobotlarini prokurorlarga topshiradilar.




Prokuror ushlab turilganlar, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda quyidagi vakolatlarga ega:



**01**

ushlab turish, qamoqda saqlash joylariga, jazoni ijro etish muassasalariga tanishish sharti bilan kirishga, tegishli hujjatlar bilan tanishish;



**02**

ushlab turish, qamoqda saqlash joylarida, jazoni ijro etish muassasalarida noqonuniy saqlab turilgan shaxslarni darhol ozod qilish;

**03**

ushlab turish, qamoqda saqlash, jazoni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etuvchi organlar hamda muassasalar ma'muriyatlarining buyruqlari, farmoiyishlari va qarorlari, tezkor-qidiruv tadbirlarining qonunga muvofiqligini tekshirishga haqli.

### 3-§. Prokuratura organlarining tizimi va tuzilishi

#### PROKURATURA ORGANLARINING TIZIMI:

**1**

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi;

**3**

viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari;

**2**

Qoraqalpog'iston Respublikasi prokururasi;

**4**

tumanlar va shaharlar prokuraturalari;

**5**

viloyat prokuraturalariga tenglashtirilgan O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokururasi, O'zbekiston Respublikasi Transport prokururasi;



tuman prokuraturalariga tenglashtirilgan, hududiy harbiy, transport va ixtisoslashtirilgan prokuraturalar.

6



O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi huzuridagi Majbuliy ijro byurosi

7



8

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOSH PROKURATURASIGA

Bosh prokuror rahbarlik qiladi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi va ozod etiladi


Birinchi o'rindbosari, o'rindbosarlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi va ozod etiladi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori hamda uning o'rindbosarlarini lavozimiga tayinlash hamda lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasida bosh boshqarmalar, boshqarmalar va bo'limlar tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining katta yordamchilari va yordamchilari, bosh boshqarmalar, boshqarmalar, bo'limlarning boshliqlari, ularning o'rindbosarlari, katta prokurorlar, prokurorlar, alohida muhim ishlar bo'yicha katta tergovchilar va alohida muhim ishlar bo'yicha tergovchilar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.



O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasida Bosh prokuror (rais), uning birinchi o'rribosari, o'rribosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, O'zbekiston Respublikasining harbiy prokurori, prokuratura organlarining boshqa rahbar xodimlaridan iborat tarkibda hay'at tuziladi. Hay'atning tarkibini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tasdiqlaydi.

## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI PROKURATURASIGA



Uning O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan tayinlanadigan va ozod etiladigan birinchi o'rribosari va o'rribosarlari bo'ladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi prokururasida Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori (rais), uning birinchi o'rribosari, o'rribosarlari va prokuratura idoralarining boshqa xodimlaridan iborat tarkibda hay'at tuziladi. Hay'atning tarkibini O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tasdiqlaydi.

**Viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarga** tegishli prokurorlar boshchilik qiladi, ular O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladilar. Viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan birinchi o'rribosari va o'rribosarlari bo'ladi.

Viloyatlar, Toshkent shahar va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarda prokuraturaga boshchilik qiladigan prokuror (rais), uning birinchi o'rribosari, o'rribosarlari va prokuratura idoralarining boshqa xodimlaridan iborat tarkibda



hay'at tuziladi. Hay'atlarning tarkibini tegishli prokurorlarning taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasiga O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori rahbarlik qiladi, u lavozimiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o'rinnbosari hisoblanadi.

Tumanlar, shaharlar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarga tegishli prokurorlar rahbarlik qiladi, ular O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar. Bu prokurorlar yuqori turuvchi tegishli prokurorga hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'y sunadilar va ularning oldida hisobdordirlar.

Yuqorida ko'rsatilgan barcha prokurorlarning vakolat muddati – besh yil.



O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori quyidagi vakolatlarga ega:



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga qonunchilik tashabbusi bilan murojaat etishi mumkin;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining majlislarida ishtirok etishi, uning ko'rib chiqishi uchun masalalar kiritishi va ko'rيلayotgan masala yuzasidan fikr bildirishi mumkin;

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi majlislarida ishtirok etadi, ko'rيلayotgan ishlar bo'yicha va muhokama qilinayotgan masalalar yuzasidan fikr bildiradi, qonun hujjatlarini qo'llash bilan bog'liq masalalar bo'yicha Plenum tushuntirishlar berishi xususida takliflar kiritadi;

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi hay'atining tarkibini tasdiqlash to'g'risidagi takliflarni O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga kiritadi;

prokuratura organlari xodimlariga darajali unvonlar beradi va oliy darajali unvonlar berish to'g'risidagi taqdimnoma bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga murojaat etadi;

prokuratura organlari xodimlarini O'zbekiston Respublikasi davlat mukofotlariga taqdim etadi;

prokuratura organlari xodimlarini "O'zbekiston Respublikasi prokurururasining faxriy xodimi" ko'krak nishoni bilan taqdirlaydi;

buyruqlar chiqaradi hamda prokuratura organlarining tarkibiy bo'linmalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

chet el davlatlarining tegishli organlari bilan hamkorlik to'g'risidagi bitimlar tuzadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari va boshqa hujjatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga zid bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qarori asosida bekor qilinadi.

## 4-§. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning vazifalari



PROKURATURA DEPARTAMENTI



oshiruvchi mustaqil ixtisoslashtirilgan huquqni muhofaza qiluvchi organdir.

Departament jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi. Departamentning qonun hujjatlarida belgilangan vakolati doirasida qabul qilingan qarorlari vazirliklar, davlat qo‘mitalari, davlat boshqaruv, mahalliy hokimiyat organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, shuningdek, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiydir.

### DEPARTAMENT

Departament  
boshligi  
(Bosh prokuror  
o‘rinbosari)



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
tomonidan tayinlanadi

Birinchi  
o‘rinbosar va  
o‘rinbosarlar  
(ikki nafar)



Departament boshligining taqdimnomasiga binoan hamda  
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda  
O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga  
tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi

## **DEPARTAMENTNING ASOSIY VAZIFALARI QUYIDAGILAR HISOBLANADI:**



► insofli tadbirdorlar, chet el investorlarining faoliyatini noqonuniy aralashuv-dan himoya qilish, biznesni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi sun'iy to'siqlarga chek qo'yish, importni optimallashtirishga va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirishga ko'maklashish;

► budjet mablag'larini talon-toroj qilish va ulardan maqsadsiz foydalanish, davlat xaridlarida narxlarni oshirib yuborish, davlat organlari va tashkilotlarda debtor hamda kreditor qarzdorlikning asossiz ortishi holatlarini aniqlash, yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha choralar ko'rish;

► yoqilg'i-energetika kompleksida, ijtimoiy, bank-moliya, soliq, transport va qurilish sohalarida iqtisodiy jinoyatlar hamda korrupsiya qarshi kurashish, ularning oqibatlarini, shuningdek, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish;

► davlat manfaatlariga zid ravishda bitimlar tuzish holatlariga qarshi kurashish, chet el valutasi mablag'larini g'ayrihuquqiy ravishda chiqib ketishi, olib kirish va olib chiqish, ularning noqonuniy muomalasi, "xufiyona iqtisodiyot" kanallarini aniqlash;

► iqtisodiy jinoyatlar va korrupsiya qarshi kurashish masalalari bo'yicha chet davlatlarining vakolatli organlari va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qilish, shuningdek, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish, bu borada keng tushuntirish va profilaktika ishlarini amalga oshirish.

### **5-§. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi majburiy ijro byurosi va uning vazifalari**

2017-yildan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida Majburiy ijro byurosi tashkil etilib, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi to'g'risida va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosida xizmatni o'tash to'g'risidagi nizomlar tasdiqlandi.

Majburiy ijro byurosi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi mustaqil huquqni muhofaza qiluvchi organ hisoblanadi.



#### **Yodda tuting**

Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini majburiy ijro etish O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi (MIB) tomonidan amalga oshiriladi.



## MAJBURIY IJRO BYURO TIZIMI:



01

Byuroning markaziy  
apparati

02

Byuroning Qoraqalpog'iston  
Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar  
boshqarmasi

03

Byuroning tuman  
(shahar) bo'limlari

Majburiy ijro byuro quiyi turuvchi rahbarlarning yuqori turuvchi rahbarlarga, shuningdek, Bosh prokurorga, tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tuman (shahar) prokurorlariga bo'y sunishi hamda hisobdorligi asosida faoliyat ko'rsatadi. Majburiy ijro byuro o'z vazifa va funksiyalarini amalga oshirishda davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi. Majburiy ijro byuro faoliyati O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va Majburiy ijro byurosini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

Majburiy ijro byuro yuridik shaxs hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasvirlangan va o'z nomi yozilgan muhrga, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq ochiladigan bank hisob raqamlariga ega bo'ladi.



Quyidagilar Majburiy ijro byuroning asosiy  
vazifalari hisoblanadi:

sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarining so'zsiz ijrosini ta'minlash, ijro hujjatlari hamda undirilgan mablag'larning haqqoniy hisobini yuritish, ijro ishi yuritishda sansalorlik va suiiste'molchilik holatlarining oldini olish;

elektr, gaz uzatish va gaz taqsimlash tarmoqlariga noqonuniy ulanish, talon-toroj holatlarini aniqlash, bartaraf etish va oldini olish;

elektr energiyasi va tabiiy gaz uchun to'lovlarning o'z vaqtida va to'liq undirilishini, iste'molchilarining qarzdorligi kamaytirilishini ta'minlash;



energiya resurslari iste'molini nazorat qilish va hisobga olishning zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimlari, shuningdek, muqobil energiya manbalarining joriy etilishi ustidan monitoring o'tkazish;

energiya resurslarini sotish va iste'moli hisobini yuritishda ishtirok etish;

energiya resurslari iste'molchilarining mas'uliyati va huquqiy madaniyatini oshirish choralarini ko'rish;

kompleks tahlil o'tkazish, tizimli muammolarni aniqlash, energiya resurslari uchun hisob-kitob qilinishini ta'minlash va majburiy ijro tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

qonun hujjatlarida belgilangan taribda ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish, surishtiruv va tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish.

Majburiy ijro byuroga Bosh prokurorning taqdimnomasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadigan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimidan ozod etiladigan direktor rahbarlik qiladi.



### Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Prokuratura organlarining faoliyatini tartibga soluvchi qaysi normativ-huquqiy hujjatlarni bilasiz?
2. Prokuratura organlari qaysi yo'nalishlarda o'z faoliyatini olib boradi?
3. Prokuratura organlarining tizimi va tuzilishi haqida gapirib bering.
4. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori qanday vakolatlarga ega?
5. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagи "Prokuratura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonunning mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
6. Prokuror nazorati tushunchasiga izoh bering.

## ICHKI ISHLAR VA YONG'IN XAVFSIZLIGI ORGANLARI

V  
BOB



SIZ USHBU BOBDA QUYIDAGILARNI BILIB OLASIZ:

- Ichki ishlar organlari, uning tizimi va asosiy vazifalari;
- Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy prinsiplari va yo'naliishlari;
- Yong'in xavfsizligi organlarining tashkiletilishi va faoliyatining asosiy yo'naliishlari;
- Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimi va tuzilishi.



## 1-§. Ichki ishlar organlari, uning tizimi va asosiy vazifalari

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning joylardagi xizmatlari huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimiga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonun va boshqa qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlariga, “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi to‘g‘risida”gi nizom, “Ichki ishlar organlarida xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risida”gi nizom va “Ichki ishlar organlarining intizom ustavi”lari hamda boshqa sohaviy normativ-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiradi.

Ichki ishlar organlari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishdan, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta’minlashdan, shuningdek huquqbazarliklarning oldini olish va profilaktikasidan iborat.

### ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI

1

O‘zbekiston  
Respublikasining  
Konstitutsiyasi

2

“Ichki ishlar  
organlari to‘g‘risi-  
da”gi qonun

3

boshqa qonunchilik  
hujjatlari



2016-yilda mustaqil O‘zbekistonning 25 yillik tarixida ilk bor “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib, unda ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari, faoliyatining yo‘nalish va tamoyillari belgilab berildi.

2017-yilning 17-martida kuchga kirgan ushbu qonun ichki ishlar organlari maqomi, faoliyatining shakl va usullarini har tomonlama tartibga solish barobarida, uni yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

## ICHKI ISHLAR ORGANLARINING TIZIMI



- |   |  |
|---|--|
| <p><b>1</b> O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;</p>                    | <p><b>7</b> jazoni ijro etish muassasalari;</p>  |
| <p><b>2</b> Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;</p>               | <p><b>8</b> ichki ishlar organlarining o'ta muhim va toifalangan obyektlardagi bo'limmalari;</p>                       |
| <p><b>3</b> Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi;</p>                      | <p><b>9</b> shaharcha ichki ishlar bo'limmalari va ichki ishlar organlarining tayanch punktlari;</p>                   |
| <p><b>4</b> viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari;</p>                              | <p><b>10</b> ta'lim muassasalari (IIV Akademiyasi, Malaka oshirish instituti, IIV akademik litseylar);</p>             |
| <p><b>5</b> tumanlar va shaharlar ichki ishlar boshqarmalari (bo'limlari);</p>      | <p><b>11</b> Ichki ishlar organlari tizimiga qorovul qo'shinlari;</p>  |
| <p><b>6</b> Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmalari (bo'limlari);</p>     | <p><b>12</b> tibbiyot muassasalari (IIV Markaziy gospitali, Markaziy poliklinka, viloyat IIB tibbiyot bo'limlari);</p> |
| <p><b>13</b> xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qo'shinlar.</p> |  |

O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tasdiqlanadi va lavozimidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ozod etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining o'rindbosarlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.


O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi boshlig'i va uning birinchi o'rindbosari O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezident devoni bilan kelishilgan holda lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.



Qoraqalpog'iston Respublikasi ichki ishlar vaziri O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari va transportda jamoat xavfsizligini ta'minlash boshqarmasi boshliqlari O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri tomonidan lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Tumanlar va shaharlar ichki ishlar boshqarmalari (bo'limlari), tarmoq ichki ishlar boshqarmalari (bo'limlari) boshliqlari Qoraqalpog'iston Respublikasi ichki ishlar vazirining, Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi boshlig'i, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari va transportda jamoat xavfsizligini ta'minlash boshqarmasi boshliqlarining taqdimnomalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri tomonidan lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.



Ichki ishlar organlaridagi xizmatga fuqarolarni qabul qilish, lavozimga tayinlash, ularning xizmatda ko'tarilishi va boshqa lavozimga o'tishi fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar amalga oshiriladi.

O'n sakkizdan o'ttiz yoshgacha, shu jumladan o'ttiz yoshdag'i, tegishli ma'lumotga ega bo'lgan, o'zining shaxsiy va ishchanlik sifatlari, sog'lig'ining holati va jismoniy tayyorgarligi bo'yicha ichki ishlar organi xodimining xizmat majburiyatlarini bajarishga qodir O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ichki ishlar organlaridagi xizmatga ixtiyoriy tartibda, tanlov asosida qabul qilinadi.

## ICHKI ISHLAR ORGANLARINING ASOSIY VAZIFALARI QUYIDAGILARDAN IBORAT:



### 2-§. Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy prinsiplari va yo'nalishlari





## Qonuniylik prinsipi



## Yagonalik prinsipi

oshirishlari tushuniladi. Ichki ishlar organlari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ularning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar himoya qilinishini ta'minlaydi.



## Ochiqlik va shaffoflik prinsipi

(foydalanilishi qonun bilan cheklangan axborot bundan mustasno). Ichki ishlar

**Qonuniylik prinsipi** deganda, ichki ishlar organlari xodimlari o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi "Ichki ishlar organlari to'g'risi" dagi qonun va boshqa qonun hujjatlari talablariga aniq rioya etishi hamda ularni bajarishi shartligi, qonunlarni aniq bajarishdan va ularga rioya qilishdan har qanday chekinish, qanday sabablarga ko'ra yuz bergenidan qat'i nazar, qonuniylikni buzish hisoblanadi hamda belgilangan javobgarlikka sabab bo'lishi tushuniladi.

**Yagonalik prinsipi** deganda, O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri rahbarlik qiladigan yagona tizimni tashkil etishi tushuniladi.

**Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariiga rioya etish hamda ushbu huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarni hurmat qilish prinsipi** deganda, ichki ishlar organlari o'z faoliyatini fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariiga rioya etish hamda ushbu huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarni hurmat qilish asosida amalga oshirishlari tushuniladi. Jismoniy va yuridik shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ichki ishlar organlarining faoliyati haqida, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlariiga bevosita daxldor bo'lgan haqqoniy axborotni olish huquqiga ega

organlari O'zbekiston Respublikasi "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi qonunida belgilangan tartibda o'z faoliyati to'g'risidagi axborotdan foydalanilishini ta'minlaydi.







**Ichki ishlar organlari faoliyatning asosiy yo'nalishlari.**

**Ichki ishlar organlari faoliyatning asosiy yo'nalishlari.** Ichki ishlar organlari o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi hamda aniqlangan jinoyat va boshqa huquqbuzarliklarga oid mavjud materiallar to'g'risidagi axborotni (elektron va boshqa shaklda) almashishni amalga oshiradi. Davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda, jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta'minlashda, jinoyatlar va ma'muriy huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash, ularga chek qo'yish, ularni fosh etish, jinoyat ishlarini tergov qilish, jinoyatchilarni qidirish, bedarak yo'qolganlarning turgan joyini aniqlash hisoblanadi.

### **ICHKI ISHLAR ORGANLARI O'Z VAKOLATI DOIRASIDA QUYIDAGI ASOSIY YO'NALISHLAR BO'YICHA FAOLIYATINI AMALGA OSHIRADI:**

**1**

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

**2**

harbiy-safarbarlik ishlarini va fuqaro muhofazasi tadbirlarini amalga oshirish;

**3**

ekspert-kriminalistika faoliyatini amalga oshirish;

**4**

ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish, ma'muriy jazolarni qo'llash to'g'risidagi qarorlarni ijro etish;

**5**

yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash;

**6**

jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash;



7

ehtiyoj choralari, jinoiy jazoni va jinoiy-huquqiy ta'sir ko'rsatishning boshqa choralarini ijro etish, shuningdek shaxslarni qidirish bo'yicha ishlarni tashkil etish;

8

pasport tizimi talablarining bajarilishini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasidan chiqish va unga kirish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni, doimiy va vaqtinchalik yashash uchun ruxsatnomalarni berish;

9

litsenziyalash va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish, shuningdek litsenziya va ruxsat etishga oid talablarga hamda shartlarga rioya etilishini nazorat qilish;

10

fuqaroviyligi va xizmat qurolining hamda uning o'q-dorilarining, sanoat uchun mo'ljallangan portlovchi materiallarning, shuningdek pirotexnika buyumlarining, giyohvandlik vositalarining, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi sohasini nazorat qilish;

11

davlat obyektlarini, o'ta muhim, toifalangan obyektlarni va boshqa obyektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo'riqlash;

12

qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga doir ishlarda ishtirok etish.

... &lt;

### 3-§. Yong'in xavfsizligi organlarining tashkil etilishi va faoliyatining asosiy yo'nalishlari



Favqulodda vaziyatlar  
vazirligi

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlar rahbarlar tarkibini tayyorlash bo'yicha Respublika markazi 1992-yili tashkil etilib, 1996-yilgacha faoliyat ko'rsatgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taklifiga binoan 1995-yil 16-avgust kuni Favqulodda vaziyatlar vazirligini tuzish haqida qaror qabul qilingan.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ular sodir bo'lganida harakat

qilish bo'yicha yaxlit davlat tizimi va uning muvofiqlashtiruvchi organi O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil etildi, sohaning zarur me'yoriy-huquqiy bazasi shakllantirildi.



Ichki ishlar vazirligidan Yong'in xavfsizligi bosh boshqarmasi, uning hududiy va tarkibiy tuzilmalari hamda Yong'in xavfsizligi instituti



## FVV TASARRUFIGA O'TKAZILDI



Mudofaa vazirligidan - Gidrometeorologik jarayonlarga ta'sir ko'rsatishni boshqaruva xizmati



Shuningdek, Gidrometeorologiya xizmati markazi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasarrufiga o'tkazildi.

Ushbu tuzilmalarni Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimiga berilishi munosabati bilan vazirlik zimmasiga yong'in xavfsizligini ta'minlash sohasida qator yangi vazifalar yuklatildi.

FVV tizimida keng ko'lamli islohotlar natijasida quyidagilar tashkil etildi:



Yong'in xavfsizligi quyi tuzilmalari bazasida tegishli favqulodda vaziyatlar bo'limlari va yong'in-qutqaruv tuzilmalari



Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish va boshqarish Milliy markazi hamda hududiy tezkor boshqaruv markazlari

Nukus, Qarshi, Samarqand va Farg'ona shaharlarida yirik favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun mo'ljallangan hududiy yong'in-qutqaruv otryadlari



Yong'in xavfsizligi instituti faoliyatini qayta tashkil etish natijasida Yong'in xavfsizligi Akademiyasi tashkil etildi



Favqulodda vaziyatlar muammolari va yong'in xavfsizligi ilmiy-tadqiqot instituti

Yong'in-qutqaruvchilarning boshlang'ich tayyoragarligi va malakasini oshirish markazi



Oliy harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun yoshlarni tayyorlash bo'yicha ixtisoslashtirilgan litseyi



Favqulodda vaziyatlar boshqarmalari tarkibida hayotiy faoliyat xavfsizligi markazlari



Yong'in xavfsizligi quyi tuzilmalari bazasida tegishli favqulodda vaziyatlar bo'limlari va yong'in-qutqaruv tuzilmalari tashkil etilib, ularga yong'inlarni bartaraf etish bilan birga qutqaruv ishlarini amalga oshirish vazifalari ham yuklatildi. Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish va boshqarish milliy markazi hamda hududiy tezkor boshqaruv markazlari tashkil etilib, ularga aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida monitoring va prognozlash vakolatlari berildi.

Nukus, Qarshi, Samarqand va Farg'ona shaharlarida yirik favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun mo'ljallangan hududiy yong'in-qutqaruv otryadlari tashkil etildi.


Ilmiy ishlarni rivojlantirish va kadrlarni tayyorlash sohasida yagona tizimni tashkil etish maqsadida:

Yong'in xavfsizligi instituti unga kunduzgi va sirtqi yo'nalishlar bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha vazifalarni yuklagan holda Akademiyaga aylantirildi;

Favqulodda vaziyatlar muammolari va yong'in xavfsizligi ilmiy-tadqiqot instituti, Yong'in-qutqaruvchilarining boshlang'ich tayyorgarligi va malakasini oshirish markazi hamda oliy harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun yoshlarni tayyorlash bo'yicha ixtisoslashtirilgan litsey tashkil qilindi.

#### **4-§. Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimi va tuzilishi**

### **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI QUYIDAGI BOSHQARMALARDAN IBORAT:**



**O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi markaziy apparati quyidagi bosh boshqarma, boshqarma, bo'lim, xizmat va markazlardan tashkil topgan:**



Vazirlik markaziy apparati vazirlikning hududiy va tarkibiy tuzilmalari, idoraviy bo'y sunuvidagi tashkilotlari faoliyatini tashkillashtirish, nazorat qilish va uslubiy rahbarlik qilish, vazirlikka yuklatilgan vazifa va funksiyalarni sifatli va o'z vaqtida bajarish; hududiy va tarkibiy tuzilmalarning ishini tashkillashtirish va nazorat qilish; xorijiy va ilg'or mahalliy tajribalarni o'rganish, aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, fuqaro muhofazasi, yong'in xavfsizligi, seysmik kuzatuvlar va kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish tizimlarini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflarni ishlab chiqish va boshqalar uchun javobgar hisoblanadi.



## FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGINING TARKIBIY TUZILMALARI

- |   |  |  |    |
|---|--|--|----|
| 1 | FVV Akademiyasi  | Maxsus muhandislik qurilish boshqarmasi  | 7  |
| 2 | Respublika maxsus vazifalar bo'yicha qutqaruv markazi                | Akademiya huzuridagi boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazi                          | 8  |
| 3 | "Qamchiq" Maxsus qidiruv, yong'in qutqaruv boshqarmasi               | Respublika seysmologik monitoring markazi  | 9  |
| 4 | Akademiya qoshidagi Fuqaro muhofazasi instituti                      | "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyi  | 10 |
| 5 | Yong'in xavfsizligi va vaziyatlar muammolari ilmiytadqiqot instituti | O'ta muhim va toifalangan obyektlarda yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish boshqarmasi | 11 |
| 6 | Markaziy baza  | "Xavfsiz daryo" DUK  | 12 |

### 0'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGINING VAZIFALARI QUYIDAGICHA:

- 1 tabiiy va texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish, yong'in xavfsizligi, seysmik kuzatuvalar, kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish, suv obyektlarida fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;
- 2 favqulodda vaziyatlar va yong'inlar yuzaga kelishining oldini olish va profilaktika tadbirlarini tashkil etish;
- 3 aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, fuqaro muhofazasi, yong'in xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish, suv obyektlarida fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish sohasidagi davlat nazoratini, ruxsat berish va boshqa maxsus funksiyalarni amalga oshirish;



4 aholi hayotiga, sog'lig'iga yoki mol-mulkiga xavf-xatar tug'ilganda kompleks yordam ko'rsatish, favqulodda vaziyatlар xavfi yuzaga kelganda yoki sodir bo'lganda ular to'g'risida aholini o'z vaqtida ogohlantirish va xabardor qilishni tashkillashtirish;

5 Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi (keyingi o'rinnlarda — FVDT) faoliyatini hamda fuqaro muhofazasi va yong'in xavfsizligini tashkil etish va ta'minlashda ishtirok etish;

6 favqulodda vaziyatlар va yong'lnarning yuzaga kelishi va rivojlanishi xavfini kompleks monitoring va prognoz qilishni ta'minlash, shuningdek, seysmik kuzatuvlar olib borish;

7 tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish, fuqaro muhofazasi, yong'in xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik birlashmalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda boshqa tashkilotlarning faoliyati, ushbu maqsadlar uchun moliyaviy, oziq-ovqat, tibbiyot va moddiy-texnik resurslarning davlat zaxira fondlarini shakllantirishga doir ishlarini muvofiqlashtirish va ularning samarali hamkorligini tashkil etish;



8 favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, yong'lnarni o'chirish, insonlar hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkini qutqarish tadbirlarini tashkil etish, vazirlik va uning tuzilmalari kuch va vositalarining doimiy shayligini ta'minlash;



9 tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish, fuqaro muhofazasi, yong'in xavfsizligini ta'minlash, seysmik kuzatuvlar, kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish, suv obyektlarida fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, shuningdek, favqulodda vaziyatlarda iqtisodiyot obyektlari faoliyatining barqarorligini oshirish sohasidagi ilmiy-texnik va innovatsion siyosat olib borishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash va maqsadli ilmiy-texnik dasturlarni tasdiqlash;

10 aholi, mansabdor shaxslar va FVDT tuzilmalarini favqulodda vaziyatlар xavfi yuzaga kelganda va sodir bo'lganda harakat qilishga tizimli tayyorlash, shuningdek, kema haydovchilarini o'qitishni tashkil etish va amalga oshirish;

11 yuqori malakali kadrlar tayyorlashning samarali tizimini yaratish, shuningdek, Vazirlik xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish;



12

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish, shuningdek, ilg‘or xorij tajribasini o‘rganish, umumlashtirish va targ‘ib qilish;



13

ishlab chiqarish va ijtimoiy ahamiyatdagi obyektlarda, shuningdek, yo‘l-transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarida favqulodda vaziyatlarning oldini olish, oqibatlarini kamaytirish va bartaraf etishga qaratilgan qurilish ishlarini, rekonstruksiya, kapital ta’mirlash, muhandislik-qurilish, o‘rmonchilik va meliorativ tadbirlarni bajarish.



### Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Ichki ishlar organlari tizimini sanab bering.
2. Huquqni muhofaza qiluvchi organ sifatida ichki ishlar organlari qanday vazifalarni amalga oshiradi?
3. Ichki ishlar organlari faoliyatida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariга rioya etish hamda ushbu huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarni hurmat qilish prinsipini qanday ro‘yobga chiqaradi?
4. Yong‘in xavfsizligi organlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini aytib bering.
5. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
6. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida qanday islohotlar amalga oshirildi?

## DAVLAT XAVFSIZLIK XIZMATI

VI

BOB



SIZ USHBU BOBDA QUYIDAGILARNI BILIB OLASIZ:

- Davlat xavfsizlik xizmatining umumiy tavsifi va faoliyatining asosiy prinsiplari;
- Davlat xavfsizlik xizmati organlarining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari;
- Davlat xavfsizlik xizmatining tizimi, huquqlari va majburiyatlari.



## 1-§. Davlat xavfsizlik xizmatining umumiy tavsifi va faoliyatining asosiy prinsiplari

**Davlat xavfsizligi** – O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini, suverenitetini, hududiy yaxlitligini va boshqa davlat manfaatlarining tashqi hamda ichki tahdidlardan himoyalanganlik holati bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanishini hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklari ro‘yobga chiqarilishini ta’minlaydi.



Davlat xavfsizlik xizmati davlat xavfsizligini ta’minalash maqsadida o‘z faoliyatini maxsus vositalar, shakllar va uslublar bilan amalga oshiradigan maxsus vakolatli davlat organi bo‘lib, davlat xavfsizligini ta’minalash sohasida yagona davlat siyosatini amalgaga oshiradi. U O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo‘ysunadi va unga hisobdordir.

DXXga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan tayinlanadigan va keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan tasdiqlanadigan Rais boshchilik qiladi. DXX raisining birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi. Davlat xavfsizlik xizmatining raisi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan respublika vazirlariga berilgan huquqlardan foydalanadi.

Davlat xavfsizlik xizmatida Davlat xavfsizlik xizmati raisi, uning o‘rinbosarlari, markaziy devoni bo‘linmalarining va Davlat xavfsizlik xizmati organlarining boshliqlaridan iborat tarkibda hay’at tuziladi. Hay’atning shaxsiy tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Davlat xavfsizlik xizmati hay’ati maslahat organi bo‘lib, u davlat xavfsizligining ta’minalish holatiga, qonun hujjatlari, Davlat xavfsizlik xizmati raisining buyruq va ko‘rsatmalarini ijro etishga, kadrlarni tanlashga, joy-joyiga qo‘yishga taalluqli masalalarni hamda zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa masalalarni ko‘rib chiqadi.

Davlat xavfsizlik xizmati faoliyatining asosiy prinsiplari qonuniylik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularni hurmat qilish, fuqarolarning yordamiga tayanish, huquqbazarliklarning oldini olish va profilaktikasi ustuvorligi, yagonalik, mustaqillik, konspiratsiyadan iborat.



## DAVLAT XAVFSIZLIK XIZMATINING ASOSIY PRINSIPLARI:



**Qonuniylik prinsipi** – Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilari o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonun va boshqa qonun hujjatlari talablariga og‘ishmay rioya etishi hamda ularni bajarish shartligini anglatadi. Qonunlarning talablarini aniq bajarish va ularga rioya etishdan har qanday chetga chiqish ularning sabablari qanday bo‘lishidan qat’i nazar, qonuniylikni buzishdir va u belgilangan javobgarlikka sabab bo‘lishi mumkin.

**Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularni hurmat qilish prinsipi** – Davlat xavfsizlik xizmatining

harbiy xizmatchilari o‘z faoliyatini fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularni hurmat qilish asosida amalga oshiradi. Davlat xavfsizlik xizmati fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, ularning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlaydi.

**Fuqarolarning yordamiga tayanish prinsipi** – Davlat xavfsizlik xizmati o‘z faoliyatida aholi bilan yaqin aloqada bo‘ladi va fuqarolarning yordamiga tayanadi.

**Huquqbazarliklarning oldini olish va profilaktikasi ustuvorligi prinsipi** – huquqbazarliklarning oldini olish va profilaktikasi, ularga imkon yaratuvchi sabablар va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish Davlat xavfsizlik xizmatining jinoyatchilikka qarshi kurashishga doir faoliyatidagi ustuvorliklardir.





Davlat xavfsizlik xizmati ishidagi **yagonalik** prinsipi mazmunan Davlat xavfsizlik xizmati unga rais rahbarlik qiladigan yagona markazlashtirilgan tizimligi, ya'ni, Davlat xavfsizlik xizmatida rais yagona markazlashgan tizimni tashkil etishi va bir butun tuzilma sifatida unga rahbarlik qilishidir.

**Mustaqillik prinsipi** – Davlat xavfsizlik xizmati o'z vakolatlarini har qanday davlat organlari, boshqa tashkilotlar va mansabdar shaxslardan qat'i nazar, faqat qonunga bo'ysungan holda amalga oshiradi. Davlat xavfsizlik xizmati faoliyatiga davlat organlarining, boshqa tashkilotlarning va mansabdar shaxslarning aralashuvi taqiqlanadi.

Bundan tashqari, Davlat xavfsizlik xizmatida o'ziga xos maxsus prinsip ham mavjuddir. Ya'ni, **konspiratsiya prinsipi** Davlat xavfsizlik xizmati o'z faoliyatini

konspiratsiya prinsipi asosida, ya'ni o'z faoliyatining, tezkor-xizmat axborotini olish, rasmiylashtirish, saqlash va undan foydalanishning alohida tartibini, shuningdek tezkor-xizmat hujjatlari bilan ishlash qoidalarini belgilagan holda amalga oshirishdir.

Mustaqillik yutuqlarini tashqi tajovuzlardan himoya qilish, fuqarolarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash bilan birga, Davlat xavfsizlik organlarining ishi, birinchi navbatda, Vatanga xiyonat qilishga, jouslikka, davlatga qarshi boshqa faoliyatga moyil bo'lgan shaxslarga qaratilgan.



## 2-§. Davlat xavfsizlik xizmati organlarining asosiy vazifalari va faoliyat yo'naliishlari

**Davlat xavfsizlik xizmati davlat xavfsizligini ta'minlash sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi va o'z vakolatlari doirasida quyidagi asosiy yo'naliishlar bo'yicha faoliyat olib boradi:**

- davlat manfaatlarini tashqi hamda ichki tahdidlardan himoya qilish;
- huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga barham berish;
- O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti va hududiy yaxlitligiga bo'lgan tajovuzlarning oldini olish, aniqlash, ularga barham berish bo'yicha razvedka va kontrrazvedka faoliyatini amalga oshirish;
- O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini qo'riqlash va himoya qilish;
- O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari va mudofaa-sanoat majmuasini davlat xavfsizligiga bo'ladigan xavf-xatarlar hamda tahdidlardan himoya qilish;
- mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash bo'yicha strategik tashabbuslarni amalga oshirishda ishtirok etish;

- terrorizm, ekstremizm, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish;
- qurol-yarog‘, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish;
- davlat manfaatlari va xavfsizligiga tahdid soluvchi milliy, etnik va diniy adovatni targ‘ib etishga qaratilgan buzg‘unchilik faoliyatining oldini olish, uni aniqlash va unga barham berish;
- iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy va axborot sohalarida davlat xavfsizligini ta’minlash;
- O‘zbekiston Respublikasi xalqining madaniy-tarixiy hamda boy ma’naviy merosini himoya qilish;
- davlat organlari va boshqa tashkilotlarda davlat manfaatlariga hamda xavfsizligiga tahdid soluvchi korrupsiya holatlariga qarshi kurashish;
- telekommunikatsiyalar va transport sohasida davlat xavfsizligini ta’minlash, favqulodda vaziyatlarga shart-sharoit yaratuvchi omillarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga barham berish;
- tergovi Davlat xavfsizlik xizmati vakolatiga kiritilgan jinoyat ishlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergovni o’tkazish, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish;
- davlat organlari va boshqa tashkilotlarda davlat sirlarining saqlanishini, maxsus aloqaning xavfsizligini ta’minlash hamda axborotning kriptografik himoyasini tashkil etish ustidan nazorat qilish;
- davlat manfaatlari va xavfsizligiga tahdid soluvchi huquqbazarliklarning sodir etilishiga imkon yaratuvchi sabablar hamda shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish;
- davlat xavfsizlik xizmatining jangovarlik va safarbarlik shayligi holatini takomillashtirish hamda saqlab turish, favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda va harbiy holat joriy qilinganda kuch va vositalarni harakatlarga tayyorlash va h.k.

Davlat xavfsizlik xizmati davlat xavfsizligini ta’minlash maqsadida o‘z faoliyatini maxsus vositalar, shakllar va uslublar bilan amalga oshiradigan maxsus vakolatli davlat organidir.

Davlat xavfsizlik xizmatining asosiy vazifalari O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini, suverenitetini, hududiy yaxlitligini hamda boshqa davlat manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilishdan, qonuniylikni mustahkamlashvaqonun ustuvorliginita’minlashdan, shuningdek Davlat xavfsizlik xizmatining vakolatiga kiritilgan huquqbazarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga barham berishdan iborat.





### 3-§. Davlat xavfsizlik xizmatining tizimi, huquqlari va majburiyatlari

Davlat xavfsizlik xizmatining tizimi quyidagicha:



Davlat xavfsizlik xizmatining markaziy devoni



boshqarmalari



bo'limlari  
(bo'linmalari)

Qoraqalpog'iston Respublikasi;  
viloyatlar;  
Toshkent shahri;

tumanlar;  
shaharlar;



Davlat xavfsizlik xizmatining chegara qo'shnları;  
Davlat xavfsizlik xizmatining zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun tashkil etiladigan boshqa organlar.



#### DAVLAT XAVFSIZLIK XIZMATINING HUQUQLARI

**Davlat xavfsizlik xizmati davlat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda quyidagi huquqlarga ega:**

mansabdar shaxslar va fuqarolarning hujjatlarini, shu jusmladan shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini tekshirish, ularni shaxsiy ko'rikdan o'tkazish, ashyolarni, transport vositalarini hamda tashilayotgan yuklarni ko'zdan kechirish, bunda nazoratning texnik va boshqa vositalari qo'llanilishi mumkin;

mansabdar shaxslar va fuqarolardan tezkor-qidiruv, qidiruv hamda boshqa tadbirlar, tergovga qadar tekshirishlar va tergov harakatlari o'tkaziladigan joylarni tark etishni talab qilish;

jismoniy va yuridik shaxslarning turar joylariga va boshqa obyektlariga to'sqiniksiz kirish, zarurat bo'lganda qulflash moslamalari va boshqa ashyolarni buzgan holda kirish, bu joylarni jinoyatlar sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxslar ta'qib qilinayotganda yoxud u yerda jinoyat sodir etilayapti yoki sodir etilgan yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organlardan yashiringan shaxs bor deb hisoblash uchun yetarli asoslar mayjud bo'lganda yoxud kechiktirish fuqarolar hayoti va sog'lig'ini xavf ostida qoldiradigan bo'lsa, yigirma to'rt soat



ichida prokurorga bu haqda xabar bergan holda, shuningdek yetkazilgan zararning o'rnini qonunchilikda belgilangan tartibda qoplagan holda ko'zdan kechirish;

jinoyatlarning oldini olish, ularni sodir etgan yoki qidiruvda bo'lgan shaxslarni topish va ushslash maqsadida jismoniy hamda yuridik shaxslarning turar joylarida va boshqa obyektlarida ularning roziligi bilan vaqtincha bo'lisch;

davlat organlariga va boshqa tashkilotlarga kirish, zarur bo'lgan hujjatlar va materiallar bilan tanishish, davlat organlaridan va boshqa tashkilotlardan, fuqarolardan ma'lumotlarni hamda boshqa zarur hujjatlar va materiallarni so'rash va olish;

Davlat xavfsizlik xizmatining ish yurituvida bo'lgan ishlar va materiallar yuzasidan fuqarolarni, mansabdar shaxslarni chaqirish, zarur hujjatlarni, ma'lumotlarni va ularning ko'chirma nusxalarini bepul olish;

fuqarolarni ularning roziligi bilan ko'maklashishga jalb etish, Davlat xavfsizlik xizmatiga ko'maklashgan fuqarolarni taqdirlash;

davlat organlariga va boshqa tashkilotlarga yoki mansabdar shaxslarga huquqbuzarliklarning sodir etilishiga imkon yaratuvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida ijro etilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish;

jinoyatlarning holatlarini aniqlash hamda surishtiruv, dastlabki tergov organlaridan, suddan yashirinib yurgan va jinoiy jazoni o'tashdan bo'yin tovlayotgan shaxslarni qidirish, shuningdek jinoyatlarning oldini olish uchun davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan ta'sis etilgan ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlaridan bepul foydalanish;

litsenziyalashni amalga oshirish va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish chog'ida litsenziya talablari hamda shartlariga rioya etilganligini tekshirish, qonunchilikda belgilangan tartibda huquqiy ta'sir choralarini qo'llash;

Davlat xavfsizlik xizmati qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Davlat xavfsizlik xizmati raisi davlat xavfsizligiga tahdid yuzaga kelgan hollarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi majlisini chaqirish to'g'risidagi taklif bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga murojaat etishga haqli.

## DAVLAT XAVFSIZLIK XIZMATINING MAJBURIYATLARI

Davlat xavfsizlik xizmati davlat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda:

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini, suverenitetini, hududiy yaxlitligini va boshqa davlat manfaatlarini tashqi hamda ichki tahdidlardan himoyalash, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha barcha zarur choralarini ko'rishi;



- Davlat xavfsizlik xizmati faoliyatining asosiy prinsiplariga og'ishmay rioya etilishini ta'minlashi;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentini davlat xavfsizligiga tahdidlar haqida xabardor qilishi;
- O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasining qo'riqlanishi va himoya qilinishini ta'minlashi;
- davlat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etishi;
- davlat xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat organlarining va tashkilotlarning axborot-tahlil bo'linmalari bilan hamkorlikni va ularning faoliyatini muvofiqlashtirishni amalga oshirishi;
- davlat organlarida va tashkilotlarda maxfiylik rejimini ta'minlash ustidan nazoratni tashkil etishi;
- davlat xavfsizligini ta'minlash muammolari yuzasidan ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy faoliyatni amalga oshirishi;
- jinoyatlar va huquqbazarliklar to'g'risidagi murojaatlar hamda ma'lumotlarni ro'yxatdan o'tkazishi, ular yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda o'z vaqtida choralar ko'rishi;
- Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning turar joylariga hamda boshqa obyektlariga mulkdorlarning va ular vakillarining roziligidisiz yoki ular yo'qligida kirilganligiga doir barcha hollar to'g'risida prokurorni yigirma to'rt soat ichida yozma shaklda xabardor qilishi;
- huquqbazarliklarning oldini olish, ularning sodir etilishiga imkon yaratgan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko'rishi;
- o'z xavfsizligini ta'minlash choralarini ko'rishi shart.

Davlat xavfsizlik xizmatining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.



### Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Davlat xavfsizligi deganda nimani tushunasiz?
2. Davlat xavfsizlik xizmatining asosiy prinsiplarini aytib bering.
3. Davlat xavfsizlik xizmati organlarining qanday asosiy faoliyat yo'naliishlari mavjud?
4. Konspiratsiya prinsipi nima?
5. Davlat xavfsizlik xizmati raisi davlat xavfsizligiga tahdid yuzaga kelgan hollarda qanday harakatlanadi?

## SOLIQ VA BOJXONA ORGANLARI

VII

BOB




SIZ USHBU BOBDA QUYIDAGILARNI BILIB OLASIZ:

- Soliq qo'mitasi organlarining faoliyatini tashkil etish;
- Soliq qo'mitasining asosiy funksiyalari;
- Soliq qo'mitasining tuzilmasi va vazifalari;
- "Bojxona organlari" tushunchasi va Bojxona qo'mitasi faoliyatining tashkil etilishi;
- Bojxona qo'mitasi organlarining asosiy vazifalari va funksiyalari.



## 1-§. Soliq qo'mitasi organlarining faoliyatini tashkil etish

Soliq xizmati organlari soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarining (bundan buyon matnda soliqlar deb yuritiladi) budjetga to'liq va o'z vaqtida tushishini ta'minlash maqsadida tuziladi.



Soliq xizmati organlari o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonun, boshqa qonunchilik hujjatlariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga amal qiladi.

Soliq xizmati organlari o'z faoliyatini davlat boshqaruvi organlaridan, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil tarzda qonunchilikka muvofiq amalga oshiradi.

Soliq xizmati organlarining o'z vakolatlari doirasida qabul qiladigan qarorlari barcha soliq to'lovchilar – yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslar uchun majburiydir.



## SOLIQ QO'MITASI RAISI



O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tasdiqlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan Rais boshchilik qiladi.

Soliq qo'mitasi raisining o'rribosarlari, shu jumladan bir nafar birinchi o'rribosari bo'ladi, ular O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

### SOLIQ QO'MITASI RAISINING VAKOLATLARI

2

soliq xizmati organlari faoliyatiga rahbarlik qiladi hamda ularga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun javob beradi;

1

4

xodimlarning belgilangan cheklangan soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida Soliq qo'mitasi va soliq xizmati hududiy organlari tuzilmasiga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega.

3

Soliq qo'mitasi markaziy apparatining shtat jadvalini tasdiqlaydi;



## DAVLAT SOLIQ QO'MITASI HAY'ATI



Soliq qo'mitasida rais, uning birinchi o'rribosari, rais o'rribosarlari va Soliq qo'mitasining qo'mita faoliyatining asosiy yo'nalishlarini muvofiqlashtiruvchi tarkibiy bo'linmalari rahbarlaridan iborat tarkibda hay'at tashkil etiladi.



Hay'at quyidagi masalalarni ko'rib chiqadi:

Soliq qo'mitasi faoliyatining soliq qonunchiligiga rioya etilishini yanada ta'minlash, davlatning iqtisodiy manfaatlari va mulkiy huquqlarini himoya qilish bo'yicha ushbu Nizomda nazarda tutilgan asosiy yo'nalishlarini tayyorlash va amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi nomenklaturasiga kiradigan lavozimlarga kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish, tayyorlash va qayta tayyorlash;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha ijro intizomini mustahkamlash, Soliq qo'mitasi rahbarlari va xodimlarining ularni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash yuzasidan shaxsiy javobgarligini oshirish.



## HUDUDIY SOLIQ ORGANLARI



Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar soliq boshqarmalariga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan boshliqlar boshchilik qiladi.

Soliq inspeksiyalariga O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi raisi tomonidan belgilangan tartibda tayinlanadigan boshliqlar boshchilik qiladi.

Hududiy soliq boshqarmalari va soliq inspeksiyalari boshliqlari o'zlariga yuklangan vazifalar amalga oshirilishini ta'minlaydi, o'zlariga bo'ysunuvchi bo'linmalar faoliyatini tashkil etadi, muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi.

### 2-§. Soliq qo'mitasining asosiy funksiyalari



## SOLIQ QO'MITASINING FUNKSIYALARI:



01

soliq siyosatini amalga oshirish;

02

soliq sohasidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarining to'g'ri hisoblab chiqilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi yuzasidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash;



03

soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarining O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetiga, davlat maqsadli jamg‘armalariga va budjetdan tashqari jamg‘armalarga to‘liq miqdorda tushishini ta’minlash;

04

soliq to‘lovchilar, soliq solish obyektlari hamda soliq solish bilan bog‘liq bo‘lgan obyektlarning to‘liq va o‘z vaqtida hisobga olinishini ta’minlash, ularni to‘liq qamrash va hisobga olish mexanizmlarini takomillashtirish, soliq to‘lovchilar identifikasiyalash tartib raqamlarining yagona reyestrini yuritish;

05

soliq solish bazasini kengaytirish hamda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarining yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlarini ro‘yobga chiqarish, soliq sohasidagi huquq buzilishlarining oldini olish, aniqlash va ularga barham berish bo‘yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish;

06

pul mablag‘larining noqonuniy aylanishi manbalariga barham berish, naqd pul tushumining aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan banklar kassalariga o‘z vaqtida va to‘liq topshirilishi yuzasidan tizimli nazoratni ta’minlash;

07

soliq qonunchiligiga rioya etish uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minlash, soliq to‘lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarishda yordam ko‘rsatish, ularga ko‘rsatiladigan axborot-maslahat xizmatlari turlarini kengaytirish;

08

bozorlar va savdo komplekslarining moliya-xo‘jalik faoliyati yuzasidan qat’iy nazoratni amalga oshirish;

09

soliq xizmati organlarini halol, yuqori malakali, o‘z ishiga sadoqatli xodimlar bilan ta’minlash, kadrlar tarkibining sifat darajasini yaxshilash bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish va h.k.





### 3-§. Soliq qo'mitasining tuzilmasi va vazifalari



## SOLIQ QO'MITASINING TARKIBIY TUZILMASI



## QO'MITA TARKIBIDAGI TASHKILOTLAR



1

### “SOLIQ-SERVIS» DUK

O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida “Soliq-servis” DUKning soliq to'lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarishda texnik jihatdan ko'maklashish, shuningdek, hisobotlar va deklaratsiyalarni qabul qilish bo'yicha soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish yuzasidan davlat soliq xizmati organlariga amaliy yordam berish yo'naliishida hududiy markazlari tashkil etilgan.

**2**

## **SOLIQ QO'MITASI HUZURIDAGI FISKAL INSTITUT**



O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi huzuridagi Fiskal instituti soliqlar va soliqqa tortish sohasi uchun oliv ma'lumotli mutaxassislar va ilmiy kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha tayanch oliv ta'lim muassasasi bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, moliyaviy nazorat va audit hamda soliq, moliya va tijorat huquqi, iqtisodiyotda, axborot texnologiyalari sohalarida kadrlar tayyorlash va yuqori darajada fundamental hamda ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilishini ta'minlaydigan oliv ta'lim muassasasi hisoblanadi.

**3**

## **"YANGI TEKNOLOGIYALAR" ILMIY AXBOROT MARKAZI DUK**

"Yangi texnologiyalar" ilmiy axborot markazi davlat unitar korxonasi (YTIAM) soliq organlari faoliyatini avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish hamda boshqa davlat organlarining avtomatlashtirilgan axborot tizimlari bilan bog'lash ishlarini amalga oshirish uchun tashkil etilgan.

**4**

## **"SOLIQ MALUMOTLARINI QAYTA ISHLASH MARKAZI" DUK**

Mazkur DUKning asosiy vazifasi soliq xizmati organlarining elektron ma'lumotlar bazasining shakllanishi, boshqarilishi va xavfsiz saqlanishini, axborot tizimlariga texnik xizmat ko'rsatilishi, uzlusiz ishlashini ta'minlash hisoblanadi.



### **SOLIQ QO'MITASINING ASOSIY VAZIFALARI**

**1**

soliqlarning soliq to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'liq hamda o'z vaqtida tushishini ta'minlash;

**2**

soliq to'lovchilar bilan ishlashni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan soliq to'lovchilarga muloqotsiz elektron xizmat ko'rsatishga o'tish yo'li bilan amalga oshirish;

**3**

davlat soliq siyosatini amalga oshirish hamda soliq to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi, soliqlarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni ta'minlash;



4

pul mablag'larining g'ayriqonuniy aylanishi manbalariga barham berish, aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul tushumining to'liq va o'z vaqtida topshirilishi ustidan muntazam nazoratni ta'minlash;

5

bozorlar va savdo komplekslarining moliya-xo'jalik faoliyati, ular tomonidan soliq to'g'risidagi qonunchilikka rioxva etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish hamda ularning hududida aniqlangan huquqbazarliklar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv o'tkazib, jinoyat ishlarini tergovga tegishliligiga ko'ra huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshirish;


6

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan valyuta hamda eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish chog'ida qonunchilikka rioxva etilishi ustidan o'z vakolatlari doirasida nazoratni amalga oshirish va h.k.

#### **4-§. Bojxona organlari va Bojxona qo'mitasi faoliyatining tashkil etilishi**

O'zbekiston Respublikasi bojxona qo'mitasi (BQ) davlat boshqaruvi organi hisoblanadi va o'z vakolatlari doirasida yagona boj siyosati o'tkazilishini, bojxona organlari tizimining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi.

##### **BOJXONA ORGANLARI FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI**




Bojxona qo'mitasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va xalqaro bitimlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlariga amal qiladi.



Bojxona qo'mitasining qonunchilikka muvofiq o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari, mulkchilik shartlaridan qat'i nazar, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ijro bajarilishi majburiydir.



## BOJXONA QO'MITASINING TARKIBIY TUZILMASI



## BOJXONA QO'MITASI RAISI



O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi raisi O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik palatasini ma'qullaganidan keyin kiritilgan taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tasdiqlanadi va lavozimidan ozod etiladi.



O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi raisi maqomiga ko'ra vazirga, O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi raisining birinchi o'rribosari va o'rribosarlar esa tegishinchalashirganda vazirning birinchi o'rribosari va o'rribosarlariga tenglashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi raisining o'rribosarlar, Bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar bo'yicha boshqarmalari va "Toshkent-AERO" ixtisoslashtirilgan bojxona kompleksi boshliqlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

## 5-§. Bojxona qo'mitasi organlarining asosiy vazifalari va funksiyalari



### DAVLAT BOJXONA QO'MITASINING ASOSIY VAZIFALARI:



Jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlarini himoya qilish;

bojxona to'lovlarini undirish;



fugorolarning bojxona sohasidagi huquqiy madaniyatini yuksaltirish va h.k.

bojxona to'g'risidagi qonunchilikka riosa etilishi ustidan nazoratni amalgalashirish, qonunchilik buzilishlarining, shu jumladan kontrabandaning oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo'yish;

bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini amalga oshirish;



Shuningdek, Bojxona qo'mitasi organlarining quyidagi vazifalari mavjud:



- jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda o'z vakolatlari doirasida ishtirok etish;
- tashqi savdo operatsiyalarining monitoringini amalga oshirish, eksport-import shartnomalarining ijrosini tahlil qilish, shuningdek tashqi savdo operatsiyalarining bojxona organlariga taalluqli qismini o'tkazishda valyuta to'g'risidagi qonunchilikka rioya etish;
- tovarlarning tashqi savdosiga doir bojxona statistikasini hamda tashqi iqtisodiy faoliyatning tovar nomenklaturasini yuritish;
- xavfni boshqarish tizimi qo'llanilishi samaradorligining muntazam monitoringini amalga oshirish va boshq.

### **Bojxona qo'mitasi organlari yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:**

- ✓ yagona bojxona siyosati amalga oshirilishining huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy mexanizmalarini ishlab chiqadi, ularning amalda qo'llanilishini ta'minlaydi, bojxona ishi sohasida qonun hujjatlari va normativ hujjatlar loyihalari tayyorlanishida qatnashadi;
- ✓ O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari ishlab chiqilishida qatnashish, belgilangan tartibda va o'z vakolatlari doirasida bojxona masalalari bo'yicha xalqaro bitimlar va shartnomalar tuzadi;
- ✓ belgilangan tartibda bojxona nazorati amalga oshirilishini ta'minlaydi va uning shakllarini takomillashtiradi;
- ✓ bojxona qonunchiliga va o'z vakolatlari doirasida-soliq qonunchiliga rioya etilishi ustidan nazoratni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va qabul qiladi;
- ✓ bojxona tartibga solish vositalari qo'llanilishini ta'minlaydi, bojxona - tarif mexanizmi ham shu jumлага kiradi, tashqi iqtisodiy faoliyatni tarifli tartibga solish usullari, kvotalash normalari, litsenziyalash va deklaratsiya taqdim etish ishlab chiqilishi va amalga oshirilishida belgilangan tartibda qatnashadi;
- ✓ boj poshlinalari, soliqlar va boshqa to'lovlar davlat budgetiga o'z vaqtida va to'liq o'tkazilishini ta'minlaydi;
- ✓ o'z vakolatlari doirasida valyuta nazoratini amalga oshiradi;
- ✓ bojxona statistikasi metodologiyasini takomillashtiradi, bojxona ishi sohasida statistika ma'lumotlari to'planishi, ularga ishlov berilishi va tahlil qilinishini tashkil etadi, respublikaning tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish, tashqi savdo va to'lov balansini mustahkamlash bo'yicha prognoz hisob-kitoblarni amalga oshiradi va takliflarni ishlab chiqadi;
- ✓ kontrabandaning, bojxona qonunchiligining, o'z vakolatlari doirasida soliq qonunchiligi buzilishining oldini olish va ularga barham berish chora-tadbirlarini



mustaqil ravishda yoki huquqni muhofaza qilish organlari bilan o'zaro hamkorlikda ishlab chiqadi va qo'llaydi, shuningdek xalqaro terrorizmga va O'zbekiston aeroportlarida xalqaro fuqaro aviatsiyasi faoliyatiga g'ayriqonuniy aralashishga qarshi kurashishga ko'maklashish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va qo'llaydi;

✓ bojxona organlari vakolatiga tegishli bo'lgan ishlar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va qonunchilikka muvofiq bojxona qoidalari buzilishi to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadi;

✓ yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan qonunchilikda nazarda tutilgan bojxona qoidalari buzilganligi uchun ta'sir ko'rsatish choralarini belgilangan tartibda qo'llaydi;

✓ giyohvandlik vositalari, psixotrop va portlovchi moddalar, qurol-yarog' respublikaning bojxona chegarasi orqali g'ayriqonuniy olib o'tilishining oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va qo'llaydi;

✓ respublikaning va xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan birgalikda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar nazorat ostida yetkazib berilishini amalga oshiradi;

✓ bojxona organlariga yuklangan vazifalar va funksiyalar amalga oshirilishini ta'minlovchi ilmiy-texnik xizmatlar, laboratoriylar, o'quv markazlari, boshqa korxonalar va tashkilotlarni tashkil etadi;

✓ bojxona organlari xodimlarini tayyorlaydi, qayta tayyorlaydi va ularning malakasini oshiradi;

✓ xalqaro bojxona va savdo tashkilotlarida qatnashadi, xorijiy davlatlarning bojxona organlari, bojxona ishi masalalari bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi, qonunchilikda belgilangan tartibda xorijiy mamlakatlarning bojxona xizmatlari bilan axborotni o'zaro ayrboshlaydi;

✓ xavfli yuklar, qurol-yarog'lar, harbiy texnika, harbiy mol-mulklar, portlovchi moddalar va buyumlar, shuningdek harbiy tarkiblar tranziti chog'ida qonunchilikka muvofiq xulosalar beradi va nazoratni amalga oshiradi.



### Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi qanday tarkibiy tuzilishga ega?
2. Soliq qo'mitasi raisining vakolatlarini tushuntiring.
3. Soliq qo'mitasining asosiy funksiyalari nimalardan iborat?
4. Soliq qo'mitasining asosiy vazifalarini tushuntiring.
5. Bojxona qo'mitasi organlarining tuzilishi qanday?
6. Bojxona qo'mitasi organlarining vazifalari nimalardan iborat?



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASI. OZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI DAVLAT XAVFSIZLIK XIZMATI

SIZ USHBU BOBDA QUYIDAGILARNI BILIB OLASIZ:



- O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya tarixi, faoliyati va tizimi;
- Milliy gvardiyaning vakolatlari va vazifalar;
- O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Surishtiruvni muvofiq-
- lashtirish boshqarmasi va uning assosiy vazifalari;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati, uning faoliyati mazmuni va asosiy vazifalari;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining huquqlari va majburiyatlar;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining boshqa organlar va tashkilotlar bilan hamkorligi.



## 1-§. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya tarixi, faoliyati va tizimi



O‘zbek davlatchiligi tarixi va taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamoat tartibini saqlash, aholi xavfsizligi va osoyishtaligini ta’minlash, davlat obyektlarini qo‘riqlash muhim vazifa hisoblangan. Tarixiy manbalarda mamlakatda ichki xavfsizlikni ta’minlash maqsadida faoliyat olib borgan tuzilmalarning nomi, boshqaruv strukturasi, vazifalari va xizmat faoliyati doimiy ravishda o‘zgarib borganligi kuzatiladi.

Bugungi kunda jamoat tartibini saqlash, aholi tinchligi, xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda ichki qo‘riqlash kabi vazifalarni amalgga oshirayotan O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tarixi aynan shu sohaga oid faoliyat bilan shug‘ullanuvchi boshqa kuch tuzilmalari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati tarkibida boshlangan.



### Yodda tuting

“Gvardiya” italyancha so`z bo‘lib, “guardia” – “posbon”degan ma’noni anglatadi. Gvardiya dastlab harbiy boshliqning shaxsiy soqchisi vazifasini o‘tagan bo‘lsa, keyinchalik gvardiyadan jangovar kuch sifatida foydalanila boshlangan.

2017-yilning avgust oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmoni asosida O‘zbekiston Respublikasi hududiy yaxlitligi va davlat suverenitetini himoya qilish, fuqarolarning konstitutsion huquq va erkinliklarini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi IIV Ichki vazifalarni bajaruvchi bo‘linmasi va O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining maxsus brigadasi bazasida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qayta tashkil etildi.

Milliy Gvardiya O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi qonunga va boshqa qonunchilik hujjatlariga bo‘ysunadi.

Milliy Gvardiya faoliyatining asosiy prinsiplari “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi qonunning 4-moddasida belgilab qo‘yilgan bo‘lib, ular quyidagilar:



- qonuniylik;
- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularni hurmat qilish;
- yagonalik;
- mustaqillik.

Milliy gvardiyaning faoliyatini tashkil etishda Milliy gvardiya bevosita O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo‘ysunadi va unga hisobdor, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan Milliy gvardiya qo‘mondoni rahbarlik qiladi, qo‘mondon esa maqomiga ko‘ra vazirga tenglashtirilgan.



Milliy gvardiya organlarida haqiqiy harbiy xizmatda bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchilaridir;

Milliy gvardiyaga harbiy xizmatga tegishli ma'lumotga ega bo‘lgan, sog‘lig‘ining holatiga va jismoniy tayyorgarligiga ko‘ra Milliy gvardiya harbiy xizmatchisining xizmat majburiyatlarini bajarishga qodir bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari qabul qilinadi;



Milliy Gvardiya



### 3 Milliy Gvardiya



Milliy gvardiyada xizmatda bo'lgan, maxsus unvonlar berilgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari Milliy gvardiya xodimlaridir;

Milliy gvardiya xodimlari harbiy unvonlar berilgan va harbiy xizmatni o'tash to'g'risida kontrakt tuzilgan holda harbiy lavozimlarga tayinlanishi mumkin.

### 4 Milliy Gvardiya




## 2-§. Milliy gvardiyaning vakolatlari va vazifalari



mansabdar shaxslar va fuqarolarning hujjatlari, shu jumladan shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini tekshirish, ularni shaxsiy ko'rnikdan (tintuvdan) o'tkazish, transport vositalarini va yuklarni ko'zdan kechirish;

fuqarolardan jinoyat, ma'muriy huquqbazarlik sodir etilgan joyni, hodisa joyini tark etishini talab qilish;



turar joylarga va boshqa obyektlarga to'sqiniksiz, zarurat bo'lganda qulflash moslamalari va boshqa ashyolarni buzgan holda kirish, u yerni ko'zdan kechirish;

jinoyatlarning oldini olish, ularni sodir etgan shaxslarni topish va ushslash maqsadida, jismoniy hamda yuridik shaxslarning turar joylarida va boshqa obyektlarida ularning roziligi bilan vaqtinchalik bo'lish;





5

fuqarolarni o‘z roziligi bilan Milliy gvardiyaga ko‘maklashishga jalb etish, ko‘maklashgan fuqarolarni taqdirlash;



qo‘riqlanadigan obyektlarning xodimlaridan, mansabdar shaxslaridan va boshqa fuqarolardan obyektga ruxsatnomalar bilan kirish hamda uning ichki rejimlariga rivoja etishini talab qilish;

6



7


jinoyatlar yoki ma’muriy huquqbazarliklar sodir etishda gumon qilinayotgan shaxslarni ushlab turish va Milliy gvardiya organlariga yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda olib borishni amalga oshirish va boshqalardan iborat.

### MILLIY GVARDIYANING MAJBURIYATLARI

- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, davlat xavfsizligini himoya qilish bo‘yicha choralar ko‘rish;
- jamoat joylarida fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash;
- jinoyat, ma’muriy huquqbazarlik sodir etilgan joyda yoki hodisa joyida jabrlangan fuqarolarga birinchi tibbiy yordam yoki boshqa yordam ko‘rsatilishini tashkil etish;
- jinoyatlar faktlari bo‘yicha jinoyat ishlarini qo‘zg‘atishi, ma’muriy huquqbazarliklar to‘g‘risidagi ishlarini yuritish;
- jinoyatlarning oldini olish, ularni aniqlash, ularga chek qo‘yish va ularni fosh etish, shuningdek ularga tayyorgarlik ko‘rishga hamda ularni sodir etishga aloqador bo‘lgan shaxslarni aniqlash va topish choralarini ko‘rish;
- huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshirishi, ularning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlashi hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha choralar ko‘rish;
- xizmatga doir axborotning, shuningdek xizmat majburiyatlarini bajarishi chog‘ida o‘ziga ma’lum bo‘lib qolgan davlat sirlarini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma’lumotlarning maxfiyligini va saqlanishini ta’minlash;
- Milliy gvardiyaning zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.



**O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining vazifalari.** O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari qo'shinlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va huquqburzaliklar profilaktikasi sohasida huquqni muhofaza qilishga doir ayrim vazifalarga ega bo'lgan maxsus turidir.




Milliy gvardiya o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda davlat organlari va boshqa tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hamkorlik qiladi.

### **3-§. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Surishtiruvni muvofiqlashtirish boshqarmasi va uning asosiy vazifalari**

2019-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasida surishtiruv institutining tashkil etilishi munosabati bilan Surishtiruvni muvofiqlashtirish boshqarmasi tashkil topgan.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Surishtiruvni muvofiqlashtirish boshqarmasi jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligiga asosan, o'z vakolatlari doirasida har tomonlama, to'la va xolisona tergovga qadar tekshiruv va surishtiruvni o'tkazish, javobgarlikning muqarrarligi prinsipini so'zsiz amalga oshirish,

shuningdek Milliy gvardiyaning hududiy surishtiruv bo'linmalari faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirishni ta'minlovchi O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi mustaqil bo'linmasi hisoblanadi.





## BOSHQARMANING ASOSIY VAZIFALARI:

01

tergovga qadar tekshiruv va surishtiruv amaliyotini kompleks va tizimli tahlil qilish, jinoyatlarning sodir etilishi sabablari va unga imkon yaratadigan shart-sharoitlarni aniqlash, ularni bartaraf etish;

02

har tomonlama, to'la va xolisona tergovga qadar tekshiruv va surishtiruvni amalga oshirilishini, qonuniylikka so'zsiz rioya etilishini ta'minlash;

03

tergovga qadar tekshiruv va surishtiruvni yuritishda uslubiy va amaliy yordam ko'rsatish, o'ta murakkab yoki o'ta dolzARB, viloyatlararo xususiyatga ega, respublikada shov-shuvga sabab bo'lgan jinoyatlar bo'yicha bevosita surishtiruvni amalga oshirish;

04

qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyotini hamda tergovga qadar tekshiruv va surishtiruvni tashkil etishning shakl hamda uslublarini yanada takomillashtirish va h.k.

Milliy gvardiya surishtiruv bo'linmalarining protsessual faoliyati ustidan nazorat qonun bilan belgilangan vakolatlari doirasida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan amalga oshiriladi.



Ish yuritish va davlat sirlarini saqlash talablari bo'yicha tadbirlar boshqarma tomonidan qonunda va Milliy gvardiyaning tegishli normativ huquqiy hujjatlarida o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

## **4-§. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati, uning faoliyati mazmuni va asosiy vazifalari**



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining asosiy vazifalari qo‘riqlanadigan shaxslarning hayoti, sog‘lig‘i, sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilishdan, qo‘riqlanadigan obyektlar xavfsizligini ta‘minlashdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining faoliyati Konstitusiya, qonun va boshqa me’yoriy hujjatlar bilan tartibga solingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati qo‘riqlanadigan shaxslarning xavfsizligini ta‘minlash sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha faoliyat olib boradi:**

**01** qo‘riqlanadigan shaxslarning xavfsizligini ta‘minlash hamda qo‘riqlanadigan obyektlarni tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilish, mazkur sohadagi huquqbazarliklarning oldini olish, aniqlash va ularga barham berish;

**02** qo‘riqlanadigan shaxslarga tajovuzlar qilinishining oldini olish, ularni aniqlash hamda ularga barham berish bo‘yicha kontrrazvedka faoliyati;

**03** tezkor-qidiruv faoliyati, o‘z yurituviga taalluqli ishlar bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv o‘tkazish;


**04** O‘zbekiston Respublikasining davlat organlari va boshqa tashkilotlarida Prezident maxsus aloqa tarmog‘ining xavfsizligi ta‘minlanishi ustidan nazorat qilish;

**05** qo‘riqlanadigan shaxslarning manfaatlari va xavfsizligiga tahdid soluvchi huquqbazarliklarni sodir etilishiga imkon beruvchi sabablar hamda shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish;

**06** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining jangovar va safarbarlik shayligi holatini takomillashtirish hamda saqlab turish, favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda va harbiy holat joriy qilinganda kuch va vositalarni harakatlarga tayyorlash va h.k.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati qo‘riqlanadigan shaxslar va obyektlar xavfsizligini ta’minlaydigan, shuningdek qo‘riqlanadigan shaxslar va obyektlarning xavfsizligi masalalari bo‘yicha jalg qilingan O‘zbekiston Respublikasining davlat organlari va boshqa tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtiradigan, ularning hamkorligini hamda tezkor boshqaruvini amalga oshiradigan maxsus vakolatli davlat organidir.



## 5-§. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining huquq va majburiyatları



**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati o‘z vakolati doirasida quyidagi huuqlarga ega:**

- qo‘riqlanadigan shaxslarning xavfsizligini ta’minlash, ular turgan obyektlarni qo‘riqlash va mudofaa qilish bo‘yicha jangovar navbatchilikni tashkil etish hamda olib borish, qo‘riqlash tadbirlarini tashkil etish va o’tkazish tartibini hamda qo‘riqlash tadbirlariga jalb qilinadigan kuchlar va vositalarning, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining davlat organlari hamda boshqa tashkilotlaridan jalb qilinadigan kuchlar va vositalarning tarkibini belgilash;





- qo'riqlanadigan shaxslarning hamda obyektlarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha vazifalarni hal etishga O'zbekiston Respublikasi davlat organlarining va mulkchilik shaklidan qat'i nazar, boshqa tashkilotlarining xodimlarini jalg etish va ularga tezkor rahbarlik qilishni amalga oshirish, shuningdek O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, chet el fuqarolarini hamda fuqaroligi bo'lмаган shaxslarni ularning roziligidiga ko'ra jalg etish;
- qo'riqlanadigan obyektlarda va qo'riqlash tadbirlari o'tkaziladigan joylarda nazorat-o'tish rejimini o'rnatish;
- qo'riqlanadigan obyektlarga va qo'riqlash tadbirlari o'tkaziladigan joylarga olib o'tiladigan (olib kiriladigan), shuningdek qo'riqlanadigan obyektlardan olib chiqiladigan (olib ketiladigan) ashyolarning (yuklarning) ro'yxatini belgilash;
- qo'riqlanadigan shaxslar bilan muloqotda bo'ladigan va ular turgan obyektlarga xizmat ko'rsatishga jalg etiladigan jismoniy shaxslarni maxsus tekshirishni amalga oshirish, anketa ma'lumotlarini va boshqa zarur ma'lumotlarni so'rab olish, qoralovchi ma'lumotlar olingan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi davlat organlari va boshqa tashkilotlari xodimlarini ishlardan chetlashtirish haqida taqdimnomalar kiritish;



● qo'riqlanadigan shaxslarga transport xizmati ko'rsatish yoki ularning xavfsizligini ta'minlash maqsadida foydalaniladigan havo kemalarining va boshqa transport vositalarining qo'riqlanishini ta'minlash;

● qo'riqlanadigan shaxslarga xizmat ko'rsatish uchun beriladigan transport vositalarining shayligini tekshirishni, shu jumladan ulardan foydalanish tartibi va qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

● qo'riqlanadigan shaxslarning hamda obyektlarning xavfsizligini ta'minlashga doir qonunchilikda belgilangan chora-tadbirlarga rioya etilishini jismoniy va yuridik shaxslardan talab qilish;

● qo'riqlanadigan shaxslarning va obyektlarning xavfsizligiga tahdid soluvchi sabablar hamda shart-sharoitlarni bartaraf etish haqida O'zbekiston Respublikasining davlat organlariga va, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, boshqa tashkilotlariga ijro etilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish;

● qo'riqlanadigan shaxslarning hayoti va sog'lig'iga haqiqatda tahdid yuzaga kelishining oldini olish zarurligi munosabati bilan ishlarni bajarishni, xo'jalik faoliyatini va boshqa faoliyatni amalga oshirishni o'n ish kunidan oshmagan muddatga to'xtatib turish;





● zarur bo'lganda, qo'riqlanadigan shaxslarning harakatlanish yo'nalishlarida, joylarning alohida uchastkalarida va obyektlarda transport vositalari hamda piyodalarining harakatlanishini vaqtinchalik cheklash yoki taqiqlash, shuningdek transport vositalarini shatakka olish bo'yicha choralar ko'rish;

● qo'riqlanadigan shaxslarning xavfsizligini ta'minlash manfaatlarini ko'zlab, kechiktirib bo'lmaydigan hollarda jismoniy shaxslarning turar joylaridan (egalarining roziligi bilan), yuridik shaxslarning xizmat xonalaridan, aloqa

vositalaridan va boshqa mol-mulkdan qonunchilikda belgilangan tartibda zararning o'rnini qoplagan holda foydalanish, bundan chet davlatlarning diplomatik, konsullik va boshqa vakolatxonalariga hamda xalqaro tashkilotlarga tegishli bo'lgan turar joylar va xizmat xonalari, aloqa vositalari va boshqa mol-mulk mustasno;

● tashkilotlarning yoki fuqarolarning transport vositalarida hodisa sodir bo'lgan joyga yetib borish, shoshilinch tibbiy yordamga muhtoj fuqarolarni tibbiyot muassasalariga olib borish, jinoyat sodir etgan shaxslarni ta'qib qilish va ularni ichki ishlar organlariga olib borish uchun ushbu transport vositalaridan foydalanganligi faktini tasdiqlovchi va transport vositalaridan foydalangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilarini identifikasiyalovchi hujjatlarni bergen holda foydalanish, bundan chet davlatlarning diplomatik, konsullik va boshqa vakolatxonalariga, xalqaro tashkilotlarga tegishli bo'lgan transport vositalari mustasno;

● qo'riqlanadigan shaxslarning xavfsizligini ta'minlash manfaatlarini ko'zlab, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi aeroportlaridan, aerodromlaridan, uchish-qo'nish yo'laklari va maydonlaridan, vokzallardan, daryo portlaridan, shuningdek telekommunikasiya tizimlaridan bepul asosda foydalanish;

● agar kechiktirilishi qo'riqlanadigan shaxslarning xavfsizligiga haqiqatda tahdid solishi mumkin bo'lsa, jinoyatlarga barham berishda, shuningdek jinoyatlar sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxslarni ta'qib qilayotganda jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli turar joylarga va boshqa xonalarga, yer uchastkalariga va hududlarga moneliksiz kirish, keyinchalik yigirma to'rt soat ichida bu haqda tegishli prokurorni yozma ravishda xabardor qilish;

● qo'riqlanadigan shaxslar turgan obyektlarda, harakatlanish yo'nalishlarida, ularning atrofida, shuningdek qo'riqlash tadbirlari o'tkazilayotgan joylarda muhandislik-texnik, sapyorlik-





kinologik va laboratoriya-instrumental diagnostikani amalga oshirish, portlovchi moddalarga va qo'poruvchilik-terrorchilik (shu jumladan biologik) vositalariga yoki axborotdan ruxsatsiz foydalanish qurilmalariga tegishli ekanligi xususida shubha tug'diruvchi moddiy obyektlarni (ashyolarni) evakuatsiya va yo'q qilishni amalga oshirish, aloqa va ma'lumotlar uzatish kanallariga to'siq qo'yish bo'yicha texnik tadbirlar o'tkazish;

● qo'riqlanadigan shaxslarning xavfsizligiga tahdidlarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga barham berish maqsadida tezkor-qidiruv hamda kontrrazvedka faoliyatini amalga oshirish, oshkora va maxfiy asosda fuqarolarning yordamidan foydalanish;

● O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini ixtiyoriy asosda shtatdan tashqari tezkor xodimlar sifatida jalg etish;

● O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining yurituviga taalluqli ishlar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv o'tkazish;

● huquqbazarliklar sodir etishda gumon qilinayotgan, huquqbazarliklar sodir etayotgan yoki sodir etgan shaxslarni qonunchilikda belgilangan tartibda ushlab turish;

● huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshirish, shu jumladan qo'riqlanadigan shaxslarning xavfsizligini ta'minlash manfaatlariga daxldor bo'lgan huquqbazarliklarning sodir etilishi sabablarini aniqlash, bartaraf etish;

● qo'riqlanadigan shaxslar turgan obyektlar, harakatlanish yo'naliislari va ularga tutash hududlar uzra samoviy hududda uchuvchisiz uchish apparatlardan foydalanish bilan bog'liq faoliyatni boshqaruva hamda navigatsiya signallariga to'siq qo'yish, shuningdek mazkur apparatlarga shikast yetkazish yoki ularni yo'q qilish yo'li bilan to'liq yoki qisman taqiqlash;

● qo'riqlanadigan shaxslarning va obyektlarning xavfsizligini ta'minlash masalalariga taalluqli bo'lgan faktlar hamda hodisalarni hujjatlashtirishni, fotosuratga olishni, ovozli yozuvni, kino va videotasvirga olishni amalga oshirish;

● belgilangan tartibda axborotning kriptografik himoyasini amalga oshirish va uning xavfsizligini ta'minlash;

● ruxsat beruvchi tegishli hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda, yuklarni (bagajni) ko'zdan kechirmasdan O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab tashish;

● O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati egaligida yoki foydalanishida bo'lgan prezident maxsus aloqa tarmog'i liniyalari va vositalarining ishlab turishini hamda xavfsizligini ta'minlovchi ishlarni bajarish uchun O'zbekiston Respublikasi davlat organlariga va boshqa tashkilotlariga moneliksiz kirish hamda zarur texnik hujjatlarni olish;





- Prezident maxsus aloqa tarmog'ini va idoraviy axborot-kommunikasiya tizimlarini vaqtincha tashkil etish zarur bo'lganda aloqa kanallarini foydalanishga bepul olish;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati harbiy xizmatchilarini O'zbekiston Respublikasidan tashqariga xizmat safarlariga yuborish;
- qo'riqlanadigan shaxslar O'zbekiston Respublikasidan tashqarida turgan davrida, shuningdek chet davlatlar va xalqaro tashkilotlarning qo'riqlanadigan shaxslari O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurganida ularning xavfsizligini ta'minlashga doir faoliyatni xorijiy maxsus xizmatlar vakillari bilan muvofiqlashtirish, xavfsizlikni ta'minlash, aloqa kanallarini taqdim etish shartlari va tartibini kelishib olish;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizligi xizmati harbiy xizmatchilariga sovuq va o'qotar qurollarni va maxsus vositalarni saqlash hamda olib yurish, shuningdek xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida ularni O'zbekiston Respublikasi davlat organlari va boshqa tashkilotlari hududiga olib kirish uchun ruxsat berish;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatiga haqiqiy harbiy xizmatga qabul qilish uchun nomzodlarni O'zbekiston Respublikasi davlat organlaridan va boshqa tashkilotlaridan tanlab olishni mustaqil ravishda amalga oshirish;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizligi xizmati harbiy xizmatchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarining imkoniyatlaridan foydalanish;
- o'z faoliyatini axborot-tahliliy jihatdan ta'minlashni amalga oshirish, ilmiy va boshqa tashkilotlarni, mutaxassislarni jalb etish, shu jumladan shartnoma asosida jalb etish;
- qo'riqlanadigan shaxslarning va obyektlarning xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat sirlarini tashkil etuvchi arxiv ma'lumotlarini hamda boshqa ma'lumotlarni saqlash, rasmiylashtirish, ulardan foydalanish va ularni berishning alohida tartibini belgilash, zarur axborot tizimlarini yaratish.
- qo'riqlanadigan shaxslarning va obyektlarning xavfsizligini ta'minlash sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni o'z vakolatlari doirasida mustaqil ravishda yoki O'zbekiston Respublikasining davlat organlari hamda boshqa tashkilotlari bilan birgalikda ishlab chiqish.



**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati qo'riqlanadigan shaxslarning va obyektlarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish chog'ida quyidagi majburiyatlarga ega:**



- qo'riqlanadigan shaxslarning xavfsizligiga tahdidlarni prognoz qilishi, aniqlashi va ularning oldini olishi;
- qo'riqlanadigan shaxslarning va obyektlarning xavfsizligini ta'minlashi;
- qo'riqlanadigan shaxslarga transport xizmati ko'rsatish chog'ida, ovqatlanish xavfsizligini, sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni ta'minlash hamda qo'riqlanadigan shaxslarning doimiy tibbiy kuzatuvি chog'ida reglamentlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishi;
- Prezident maxsus aloqa tarmog'ining tashkil etilishini va barqaror ishlashini, axborotning kriptografik himoya qilinishini, prezident maxsus aloqa tarmog'idan foydalanish tartibini belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga O'zbekiston Respublikasi davlat organlari va boshqa tashkilotlari tomonidan rioya etilishi ustidan nazoratni ta'minlashi;
- qo'riqlanadigan shaxslarning xavfsizligini ta'minlash, qo'riqlanadigan obyektlarni hamda prezident maxsus aloqa tarmog'ini muhofaza qilish sohasidagi davlat sirlarining saqlanishi ta'minlanishini nazorat qilishi;
- qo'riqlanadigan shaxslarning avtomobil, temir yo'l, aviasiya, suv transporti va boshqa turdagи transportda harakatlanishi xavfsizligini ta'minlashi;
- qo'riqlanadigan shaxslarga xizmat ko'rsatish uchun jalb qilinadigan avtomobil transporti vositalarini faxriy mototsikl eskorti bilan ta'minlashi;
- qo'riqlanadigan shaxslarning axborot xavfsizligini va ular turgan obyektlarda kiberxavfsizlikni ta'minlashda o'z vakolatlari doirasida ishtirok etishi, qo'riqlanadigan shaxslarning sha'ni va qadr-qimmatiga tahdidlarning (tajovuzlarning) oldini olish hamda choralar ko'rish yuzasidan monitoringni amalga oshirishi;
- qo'riqlanadigan shaxslarning nufuziga putur yetkazuvchi, sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi, shuningdek ijtimoiy-siyosiy faoliyatini obro'sizlantiruvchi axborot materiallari tarqatilishini aniqlash va unga chek qo'yish, prokuratura organlariga ushbu axborot materiallarini O'zbekiston Respublikasi hududida tarqatish taqiqlangan deb e'tirof etish to'g'risida arizalar bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyat, Toshkent shahar sudlariga murojaat qilishi uchun iltimosnomalar kiritish;
- qo'riqlanadigan shaxslar va obyektlarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qo'riqlash, tezkor-qidiruv, tashkiliy-rejim, muhandislik-texnik, savyorlik-kinologik, profilaktika tadbiralarini hamda boshqa tadbirlarni rejalashtirishi, tashkil etishi va o'tkazishi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati zimmasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadigan boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.



## **6-§. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining boshqa organlar va tashkilotlar bilan hamkorligi**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati mamlakatimizning boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi hamda ularning qo‘riqlanadigan shaxslar xavfsizligini ta’minlash masalalariga doir faoliyatini o‘z vakolatlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Qo‘riqlanadigan shaxslarning, qo‘riqlanadigan shaxslar turgan obyektlarning hamda harakatlanish yo‘nalishlarining xavfsizligini ta’minlash uchun jalg qilingan O‘zbekiston Respublikasi davlat organlarining va boshqa tashkilotlarining kuch va vositalari qo‘riqlash tadbirlari o‘tkazilayotgan davrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining tezkor boshqaruvida bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining davlat organlari va boshqa tashkilotlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatiga uning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni hal etishda o‘z vakolatlari doirasida ko‘maklashishi shart.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati o‘z faoliyatida fan yutuqlaridan, zamonaviy texnologiyalardan va axborot tizimlaridan foydalanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati qo‘riqlanadigan shaxslarning hamda obyektlarning xavfsizligini ta’minlashda, huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash, ularga barham berishda hamda ularning sodir etilishi holatlarini hujjatlashtirishda texnik vositalardan, shu jumladan audio, foto va video qayd etish vositalaridan, kriptografik vositalardan hamda boshqa maxsus vositalardan foydalanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati bevosita O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo‘ysunadi va unga hisobdordir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini qo‘riqlanadigan shaxslar va obyektlarning xavfsizligi masalalari, shuningdek o‘z faoliyatining asosiy yo‘nalishlari yuzasidan muntazam ravishda xabardor qiladi.



### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining rivojlanish tarixi haqida gapirib bering.
2. Kimlar Milliy gvardiya xodimlari hisoblanadi?
3. Milliy gvardiyaning asosiy vazifalarini tushuntiring.
4. Milliy gvardiyaning hududiy surishtiruv bo‘linmalari qanday vazifalarni amalga oshiradi?
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining asosiy yo‘nalishlarini ko‘rsating.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining mamlakatimizning boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorligining ahamiyati nimada?

## ADVOKATURA VA YURIDIK XIZMAT

IX  
BOB




### ADVOKATURA

SIZ USHBU BOBDA QUYIDAGILARNI BILIB OLASIZ:

- "Advokatura" tushunchasi va advokatlik faoliyatining turlari;
- Advokatlik tuzilmalarining shakllari;
- Advokatning huquq va majburiyatlari;
- Davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmati;
- Yuridik xizmat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va funksiyalari;
- Yuridik xizmatning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi.



## 1-§. “Advokatura” tushunchasi va advokatlik faoliyatining turlari



Ayblanuvchi himoyalanish huquqi bilan ta'minlanadi. Tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Fuqarolarga, korxona, muassasa va tashkilotlarga yuridik yordam berish uchun advokatura faoliyat ko'rsatadi.

**O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 116-moddasi.**

O'zbekiston Respublikasining “Advokatura to'g'risida”gi qonuniga asosan, advokatura huquqiy institut bo'lib, u advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar hamda xususiy advokatlik amaliyoti bilan shug'ullanuvchi ayrim shaxslarning mustaqil, ko'ngilli, kasbiy birlashmalarini o'z ichiga oladi. Advokatura O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo'limgan shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko'rsatadi.



Oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan va advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyani belgilangan tartibda olgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi O'zbekiston Respublikasida advokat bo'lishi mumkin. Advokatlik faoliyati bilan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, shug'ullanishiga haqlidir.

Belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan, shuningdek sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslarning advokatlik faoliyati bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Ishni yengillashtirish uchun advokat yordamchiga ega bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining yuridik ma'lumotga ega bo'lgan fuqarosi advokat yordamchisi bo'lishi mumkin. Belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan, shuningdek sudlanganligi bekor qilinmagan yoki olib tashlanmagan shaxs advokat yordamchisi bo'lishi mumkin emas. Advokat yordamchisi advokat huquqlariga ega bo'lmaydi

hamda uning surishtiruv, dastlabki tergov organlarida, sndlarda va boshqa davlat organlarida ishlarni olib borishiga yo'l qo'yilmaydi.



Shuningdek, kamida uch yillik ish stajiga ega bo'lgan advokat stajorga ega bo'lishga haqli hisoblanadi. Oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan shaxs advokatning stajori bo'lishi mumkin. Belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan, shuningdek sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxs advokatning stajori bo'lishi mumkin emas. Stajirovka advokatlik tuzilmasida o'taladi. Advokatning stajori o'z faoliyatini advokat rahbarligida, uning alohida topshiriqlarini bajargan holda amalga oshiradi. Stajor advokatlik faoliyati bilan mustaqil ravishda shug'ullanishga haqli emas. Advokat stajorining mehnat sharoitlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuziladigan mehnat shartnomasi bilan belgilanadi. Advokat stajorining faoliyatini tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan Advokatlar palatasi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

## **ADVOKATURA O'Z FAOLIYATINI QUYIDAGI PRINSIPLAR ASOSIDA AMALGA OSHIRADI:**



Advokat maqomiga ega bo'lish uchun litsenziya Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan tegishli malaka komissiyalarining qarorlari asosida beriladi.

Litsenziya olish uchun advokat maqomiga ega bo'lishga talabgor shaxs yuridik mutaxassislik bo'yicha kamida ikki yillik ish stajiga ega bo'lishi, shu jumladan advokatlik tuzilmasida (advokatlik byurosida, advokatlik firmasida, advokatlar hay'atida, yuridik maslahatxonada) kamida uch oy muddat stajirovka o'tagan bo'lishi kerak hamda malaka imtihonini topshirishi shart. Davlat organlari, xo'jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yuridik xizmati xodimi sifatida, sudya, tergovchi, surishtiruvchi yoki prokuror lavozimida kamida uch yil yuridik mutaxassislik bo'yicha ish stajiga ega bo'lgan shaxs advokatlik tuzilmasida stajirovkadan o'tmasdan malaka imtihonida ishtiroy etishga haqli. Malaka imtihonini topshira olmagan talabgor uni takroran topshirishga kamida olti oydan keyin qo'yiladi. Belgilangan tartibda litsenziya olgan talabgor uch oy



ichida advokat qasamyodini qabul qilishi va yakka tartibda yoki litsenziyaga ega bo'lgan boshqa shaxslar bilan birgalikda advokatlik tuzilmasini tuzishi yoxud faoliyat ko'rsatayotgan advokatlik tuzilmalaridan biriga kirishi shart.

## 2-§. Advokatlik tuzilmalarining shakllari

**O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi qonuniga asosan advokatlik tuzilmalarining shakllariga quyidagilarni kiritish mumkin:**

- advokatlik byurolari;
- advokatlik firmalari;
- advokatlar hay'atlari;
- yuridik maslahatxonalar.



### Advokatlik byurosni

- advokatlik faoliyatini yakka tartibda amalga oshirish uchun advokat tomonidan ta'sis etilgan, notijorat tashkiloti bo'lgan advokatlik tuzilmasidir.

### Advokatlik firmasi

- sheriklikka asoslangan va advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun advokatlar tomonidan ta'sis etilgan, notijorat tashkiloti bo'lgan advokatlik tuzilmasidir.

### Advokatlar hay'ati

- a'zolikka asoslangan va advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun advokatlar tomonidan ta'sis etilgan, notijorat tashkiloti bo'lgan advokatlik tuzilmasidir.

Advokatlik firmasining yoki advokatlar hay'atining joylashgan yeri yashash uchun mo'ljallanmagan joyda bo'lishi kerak.

**Yuridik maslahatxona** – advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi tomonidan tashkil etiladigan va yuridik shaxs maqomiga ega bo'lмаган advokatlik tuzilmasi. Yuridik maslahatxona tegishli hududda yuridik yordamga bo'lgan ehtiyojlarni qanoatlantirish uchun advokatlik tuzilmalarining soni yetarli bo'lмаган hollarda Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi tomonidan tashkil etiladi.

Advokatlik tuzilmalari fuqarolar va yuridik shaxslarga yuridik yordam ko'rsatganlik uchun ulardan tushadigan pul mablag'lari (daromadlar) hamda qonunchilikda taqiqilanmagan boshqa mablag'lar hisobidan ta'minot oladi.

Advokatlar palatasi O'zbekiston Respublikasi barcha advokatlarining



### Yodda tuting

Advokatlar palatasi va uning hududiy boshqarmalarining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari barcha advokatlik tuzilmalari va advokatlar uchun majburiydir.



palatasi advokatlarning qonun hujjalariiga muvofiq amalga oshiriladigan faoliyatiga aralashmaslik prinsipi asosida faoliyat ko'rsatadi. Advokatlar palatasining vazifalari va vakolatlariga o'xshash vazifalar va vakolatlarga ega bo'lgan boshqa tashkilotlarni tashkil etishga yo'l qo'yilmaydi. Advokatlar Advokatlar palatasi va uning hududiy boshqarmalarining majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi, advokatlarning majburiyatlari bo'yicha esa Advokatlar palatasi va uning hududiy boshqarmalari javob bermaydi.

**Malaka komissiyalari.** Zarur bilimlar va kasbiy malakalarga ega bo'lgan shaxslarga litsenziyalar berish to'g'risidagi masalani hal etish, advokat qasamyodini qabul qilish maqsadida, shuningdek advokatlarga nisbatan intizomiy ish yuritishni olib borish uchun Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari huzurida malaka komissiyalari tuziladi.

Malaka komissiyalari Advokatlar palatasi hududiy boshqarmalarining va adliya organlarining qo'shma qarorlari bilan advokatlar hamda adliya organlari xodimlaridan teng miqdorda tuziladi.

Malaka komissiyalarining qarorlari ustidan keltirilgan shikoyatlarni ko'rib chiqish, malaka komissiyalarining ish tajribasini umumlashtirish va tahlil qilish uchun Advokatlar palatasi huzurida Oliy malaka komissiyasi tuziladi. Oliy malaka komissiyasining tarkibi Advokatlar palatasi va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining qo'shma qarorlari bilan advokatlar hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi xodimlaridan teng miqdorda tasdiqlanadi.

### 3-§. Advokatning huquq va majburiyatları



**Yodda tuting**

*Advokatlik erkin kasb turiga kiradi.*

**Advokat kasbiy faoliyatini amalga oshirish chog'ida quyidagi huquqlarga egadir:**

– tegishli masalalarni hal etishga vakolatli bo'lgan barcha organlar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning topshirig'iga muvofiq ularning manfaatlarini ifoda etish va huquqlarini himoya qilish;

– tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergovni o'tkazish va ishni sudda ko'rib chiqish chog'ida yoki ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqayotgan organlarda va boshqa vakolatli organlarda ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi ish yoki jinoyat ishi materiallariga qo'shib qo'yilishi, shuningdek albatta baholanishi lozim bo'lgan dalillarni to'plash va taqdim etish;

– yuridik yordam ko'rsatilishi munosabati bilan advokat tomonidan so'rangan hujjalarni yoki ularning tasdiqlangan ko'chirma nusxalarini qonunchilikda belgilangan tartibda berishi shart bo'lgan davlat organlari va boshqa organlardan, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan ma'lumotnomalar,



tavsifnomalar hamda boshqa hujjatlarni so'rash va olish;

- yuridik yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan masalalar yuzasidan ekspertlarning yozma xulosalarini, mutaxassislarining ma'lumotnomalarini ishonch bildiruvchi shaxsning (himoya ostidagi shaxsning) roziligi bilan so'rash va olish;
- ishga taalluqli axborotdan xabardor bo'lgan shaxslarni so'rovdan o'tkazish va ularning roziligi bilan yozma tushuntirish olish;
- ishga taalluqli axborotdan xabardor bo'lgan shaxslarni so'rovdan o'tkazish va ularning roziligi bilan yozma tushuntirish olish;
- to'plangan materiallarni o'z ishonch bildiruvchi shaxsining (himoya ostidagi shaxsning) ishi yuzasidan ish yuritayotgan sudsiga va boshqa davlat organlariga taqdim etish;
- advokat yuridik yordam ko'rsatayotgan ishdagi zarur ma'lumotlarni yozib olish, materiallar va hujjatlardan texnika vositalari yordamida o'z hisobidan nusxalar olish yoki ularda ko'rsatilgan ma'lumotlarni o'zga shaklda qayd etish, bunda davlat sirlari, tijorat siri yoki boshqa sirni o'z ichiga olgan axborotni oshkor qilmaslik;
- ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) bilan maxfiylik ta'minlanadigan sharoitlarda (shu jumladan uni qamoqda saqlab turish davrida) uchrashuvlarning soni, davomiyligi cheklanmagan holda hamda ishni yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslarning ruxsatisiz xoli uchrashish;
- mansabdor shaxslarga iltimosnomalar bildirish va shikoyatlar berish hamda ulardan yozma shaklda asoslantirilgan javoblar olish;
- iqtisodiy, fuqarolik va ma'muriy ish yuritilayotganda ishni sud muhokamasiga tayyorlash chog'ida yoki sud muhokamasi jarayonida davlat sud-ekspertiza muassasalari va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan shartnoma asosida ishonch bildiruvchi shaxs roziligi bilan ekspertiza o'tkazilishini so'rash;
- ekspertiza xulosasi ish materiallariga qo'shib qo'yilishini va sud tomonidan ushbu xulosa ishdagi mavjud dalillar bilan birgalikda baholanishini talab qilish;
- qonunchilikka muvofiq boshqa harakatlarni bajarish.

### ADVOKATNING MAJBURIYATLARIGA QUYIDGILAR KIRADI:

- advokat o'z professional faoliyatida amaldagi qonun hujjatlari talablariga, advokatning kasb etikasi qoidalariga, advokatlik siri va advokat qasamyodiga rioya etish;
- muayyan ish bo'yicha yuridik yordam ko'rsatayotgan yoki ilgari yuridik yordam ko'rsatgan shaxslarning manfaatlari ishni olib borishni so'rab murojaat etgan shaxsning manfaatlari zid kelgan yoki u sudya, prokuror, tergovchi, surishtiruv o'tkazuvchi shaxs, jamoat ayblovchisi, sud majlisi kotibi, ekspert, mutaxassis, jabrlanuvchining, fuqaroviylar da'vogarning, fuqaroviylar javobgarning

vakili, guvoh, xolis, tarjimon sifatida ishtirok etgan hollarda, shuningdek agar ishni dastlabki tergov qilishda yoxud sudda advokatning qarindoshi bo'lgan mansabdar shaxs ishtirok etgan yoki ishtirok etayotgan bo'lsa, xuddi shuningdek agar advokat bevosita yoki bilvosita shu ishdan shaxsan manfaatdor bo'lsa bu hol unga ishonch bildiruvchi shaxsning (himoya ostidagi shaxsning) manfaatlariga zid kelsa, yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi topshiriqni qabul qilishga haqli emas;

– advokat qaysi shaxsning manfaatlarini himoya qilish topshirig'ini olgan bo'lsa, o'z vakolatlaridan shu shaxsning zarariga foydalanishga hamda gumon qilinuvchini, ayblanuvchini, sudlanuvchini himoya qilishdan bosh tortishga, agar uni bundan ishonch bildiruvchi shaxsning (himoya ostidagi shaxsning) o'zi ozod etmasa, haqli emas;

– advokat o'z bilimlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishi, Advokatlar palatasi tomonidan belgilangan tartibda uch yilda kamida bir marta kasbiy malakasini oshirishi shart;

– jinoyat ishida ishtirok etishga tayinlangan advokat fuqaroning to'lovga qobiliyatsizligini vaj qilib, unga yuridik yordam ko'rsatishdan bosh tortishga haqli emas;

– advokat davlat xizmatida turishi mumkin emas.

Jismoniy va yuridik shaxslar nomidan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq bitimlar tayyorlanganda hamda amalga oshirilganda advokatlar jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarnilegallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog'liq axborotni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etadi.

#### **4-§. Davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmati**



Yuridik xizmat – davlat organi va tashkiloti faoliyatini huquqiy ta'minlash maqsadida qonunchilikda belgilangan me'yor va mezonlarga muvofiq majburiy tartibda tashkil etiladigan yoki joriy qilinadigan mustaqil tarkibiy tuzilma yoxud lavozim. Yuridik xizmat bevosita davlat organi va tashkilotining rahbariga bo'y sunadi.

Yuridik xizmat xodimi yoxud yuriskonsult lavozimida oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan yoki Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Yuridik kadrlarni xalqaro standartlar bo'yicha professional o'qitish markazida yuridik mutaxassislik bo'yicha qayta tayyorlash kurslarini tamomlagan va belgilangan namunadagi diplomni olgan shaxs ishlashi mumkin. Yuridik xizmat xodimi lavozimiga birinchi marta tayinlangan





shaxslar belgilangan tartibda adliya organlarida stajirovkadan o'tadilar. Adliya organlarida stajirovkadan o'tish tartibi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, shuningdek respublika darajasidagi davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmati xodimlari lavozimga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bilan kelishilgan holda tayinlanadilar va ozod qilinadilar.

Tumanlar va shaharlar hokimliklari, shuningdek hududiy darajadagi davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmati xodimlari lavozimga Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari bilan kelishilgan holda tayinlanadilar va ozod qilinadilar.

Yuridik xizmat xodimini lavozimga tayinlash va ozod qilish masalalarini adliya organlari bilan kelishish tartibi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Davlat organi va tashkilotida yuriskonsult yordamchisi lavozimi joriy etilishi mumkin. Yuriskonsult yordamchisi lavozimida oliv yoki o'rta maxsus yuridik ma'lumotga ega bo'lgan yoxud Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Juridik kadrlarni xalqaro standartlarbo'yicha professionalo'qitish markazida yuridik mutaxassislik bo'yicha qayta tayyorlash kurslarini tamomlagan va belgilangan namunadagi diplomni olgan shaxs, shuningdek, oliv ta'lim muassasasining "Yurisprudensiya" mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan bakalavriat bosqichining bitiruvchi kursi talabasi yoki magistranti ishlashi mumkin.

## 5-§. Yuridik xizmat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va funksiyalari

### QUYIDAGILAR YURIDIK XIZMAT FAOLIYATINING ASOSIY YO'NALISHLARI HISOBLANADI:

- davlat organi va tashkilotining huquqni qo'llash faoliyatida qonun ustuvorligi va qonuniylikni ta'minlashni tashkil etish;
- davlat organi va tashkiloti tomonidan ishlab chiqilayotgan (qabul qilinayotgan) normativ-huquqiy va boshqa hujjatlar loyihibalarining qonunchilikka muvofiqligi ustidan nazoratni olib borish;
- davlat organi va tashkilotining qonun ijodkorligi faoliyatida ishtirok etish, qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflarni tayyorlash masalalarida ularning tuzilmalari ishini muvofiqlashtirish;



### Yodda tuting

Yuridik xizmat yuridik departament, yuridik boshqarma, yuridik bo'lim, yuridik byuro shaklida tashkil qilinishi yoxud bitta shtatdan iborat bosh yuriskonsult, yetakchi yuriskonsult, katta yuriskonsult yoki yuriskonsultdan iborat bo'lishi mumkin.



- davlat organlari va tashkiloti xodimlarining huquqiy madaniyati va huquqiy savodxonligini oshirish, ularga qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun va ahamiyatini, shu jumladan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali yetkazishda ishtirok etish;
- shartnomaviy-huquqiy va talabnoma-da'vo ishlarini yuritish, davlat organi va tashkilotining mulkiy va boshqa manfaatlarini ishonchli himoya qilinishini ta'minlash.

Yuridik xizmat faoliyatining asosiy yo'nalishlarini bajarish uchun quyidagi funksiyalarini amalga oshiradi:

- davlat organi va tashkilotida, shuningdek tegishli tuzilmalarda qonun buzilishlarini, ularning sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish yuzasidan takliflar kiritadi, ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;
- davlat organi va tashkiloti rahbariyatiga taqdim qilinadigan buyruqlar, farmoyishlar, shartnomalar va yuridik tusdagi boshqa hujjatlar loyihibarini ularning qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan ekspertizadan o'tkazadi hamda ular bo'yicha e'tiroz va takliflar bo'lmasa, viza qo'yadi. Bunda loyihalarga yuridik xizmat tomonidan davlat organi va tashkilotining boshqa tarkibiy tuzilmalaridan (xodimlaridan) keyin viza qo'yiladi;
- jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishga ta'sir etadigan davlat organlari va tashkilotlarining qarorlari yuzasidan xulosalar beradi;
- mustaqil ravishda yoki boshqa tuzilmalar bilan birgalikda davlat organi va tashkilotining buyruqlari, farmoyishlari, shartnomalari va yuridik tusdagi boshqa hujjatlarini ishlab chiqish, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ularni o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida takliflar tayyorlaydi;
- davlat organi va tashkilotida, shuningdek tegishli tuzilmalarda huquqni qo'llash amaliyotini o'rghanadi, tahlil qiladi va umumlashtiradi, uni takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi va rahbariyatga kiritadi hamda qonunda nazarda tutilgan boshqa funksiyalarini amalga oshiradi.

## 6-§. Yuridik xizmatning huquqlari, majburiyatları va javobgarligi

### **YURIDIK XIZMAT QUYIDAGI HUQUQLARGA EGA:**

- davlat organi va tashkilotiga kelib tushayotgan normativ-huquqiy hujjatlarni tanishish, xizmatda foydalanish uchun birinchi navbatda olish;
- davlat organi va tashkiloti, shuningdek uning tizimiga kiradigan tuzilmalarning mansabdor shaxslaridan yuridik xizmatga yuklangan vazifalar va funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarni olish;
- rahbariyat tomonidan chaqiriladigan huquqiy masalalarga tegishli yig'ilishlar, kengashlar va majlislarda ishtirok etish;



- qonunchilikka zid bo'lgan, qonunchilik texnikasi talablariga javob bermaydigan normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlar loyihalarini ijrochilariga puxta ishslash uchun qaytarish, o'z e'tirozlarini asoslagan holda, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida huquqiy xulosalar berish, rahbariyat topshirig'iga ko'ra yoki o'z tashabbusi bilan boshqa tuzilmalar bilan birgalikda ushbu loyihalarini puxta ishlanishida ishtirok etish;
- davlat organi va tashkiloti tizimiga kiradigan tuzilmalarda davlat organi va tashkiloti vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha qonunchilik hujjatlariga riox qilinishi masalalarini o'rghanish;
- davlat organi va tashkiloti, shuningdek uning tizimiga kiradigan tuzilmalarning qonunchilik hujjatlari bajarilishini ta'minlamayotgan yoxud ularni buzayotgan rahbarlari va xodimlarini javobgarlikka tortish haqida rahbariyatga takliflar kiritish;
- davlat organi va tashkilotida, shuningdek uning tizimiga kiradigan tuzilmalarda yoki davlat organi va tashkiloti tomonidan o'tkaziladigan tekshirishlar, taftishlar va xatlovlarda, shuningdek ularning yakunlari bo'yicha hujjatlarni ko'rib chiqishda ishtirok etish hamda aniqlangan huquqbazarliklar yuzasidan huquqiy xulosalar berish;
- talabnoma-davo tartibida davlat organi va tashkiloti foydasiga hal qilingan nizolar yuzasidan undirilgan summaning 5 foizi, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 50 barobaridan ko'p bo'lмаган miqdorda mukofot olish. Yuridik xizmat qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Yuridik xizmat davlat organi va tashkilotida, shuningdek uning tizimiga kiradigan tuzilmalarda qonun buzilishi holatlari aniqlanganligi to'g'risida zudlik bilan to'g'ridan to'g'ri yuqori turuvchi organga, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berishi shart.

Yuridik xizmat xodimi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin. Yuridik xizmat o'zi viza qo'ygan hujjatlarning va o'zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi. Yuridik xizmat xodimi o'z majburiyatlari va funksiyalari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.



### Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Yuridik yordam tushunchasining mazmuni va ahamiyati nimadan iborat?
2. Advokat huquqiy maqomini ochib bering.
3. Advokatlar hay'ati va uni tashkil etishning asosiy prinsiplarini aytинг.
4. Advokatlik qanday kasb va advokatlarning qanday vakolatlari mavjud?
5. "Advokatura to'g'risida"gi qonun hujjatlarida qanday intizomiy ta'sir choralarini nazarda tutilgan?
6. Yuridik xizmat faoliyatining asosiy yo'nalishlarini sanab bering.

OLIY MAJLISNING INSON  
HUQUQLARI BO'YICHA  
VAKILI (OMBUDSMAN)

X  
BOB



SIZ USHBU BOBDA QUYIDAGILARNI BILIB OLASIZ:

- Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) instituti va uning tuzilishi;
- Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman)ni saylash tartibi;
- Ombudsmanning asosiy vazifalari va faoliyatining yo'nalishlari;
- Ombudsmanning davlat va nodavlat organlari bilan hamkorligi;
- Bolalar huquqlari bo'yicha vakilning faoliyati.



## 1-§. Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) instituti va uning tuzilishi

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili o'z vakolatlarini mustaqil hamda davlat organlari va mansabdar shaxslarga tobe bo'lмагan tarzda amalga oshiradi hamda u O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisobdor. Ta'kidlash joizki, Inson huquqlari bo'yicha vakil instituti MDH doirasida tashkil etilgan dastlabki institutlardan biridir.


O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha yangi tuzilmani tashkil etishning zarurati – fuqarolik jamiyatি qurilishi, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, jahon tajribasidan orttirilgan hamda O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari sohasida xalqaro tashkilotlarda ishtiroki bilan bog'liq talablardan kelib chiqib, fuqarolar huquqlarini himoya qilish bo'yicha amaliy choralarни joriy etish kabi ko'plab omillar sababli yuzaga kelgan edi. Inson huquqlari bo'yicha vakil oldida, unga berilgan vakolatlardan foydalangan holda, davlat organlari tizimida o'z o'rnnini topish vazifasi turar edi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) mansabdar shaxs bo'lib, unga davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdar shaxslar tomonidan inson huquqlari hamda erkinliklari to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan parlament nazoratini ta'minlash vakolatlari berilgan. Vakil o'z vakolatlarini mustaqil hamda davlat organlari va mansabdar shaxslarga tobe bo'lмагan tarzda amalga oshiradi va u O'zbekiston Respublikasi parlamentiga hisobdordir.

O'zbekiston Respublikasining Inson huquqlari bo'yicha vakili instituti inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari hamda vositalarini to'ldiradi. Vakil O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari to'g'risidagi qonunchiligini takomillashtirish va ularni xalqaro huquq normalariga muvofiqlashtirishga, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi, fuqarolarning inson huquqlari sohasidagi huquqiy madaniyatini oshirishga ko'maklashadi.

Vakil o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, boshqa qonun hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga, shuningdek xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplari va normalariga amal qiladi. Vakil o'z vakolatlarini mustaqil hamda davlat organlari va mansabdar shaxslarga tobe bo'lмагan tarzda amalga oshiradi va u O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisobdordir.

Inson huquqlari bo'yicha vakil, inson va fuqarolar huquqlari va erkinliklariga turli organlar va mansabdar shaxslar tomonidan rioya qilinmaganda yoki ular buzilganda, bu huquq va erkinliklarni himoya qilish uchun mamlakat parlamenti tomonidan maxsus vakolatlarga ega bo'lgan mansabdar shaxs hisoblanadi.



## OMBUDSMAN INSTITUTINING TUZILISHI:

**01**

Ombudsman Kotibiyati

Ombudsmanning butun joriy faoliyatini tashkil etish uchun kotibiyat tashkil etilgan bo'lib, u Ombudsman, Insonning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi bo'yicha komissiya va joylardagi Ombudsmanning mintaqaviy vakillari vazifalarini yuridik, tashkiliy, axborotma'lumot berish, tizimli-tahliliy jihatdan samarali ta'minlab berishni amalga oshiradi.

**02**

Insonning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi bo'yicha komissiya

Komissiya majlislarida Ombudsmanning inson huquqlari bo'yicha qonunchilikni tekshirishi natijalari, sudlar, huquqni muhofaza qilish organlari, nodavlat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlikni rivojlantirish masalalari kabi muhim muammolar, fuqarolar shikoyatlari bo'yicha xulosalar loyihalari muhokama qilinadi.



03

Ombudsmanning mintaqaviy  
vakillari

joylarda fuqarolarning murojaatlarini qabul qilish va ko'rib chiqishda Ombudsman faoliyatiga ko'maklashish hisoblanadi. O'z faoliyati bo'yicha mintaqaviy vakil faqat Vakil nazorati ostida va unga hisobdordir. Ombudsman mintaqaviy vakili ushu mintaqadagi inson huquqlariga rioya etish va himoya qilishning holati to'g'risida hokimiyatning tegishli vakillik organiga, uning sessiyalarida axborot taqdim etadi.

04

Ombudsman qoshidagi  
Jamoatchilik ekspert  
kengashi

Vakilga maslahat yordamini ko'rsatish maqsadida malakali huquqshunoslar, inson va fuqaro huquqlari hamda erkinliklari sohasida kerakli bilimlarga ega bo'lgan yirik mutaxassislar, jamoat arboblari, shuningdek, vazirliklar va idoralar, nodavlat tashkilotlari, ilmiy va o'quv muassasalari, ommaviy axborot vositalari, amaliyot vakillaridan iborat tarkibda Vakil qoshida Jamoatchilik ekspert kengashi tashkil etilgan. Ekspert kengashining faoliyati fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklash ishidagi murakkab masalalarni hal etishga, inson huquqlari sohasida qonunchilikni takomillashtirishga, aholining huquqiy bilimini oshirishga qaratilgandir.

## 2-§. Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman)ni saylash tartibi

### **OLIY MAJLISNING INSON HUQUQLARI BO'YICHA VAKILI (OMBUDSMAN)NI SAYLASH TARTIBI**

1

Vakil lavozimiga nomzod O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko'rib chiqishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kiritiladi.

2

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining va Senatining Vakilni saylash to'g'risidagi qarori palatalarning majlislarida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari hamda Senati a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

3

Vakil nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining majlislarida ko'rib chiqilganidan keyin bu masala yuzasidan qabul qilingan uzil-kesil qaror O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga qonunda belgilangan tartibda yuboriladi.

**4**

Vakil o‘zining vakolatlari muddati tugagach, yangi Vakil saylanguniga qadar o‘z vazifasini bajarishni davom ettirib turadi.

**5**

Vakil O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan besh yil muddatga saylanadi.



“Ombudsman to‘g‘risida”gi qonun Inson huquqlari bo‘yicha vakil mansabi nomzodi uchun qator talablarni qo‘yadi. Saylanish kuni yigirma besh yoshga to‘lgan, kamida besh yil O‘zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi Vakil lavozimiga saylanishi mumkin.

Qonunda Ombudsmanning lavozimdan muddatidan ilgari ozod qilish holatlari ko‘zda tutilgan: u o‘z vakolatlarini zimmasidan soqit qilish to‘g‘risida ariza bergen taqdirda; uning sog‘lig‘i holati barqaror tarzda buzilgan va bu tibbiyot muassasasi tomonidan berilgan guvohnoma bilan tasdiqlangan taqdirda; unga nisbatan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan taqdirda; u qonunga ko‘ra Vakil faoliyatiga nomuvofiq bo‘lgan lavozimga saylangan yoki tayinlangan taqdirda.

Ombudsman mansabi oliy davlat vakillik organi – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qoshidagi davlat mansabi hisoblanadi. Vakil siyosiy partiyaga a’zolik yoki unda ishtirok etish huquqiga ega emas. Qonunning ushbu talabi xizmat mavqeidan siyosiy partiya manfaatlarida foydalanishni bartaraf etishga qaratilgandir. Shuning uchun ham Ombudsman siyosiy partiyaga a’zolikni yoki unda ishtirok etishni o‘z vakolatlari muddatiga to‘xtatib turishi yoxud tugatishi shart.

Undan tashqari, ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari tadbirkorlik faoliyati va boshqa haq to‘lanadigan boshqa turdagи faoliyat bilan shug‘ullanishni taqiqlovchi umumxizmat cheklanishi ham o‘rnatilgan. Ushbu cheklovlar qonun tomonidan, Ombudsman o‘z xizmat majburiyatlarini samarali bajarishi, jahon amaliyotiga muvofiq keluvchi mustaqil bo‘lishi, inson huquqlarini obyektiv himoyachisi bo‘lishi uchun kiritilgan.

Ombudsman maqomining muhim elementi, uni immunitetining mavjudligidir. Qonunning 18-moddasiga binoan Vakil daxlsizlik huquqidан foydalanadi va u O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining roziligidisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma’muriy jazoga tortilishi mumkin emas. Ombudsmanga nisbatan jinoyat ishi faqat O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan qo‘zg‘atilishi mumkin. Bundan tashqari, Inson huquqlari bo‘yicha vakilni majburiy keltirishga, ushlab turishga, shuningdek uning shaxsiy buyumlari, yuki, transporti, turar joyi yoki xizmat xonasini ko‘zdan kechirishga yo‘l qo‘yilmaydi.



### 3-§. Ombudsmanning asosiy vazifalari va faoliyatining yo'nalishlari

Ombudsmanning Oliy Majlis palatalari tomonidan saylanadigan o'rinosi bo'ladi. Ombudsman o'z lavozimidan muddatidan ilgari ozod qilingan taqdirda, uning o'rinosi uning vazifasini yangi ombudsman saylanguniga qadar bajarib turadi va Ombudsman uchun belgilangan kafolatlar ana shu davrda unga nisbatan tatbiq etiladi.



O'zbekiston Respublikasining Inson huquqlari bo'yicha vakili instituti inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mayjud shakllari hamda vositalarini to'ldiradi. Ombudsman institutining noyobligi shu bilan belgilanadiki, prokuratura, sudlar, boshqa davlat organlaridan farq qilib, davlat manfaatlari va individual manfaatlar to'qnashuvlarini hal qilishdagi yo'nalishini hisobga olib, u teng ravishda davlatga ham, fuqarolik jamiyatiga ham taalluqlidir. Uturli davlat institutlarini fuqarolik jamiyatini a'zolariga nisbatan o'z majburiyatlarini vijdonan bajarishiga undash yo'li bilan fuqarolarga yordam ko'rsatadi.

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) inson huquqlari sohasida qonunchilikka davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, nodavlat, notijorat tashkilotlari, mansabdar shaxslar tomonidan rioya etilishining samaradorligi ustidan parlament nazoratini amalga oshiradi.

Ta'kidlash joizki, Inson huquqlari bo'yicha vakil faqatgina yuqorida ko'rsatib o'tilgan organlar tomonidan inson huquqlariga oid qonunchilikka rioya etilishinigina nazorat qiladi, xolos. Ammo ularning faoliyati ustidan tegishli organlar amalga oshiradigan umumiy nazoratni amalga oshirmaydi.

Ombudsman fuqarolarning huquqlarini yuqorida ko'rsatib o'tilgan tashkilotlar va mansabdar shaxslar tomonidan buzilganligi yuzasidan murojaatlarini qabul qilish va ko'rib chiqish hamda tegishli organlar va mansabdar shaxslarga buzilgan huquq va erkinliklarni tiklash bo'yicha mumkin bo'lgan va zaruriy choralarini ko'rish to'g'risidagi xulosalarini jo'natish yo'li bilan fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklashga yordam berishadi.

Inson huquqlariga rioya etilishi ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo'yicha o'z faoliyatini olib borish chog'ida Inson huquqlari bo'yicha vakil harakatdagi qonunchilikdagi kamchiliklarni yoki inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarga muvofiq kelmasligi holatlarini aniqlaydi va qonunlarni takomillashtirish bo'yicha o'z takliflarini kiritadi.

Inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilish sohasida turli mamlakatlar tajribasini o'rghanish uchun Ombudsman BMT, YEXHT tizimiga kiradigan tashkilotlar bilan xalqaro hamkorlikni rivojlantirib bormoqda, turli mamlakatlar ombudsman institatlari, ombudsmanlarning xalqaro muassasalarini, inson huquqlarini himoya qilish bilan shug'ullanuvchi turli tashkilotlari bilan aloqalarni amalga oshirmoqda.

Inson huquqlari bo'yicha vakil Davlat darajasida inson huquqlarini qo'llab-quvvatlash borasida mamlakat aholisiga inson huquqlari to'g'risida axborot va bilim bermoqda, fuqarolarda inson huquq va erkinliklariga bo'lgan hurmatni shakllantirmoqda.

Vakil o'z funksiyalarini amalga oshirishda mustaqil va ijro hamda sudlov hokimiyati organlariga tobe emas. Shu bois o'z faoliyatini faqat qonun asosiga quradi, o'zining joriy ishlarining qoida va tartiblarini o'rnatadi, davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va mansabdor shaxslar bilan hamkorlik qiladi.


Ombudsman qaroriga ta'sir ko'rsatish maqsadida uning faoliyatiga aralashish, mansabdor shaxslar tomonidan o'z qonuniy majburiyatlarini bajarmaslik, shuningdek, Inson huquqlari bo'yicha vakilning o'z vazifasini bajarishiga to'sqinliklar qilish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan o'rnatilgan javobgarlikni keltirib chiqaradi

O'zbekiston Respublikasining Inson huquqlari bo'yicha vakili instituti inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari hamda vositalarini to'ldiradi. Vakil O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish va ularni xalqaro huquq normalariga muvofiqlashtirish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi, fuqarolarning inson huquqlari sohasidagi ijtimoiy ongini oshirishga ko'maklashadi.



2022-yilda Ombudsman nomiga jami 17761 ta murojaat kelib tushgan. Ularning 14526 tasi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va fuqaroligi bo'lmasgan shaxslardan, chet el fuqarolaridan va xorijiy davlatlar ombudsmanlaridan, 3235 tasi jazoni ijro etish muassasalaridan yuborilgan.

Shundan, Ombudsmanga fuqarolardan tibbiy yordam olish huquqi yo'nalishida murojaatlar soni 184 tani tashkil etib, ularning 76 tasi Ombudsmanning nazoratiga olingan. Shuningdek, Ombudsman tomonidan sudda ijtimoiy huquqlar ta'minlanishi yo'nalishida 599 ta murojaat ko'rib chiqilib, ularning 166 tasi Ombudsman nazoratiga olingan, shaxsiy huquq va erkinliklarni amalga oshirish masalasida kelib tushgan 1601 ta murojaatning 253 tasi nazoratga olingan.





Vakil shikoyatlarni ko'rib chiqish, shuningdek fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi hollarini o'z tashabbusi bilan tekshirish chog'ida quyidagi huquqlarga ega:

aniqlanishi lozim bo'lgan holatlarni tekshirishda ko'maklashishni so'rab tashkilotlar va mansabdor shaxslarga murojaat qilish;

aniqlanishi lozim bo'lgan holatlarni tekshirish uchun tashkilotlarning vakillarini va mansabdor shaxslarni taklif etish. Tekshirishni harakatlari yoki harakatsizligi ustidan shikoyat berilgan tashkilotga yoxud mansabdor shaxsga topshirish mumkin emas;

tashkilotlarga va mansabdor shaxslar huzuriga moneliksiz kirish; tashkilotlar va mansabdor shaxslardan hujjatlar, materiallar va boshqa ma'lumotlarni so'rash hamda olish;

mansabdor shaxslardan tushuntirishlar olish;

aniqlanishi lozim bo'lgan masalalar yuzasidan tashkilotlar va mutaxassislarga xulosalar tayyorlashni topshirish;

inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari daxldor masalalar yuzasidan tashkilotlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan o'tkazilayotgan tekshirishlarda ishtirok etish;

ushlab turilgan yoki qamoqda saqlanayotgan shaxs bilan uchrashuv va suhabatlar o'tkazish;

harakatlarida inson huquqlari va erkinliklari buzilganligi aniqlangan shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'risida tegishli organlarga iltimosnomalar bilan kirish.

Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi hollarini tekshirayotganda ma'lum bo'lib qolgan, arz qiluvchining va boshqa shaxslarning shaxsiy hayotiga taalluqli ma'lumotlar ularning roziligidisiz oshkor qilinishi mumkin emas.



#### **4-§. Ombudsmanning davlat va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorligi**

Ombudsman o'z faoliyati davomida davlat hokimiyatining turli bo'g'inlari: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlari bilan o'zaro hamkorlik qiladi. Ombudsmanning turli davlat organlari va fuqarolarning jamoatchilik tizimlari bilan o'zaro hamkorligi quyidagilarga xizmat qiladi:

birinchidan, qonun hujjatlariga rioya etilishi samaradorligini va inson huquqlarining buzilishiga yo'l qo'ymasligini ta'minlaydi;

ikkinchidan, fuqarolarning huquqlarini himoya qilish salohiyatidan, sud va suddan tashqari organlar vositalari va imkoniyatlaridan yanada faolroq foydalanishga imkoniyat yaratadi;

uchinchidan, inson huquqlariga rioya etilishi va uni himoya qilishni ta'minlash hamda uning ro'yobga chiqarilishi mexanizmi sohasida davlat va jamiyatning sa'y-harakatlarini birlashtirish xizmat qiladi.

Ombudsmanning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati bilan o'zaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ombudsman parlament vakili bo'lganligi uchun ham, u o'z faoliyatida, birinchi navbatda parlamentga tayanadi, uning qonun ijodkorlik va nazorat faoliyati bo'yicha rejalar va dasturlariga asoslanadi. Ombudsmanning Oliy Majlis palatalarining qo'mitalari bilan o'zaro hamkorligini kengayishi inson huquqlariga bevosita taalluqli masalalar bo'yicha qonunlar loyihibarini ekspertiza qilishda ham xizmat qilmoqda.

Ombudsman fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish va buzilgan huquqlarini tiklashda o'z faoliyati samaradorligini oshirishi, inson huquqlari sohasida fuqarolarning ijtimoiy ongini yuksaltirishga doir o'z vakolatlarini ro'yobga chiqarish, qonunchilikni takomillashtirish va xalqaro hamkorlikning rivojlantirish



maqsadida sud, huquqni muhofaza qilish va boshqa davlat organlari bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish yuzasidan ko'p kuch-g'ayrat sarflamoqda. Ombudsmanni bu organlar bilan maqsadlar va vazifalar mushtarakligi – fuqarolar huquqlarini ro'yobga chiqarishga har tomonlama ko'maklashish va ularning tegishli himoya qilinishini ta'minlash birlashtirib turadi, biroq inson huquqlarini himoya qilishning mavjud salohiyati va vositalari borasida ular bir-biridan farq qiladi.



Inson huquqlarini ta'minlash va uni himoya qilish sohasida Ombudsmanning sud va huquqni muhofaza qilish organlari bilan uzviy o'zaro hamkorligi asoslarini yaratish maqsadida 1998-yilda Ombudsmanning mazkur organlar bilan hamkorligini nazarda tutuvchi Konsepsiya ishlab chiqilgan bo'lib, unda quyidagilar nazarda tutiladi:



1

Vakil asosiy faoliyatining huquqiy kafolatlarini mustahkamlashga va O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari sohasidagi qonun hujjatlari takomillashtirishga ko'maklashish;

2

Fuqarolarni ularning huquqlari buzilganligi yuzasidan qabul qilish va murojaatlarini ko'rib chiqishga doir faoliyat samaradorligini oshirish, inson huquqlarini muhofaza qiluvchi barcha organlarning sa'y-harakatlari bilan fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tiklash yuzasidan chora-tadbirlar ko'rish;

3

O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlari ijro etilishini birgalikda tekshirish va davlat apparati asosiy faoliyatini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritish;

4

Sud va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining hamda aholi ayrim toifalarining huquqiy madaniyatini oshirish maqsadida axborot-ma'rifiy faoliyat sohasida o'zaro hamkorlik qilish;

5

Inson huquqlari massalalari bo'yicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirish sohasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish.

## Fuqarolarning buzilgan huquqlarini samarali tiklash maqsadida Vakil quyidagi sudlov va huquqni muhofaza qilish organlari, vazirlik va idoralar bilan o'zaro hamkorlik qiladi:



1

Konstitutsiyaviy sud O'zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlari normalarini sharhlashda Ombudsmana katta yordam ko'rsatmoqda, bu fuqarolarning murojaatlariga javob tayyorlash, fuqarolarning yakka tartibdagi shikoyatlarini ko'rib chiqishda yuzaga keladigan turli huquqiy muammolarni hal etish, shuningdek, inson huquqlari masalalari bo'yicha turli axborot-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish imkoniyatini bermoqda.

2

Bosh prokuratura O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurururasi Ombudsman devoniga kelayotgan shikoyatlar yuzasidan axborot tayyorlashga o'z hissasini qo'shmoqda, qonunlarni tekshirish bo'yicha ishechi guruhlari ishida, ma'rifiy seminarlarni tashkil etishda qatnashmoqda. Biroq prokuratura Ombudsmana qaraganda inson huquqlarini buzuvchilarga ta'sir ko'rsatishning kengroq vositalariga ega bo'lganligi uchun ham, Ombudsman bilan prokururating o'zaro hamkorligida fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklash yuzasidan samarali choralar ko'rish asosiy o'rinni tutadi.

3

Sog'lijni saqlash vazirligi Vakil O'zbekiston Respublikasi Sog'lijni saqlash vazirligi va uning qaramog'idiagi muassasalarining mutaxassislarini fuqarolar huquqlari va erkinliklari buzilishi holatlarini tekshirish, ekspert xulosalarini tayyorlash uchun jalb qilishga haqlidir. Ushbu Bitimda, shuningdek, bemorlar va tibbiyot xodimlari huquqlari bo'yicha ombudsmanlarni ta'sis etish ham ko'zda tutilgan.

4

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi bilan hamkorligi to'g'risidagi Bitimi ham mahkumlarning huquqlarini ta'minlab berish va himoya qilish, Ombudsman yoki uning vakillarini ozodlikdan mahrum etish joylariga to'sqiniksiz tashrif buyurishi uchun sharoitlar yaratib berish, ushlanganlar yoxud hibsdan saqlanayotgan shaxslar bilan uchrashuvlar va suhbatlar o'tkazish bo'yicha birgalikda chora-tadbirlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Ochiq, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashgan demokratik, huquqiy davlat qurishning muhim ustuvorliklaridan biri: nodavlat tuzilmalar, nohukumat va jamoat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini mustahkamlash va rivojlantirish; nomarkazlashtirish va markazdan hokimiyat vakolatlarini joylarga berish; birinchi navbatda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq ko'p vazifalarni hal etishda davlat tuzilmalari rolini asta-sekinlik bilan kamaytirib borish va ushbu vazifalarni jamoat tashkilotlariga o'tkazish, yana shuningdek, davlat hokimiyati organlari va harbiy tuzilmalar faoliyati ustidan jamoat nazoratini kuchaytirish hisoblanadi.

Inson huquqlari bo'yicha vakilning nodavlat huquqni himoya qilish organlariga nisbatan tutgan pozitsiyasi – bu ichki ishlariga aralashmaslik pozitsiyasidir. Ombudsman bilan jamoat birlashmalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik fuqarolarni inson huquqlarini himoya qilish sohasida xabardor qilish, hukumat tuzilmalarini



oshkoraligi va hisobdorligini ta'minlash, xalqaro shartnomalar va Davlat qonunchilikka rioya etilishi bo'yicha monitoring o'tkazish maqsadlarida amalga oshiriladi.

Ombudsmanning nodavlat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligi muammolarini tezkor va doimiy ravishda muhokama qilish uchun nodavlat tashkilotlari vakillari ishtirokida Ishchi guruh tuzilgan. Inson huquqlari himoya qilish sohasidagi Ombudsman faoliyatining amaliyoti shuni ko'rsatdiki, Ombudsmanning nodavlat tashkilotlari bilan hamkorligining ustuvor yo'nalishlari sifatida, aholining nisbatan zaif tabaqalari: bolalar, ayollar, pensionerlar, nogironlar huquqlarini himoya qilishni, shuningdek, fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik huquqlarini himoya qilishni e'tirof etish maqsadga muvofiqdir.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi qonunning 7-moddasiga binoan Ombudsman har yili o'z faoliyati to'g'risidagi hisobotni parlamentning Qonunchilik palatasi va Senatiga taqdim etadi. Unda Ombudsman o'tgan yil uchun o'z faoliyati natijalarini, fuqarolarning shikoyatlarini ko'rib chiqishning samaradorligi bo'yicha qilingan ishlarni, qabul qilingan fuqarolar shikoyatlari va ularga berilgan tavsiyalar soni va mazmuni to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek, joylarda inson huquqlariga rioya qilinishi bo'yicha monitoring o'tkazilishi to'g'risida, qonunchilikni takomillashtirish va uni inson huquqlari sohasidagi xalqaro huquq normalari va prinsiplariga muvofiq keltirish bo'yicha kiritilgan takliflar to'g'risida, inson huquqlari va erkinliklarini rag'batlantirish bo'yicha axborot-ma'rifiy va xalqaro faoliyatni amalga oshirilishi to'g'risida ma'lumotlarni yoritib beradi.

Ombudsman hisoboti har yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarida eshitiladi. Qonunchilik palatasi har yili, yilning 15-fevralidan kechikmay O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakilining o'tgan yil uchun faoliyati hisobotini eshitadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakilining faoliyati to'g'risidagi hisobotni muhokama qilish natijalari bo'yicha Qonunchilik palatasi qaror qabul qiladi va o'n kunlik muddat ichida Senatga jo'natadi. Senat har yili o'zining majlislarida Ombudsman faoliyati to'g'risidagi hisobotni eshitadi. Ombudsman hisoboti bo'yicha Senat qabul qilgan qaror, u qabul qilingan kundan boshlab o'n kun ichida Qonunchilik palatasiga jo'natiladi.

Vakilning yillik hisoboti o'rnatilgan tartibda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari Axborotnomasi"da chop etiladi.

Ombudsmanning yillik hisoboti Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolari, hukumat a'zolari o'rtasida tarqatiladi. Hisobotning annotatsiya qilingan varianti uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) tayyorlanib, keng tarqatiladi va respublika viloyatlari, shaharlari, tumanlari hokimiyatlariga, vazirlik va idoralariga,



huquqni muhofaza qilish va sud organlariga, oliv o'quv yurtlariga, ilmiy-tadqiqot muassasalariga, kutubxonalarga, nohukumat tashkilotlari va siyosiy partiyalariga, ommaviy axborot vositalariga jo'natiladi.



## 5-§. Bolalar huquqlari bo'yicha vakilning faoliyati

Davlatning bola huquqlarini himoya qilishni ta'minlash funktsiyasi Bola huquqlari bo'yicha vakil faoliyatida aks etadi. Bugungi kunda bolalarning huquqlarini himoya qilish, ularning qonuniy manfaatlarni ta'minlashda dunyoning saksonga yaqin mamlakatlarida Bolalar ombudsmani faoliyat yuritadi. Ularning asosiy vazifasi "Bola huquqlari to'g'risida"gi konventsya qoidalarini qonunchilikka tatbiq etish, bolaning shaxsi, sha'ni, qadr-qimmati, huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlari himoyasiga butun jamiyat va davlatni faol jalb etishdan iborat.

Bolalar huquqlari bo'yicha Ombudsman yoki vakil lavozimi birinchi bo'lib Norvegiyada 1982-yilda ta'sis etilgan. Shvetsiyada esa bunday institut 1993-yilda faoliyat boshlagan. Hozirgi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida bolalar bo'yicha Ombudsman instituti faoliyat ko'rsatmoqda. Jumladan Yevropada (Avstriya, Belgiya, Germaniya, Daniya, Islandiya, Ispaniya, Lyuksemburg, Rossiya, Norvegiya, Finlyandiya, Shvetsiya) va Lotin Amerikasida (Gvatemala, Kolumbiya, Kosta-Rika, Peru), shuningdek Kanada, Isroil va Yangi Zelandiyada. Bolalar uchun ombudsman instituti va uning yaratilishi mamlakatimizning BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konventsiyasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishini nazorat qilishning ajralmas qismidir.



Prezidentimizning 2019-yil 22-apreldagi "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) o'rinosi – Bola huquqlari bo'yicha vakil lavozimi joriy etilishi natijasida mamlakatimizda bola huquqlari himoyasining tashkiliy va institutsional asoslari yanada mustahkamlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 29-maydagi "Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida Bola huquqlari bo'yicha vakilning asosiy vazifalari va faoliyati yo'naliishlari belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2021-yilning



9-avgust kunidadagi “Bola huquqlarining kafolatlarini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6275-son farmoni bilan Bolalar ombudsmani o‘z vakolatlarini mustaqil hamda davlat organlari, ularning mansabдор shaxslariga tobe bo‘limgan tarzda amalga oshiradi, o‘z faoliyatida Oliy Majlis palatalariga hisobdordirligi, bolalar ombudsmani Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan besh yil muddatga saylanishi, bolalar ombudsmani lavozimiga nomzod O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko‘rib chiqishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kiritilishi belgilab qo‘yildi.

## **BOLA HUQUQLARI BO‘YICHA VAKILNING ASOSIY VAZIFALARI VA FAOLIYAT YO‘NALISHLARI QUYIDAGICHA:**

- Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasini bajarish strategiyasini va bola huquqlari masalalari bo‘yicha boshqa hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish;
- bolalar va ularning qonuniy vakillari orasida bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tushuntirish, bola huquqlari va Bola huquqlari bo‘yicha vakil faoliyati haqidagi xalqaro hamda milliy normalar qoidalarini targ‘ib qilish;
- aholi o‘rtasida bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini masalalari bo‘yicha huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishga ko‘maklashish;
- jismoniy va yuridik shaxslar, shu jumladan, bolalar hamda ular qonuniy vakillarining bola huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzilishi to‘g‘risidagi murojaatlarini ko‘rib chiqish orqali bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini ta’minlash;
- bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlari normalari va talablarining ijrosini o‘rganish;
- o‘z vakolati doirasida bola huquqlari va erkinliklari xalqaro standartlarini qonun hujjatlariga tatbiq etishni hamda davlat organlari va boshqa tashkilotlarning faoliyatida bola huquqlariga rioya etilishini monitoring qilish;
- bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya qilish va ularni himoya qilish holatidan jamoatchilikni xabardor qilish;
- imkoniyati cheklangan bolalar, shuningdek, yetim bolalar va ota-onalarni himoya qilish holatidan jamoatchilikni xabardor qilish;





tarbiya muassasalarini tamomlagan uy-joyga muhtoj yetim bolalar va ota-onalarni qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning maqsadli kommunal uy-joy fondidagi belgilangan sanitariya va texnik me’yorlarga hamda qonun hujjatlarining boshqa talablariga javob beradigan turar-joy bilan ta’milnishiha ko‘maklashish;

bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirishga ko‘maklashish, bunda bolaning eng ustun manfaatlarini ta’milashga qaratilgan normalarni qabul qilish, shu jumladan, bola huquqlari va erkinliklari masalalari bo‘yicha xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilish to‘g‘risida takliflar kiritish;

maslahat, tavsiya va xulosalar berish orqali davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatini boshqa institutlarining bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’milash hamda himoya qilish sohasidagi faoliyatini takomillashtirishga ko‘maklashish;

bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’milash sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.



### Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Oliy Majlisning inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) qanday institut hisoblanadi?
2. Oliy Majlisning inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman)ni saylash tartibi qanday?
3. Oliy Majlisning inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman)ning asosiy faoliyat yo‘nalishlarini izohlang.
4. Ombudsmanning davlat va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorligi qanday ahamiyatga ega?
5. Bola huquqlari bo‘yicha vazifalari nimalardan iborat?



# SUD VA HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi  
akademik litseylari uchun

## DARSLIK

Muharrir: **B.K. Ergashev**  
Texnik muharrir. **R.M. Tashmatov**  
Dizayner: **Z.O. Tursunova**



Bosishga ruxsat etildi: 11.02.2023. Nashriyot-hisob tabog'i: 16.  
Qog'oz bichimi: 62x84 1/8  
Adadi: 2500 nusxa. Buyurtma: № 7.  
Kelishilgan narxda

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,  
100197, Toshkent sh., Intizor ko'chasi, 68.

"IJOD-PRESS" nashriyotida nashrga tayyorlandi.  
"Dizayn-Print" MCHJ O'ICHK bosmaxonasida chop etildi.  
100054. Toshkent shahri, Cho'pon ota ko'chasi, 28-a uy.

Telefon: (371) 273-19-51  
Faks: (371) 273-19-51  
Email: book@ijodpress.uz  
www.IjodPress.uz